

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqi asosida

UDK: 31:331(575.1)

MIROLIMOV MIRISLOM MIRSHOKIR O'G'LI

**MINTAQА MEHNAT BOZORINING STATISTIK TADQIQOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.06 -“Ekonometrika va statistika” ixtisosligi bo'yicha
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish
uchun yozilgan**

DOKTORLIK DISSERTASIYASI

Ilmiy pahbar: i.f.n., dotsent. Ayubjonov A.H.

Toshkent– 2023

MUNDARIJA

| | |
|--|------------|
| Kirish..... | 3 |
| I BOB. MINTAQQA MEHNAT BOZORINI STATISTIK TADQIQ QILISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI..... | 13 |
| §1.1. Mehnat bozori rivojlanishini o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslari..... | 13 |
| §1.2. Mehnat bozorining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini statistik baholash..... | 30 |
| §1.3. Mintaqa mehnat bozori tarkibiy tuzilishini statistik ko‘rsatkichlari tizimi..... | 45 |
| I Bob bo‘yicha xulosa..... | 57 |
| II BOB. TOSHKENT VILOYATI MEHNAT BOZORINI HOZIRGI HOLATINI STATISTIK TAHLILLI..... | 59 |
| §2.1. Viloyatda mehnat bozori rivojlanishi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tendensiylarini statistik tahlili..... | 59 |
| §2.2. Viloyatda mehnat resurslarining sifat va miqdor o‘zgarishlarini statistik ko‘rsatkichlari tahlili..... | 76 |
| §2.3. Toshkent viloyatida band aholi tarkibi va dinamikasini statistik baholash..... | 90 |
| II Bob bo‘yicha xulosa..... | 100 |
| III BOB. TOSHKENT VILOYAT MEHNAT BOZORINING ISTIQBOLDAGI KO‘RSATKICHLARINI STATISTIK BAHOLASH... | 103 |
| §3.1. Mintaqada mehnat bozori rivojlanishini ekonometrik baholash..... | 103 |
| §3.2. Mintaqada mehnat bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari | 115 |
| §3.3. Toshkent viloyati mehnat resurslarining istiqbolda o‘zgarish dinamikasi prognozi..... | 126 |
| III Bob bo‘yicha xulosa..... | 136 |
| XULOSA..... | 138 |
| ADABIYOTLAP RO‘YXATI..... | 141 |
| ILOVALAR..... | 153 |

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Hozirda jahonda ekologik barqaror iqtisodiyotga erishish hamda barcha uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish mamlakatlar oldidagi eng muhim muammolaridan biriga aylanmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "bu ikki muammo bir-biriga bog'liq bo'lib, birgalikda hal qilinishi lozim hisoblanadi. Mamlakatlar iqtisodiyotida mehnat bozori kon'yunkturasi shiddat bilan o'zgarib, xalqaro hamjamiyatda iqtisodiy manfaatlar borasida raqobatning keskinlashuvi yuz berayotgan davrda rivojlanayotgan davlatlarda mavjud mehnat resurslaridan to'liq hamda samarali foydalanish strategiyasini ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda"¹. Bu esa jahon iqtisodiyotida o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgan eski mehnat bozori institutlari va vositalari o'mida yangi samarali hamda innovatsion usullarni tadbiq etishni ta'qazo etmoqda.

Xalqaro maydonda raqobatlashuv jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida mehnat bozorini samarali rivojlantirish hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifini o'zaro muvofiqlashtirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy jihatlari tadqiq etilmoqda. Mehnat resurslari soni yuqori bo'lgan hududlarida aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish va yangi ish o'rinalarini tashkil etish, ishsizlik darajasini kamaytirish, o'zini o'zi band qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini oshirish, qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan aholining doimiy ish bilan bandligini ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirish, mintqa aholisini yashil iqtisodiyot talablariga mos keladigan yangi kasblarga tayyorlash hamda yashil ish o'rinalarini barpo etish, mehnat bozorida inklyuziv bandlikni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarni axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirish orqali ular uchun muvofiq bo'lgan ish o'rinalari bilan ta'minlash kabi dolzarb masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

¹ Манба: <http://ilostat.ilo.org>; Устойчивое развитие, достойный труд и зеленые рабочие места. Пятый пункт повестки дня. Международное бюро труда. - Женева.

O‘zbekistonda jadal va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish sharoitida aholi bandligi va turmush farovonligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublika viloyatlari, xususan Toshkent viloyatida mehnat bozoridan foydalanishni statistik tahlil qilish, korxonalarda yangi ish o‘rinlarini yaratish holatini statistik baholash, mehnat bozorini “yashil iqtisodiyot” davridagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini o‘rganish, statistik prognozlash, mehnat resurslari shakllanishini va ularning o‘zgarishini statistik tahlil qilish hamda statistik modellashtirish masalalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim vazifalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham “Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishslash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish”² bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalarning bajarilishi respublika mehnat bozoridagi muammolarni echishda dasturulamal bo‘lib xizmat qilib, ushbu jarayonni samarali amalga oshirishda hududlarda mehnat bozoriga ta’sir etuvchi omillarning salbiy ta’sirini chuqur tahlil qilishni ta’minlovchi ekonometrik hamda statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zaruriyatini tug‘ilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagи PQ-4796-son “O‘zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “**2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish**

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-sonli farmonida.

bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagи 504-sон “Rivojlanishda orqada qolayotgan hamda ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan mahallalarda aholi bandligini ta’minalash orqali oilalarning daromad manbaini yaratish tartibi to‘g‘risida”gi qarori hamda soha rivojlanishiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.«Demokratik-huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mehnat bozori va uning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish holatini ilmiy tadqiq etish, mehnat resurslari harakati va ularning ijtimoiy muhofazasini tashkil etish, aholi bandligini samarali tashkil etish, ishlab chiqarishni mehnat resurslari bilan band qilishning ayrim jihatlari bo‘yicha R.E.Lukas, A.Osvald, J.M.Keyns va J.Rudebsh kabi olimlarining ilmiy³ izlanishlarida o‘z aksini topgan. MDH davlatlari olimlaridan T.I.Zaslavskaya, A.E.Kotlyar, V.V.Adamchuk, I.S.Maslova, L.P.Vladimirova, Yu.G.Odegov, G.G.Rudenko, S.G.Strumilin, V.A.Pavlenkov⁴ M.Yu.Arkipova, N.V.Stroykina, S.A.Avvazyan, T.V.Sarlycheva, Ye.A.Dolgix, V.S.Mixitaryan, A.L.Orlova,

³ Lucas R. E. Tobin and Monetarism: A Review Article. Journal of Economic Literature. – 1981. №6 P. 5439; А.Освальд The Economic theory of trade unions: an introduction survey. Scandinavian Journal of Economics. – 1985. V. 67. P. 143 – 183; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Избр. /Дж.М.Кейнс. – М.:Эксмо, 2007. – 801-886 с; Rudebush C.D. Testing for Labour market disequilibrium with an exact excess demand disequilibrium model. Review of, Economics and Statistics. – 1986. V. 68. P. 468–476;

⁴ Заславская Т.И., Рывкина Р.В. Методологические проблемы системного изучения деревни. – Новосибирск: Наука, 1977. – 315 с.; Котляр А.Э., Трубин В.В. Проблемы регулирования перераспределения рабочей силы. – М.: Экономика, 1978. – 168 с.; Адамчук В.В., Организация и регулирование оплаты труда.- М.: Экономика, 1996. – 128 с; Маслова И.С. Российский рынок труда: монография / И.С. Маслова, В.М. Москович, Т.А. Бараненкова, Е.С. Кубишин. [Отв. ред. Маслова И.С.]; РАН. Ин-т экономики. – М.; 1993. - 189 с.; Л.П.Владимирова Кандидатская диссертация написана на тему Стимулирующая роль сдельной заработной платы в росте производительности труда работников торговли.; Одегов. Ю. Г. Экономика труда: учебник и практикум для академического бакалавриата / Ю. Г. Одегов, Г. Г. Руденко. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Изд-во. Юрайт, 2015. — 386 с; Струмилин Г.С. Проблемы экономики труда. – М.: Наука, 1982. – 471 с.; В.А. Павленков Рынок труда. Занятость. Безработица : учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальности 060200 "Экономика труда" / В.А. Павленков. - М. : Изд-во Моск. ун-та, 2004 (ОАО Можайский полигр. комб.). - 366, [1] с.

A.A.Frenkel', A.L.Pereseskiy⁵ kabi olimlar xam mehnat bozori va undagi muammolarni tizimli xal qilish ustida qator ilmiy ishlar olib borishgan. Respublikamizdagi bir qator iqtisodchi olimlari, professor o'qituvchilari tomonidan xam mehnat bozori va uning rivojlanishi borasida juda ko'plab ishlar olib borilgan. Bu olimlar sirasiga quyidagi iqtisodchi olimlarni misol qilib keltirish mumkin:

| | | |
|--|----------------|----------------|
| K.X.Abduraxmonov, | N.S.Aliqoriev, | L.M.Maksakova, |
| G.K.Abduraxmanova, | B.B.Berkinov, | X.I.Mo'minov, |
| Sh.R.Xolmo'minov, | K.Z.Xomitov, | Z.Akbarova, |
| T.Sh.Shodiev, | N.Xo'jaev, | M.A.Umarova, |
| S.S.G'ulomov kabi ⁶ olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirgan fikr-mulohazalari o'rganilgan. | | |

Ammo ushbu olimlar aynan mehnat bozorining hozirgi holatini e'tiborga olib, mintaqalar miqyosidagi holatini statistik jihatdan tahlil qilish va hududlar kesimida mehnat resurslarini rivojlanishi borasidagi muammo va uning echimlarini ekonometrik va statistik o'rganish, prognozlashni va tahlil qilishni o'z oldilariga

⁵ Архипова М. Ю. Методология статистического исследования инновационно-технологической деятельности в России: дис. докт. экон. наук М., - 2007.- 423 с.; Страйкина Н. В. Статистический анализ и прогнозирование развития рынка труда Оренбургской области Автореф. дисс... канд. экон. наук М.,-2011; Айвазян С.А., Мхитарян В.С. Прикладная статистика и основы эконометрики: Учебник. - М.: ЮНИТИ, 1998; Сарычева Т. В. Методология комплексного статистического анализа занятости в Российской Федерации по видам экономической деятельности. Автореф. дис... докт. экон. наук. М.,-2017; Долгих Е. А. Статистический анализ занятости и безработицы в Российской Федерации. Автореф. дис. канд. экон. наук. М.,—2010; Мхитарян В.С. Прикладная статистика и основы эконометрики: Учебник. - М.: ЮНИТИ, 1998; Орлова А. Л. Статистическое исследование показателей занятости и безработицы на региональном рынке труда. Автореф. дис... канд. экон. наук. Орел,-2014; Френкель А.А. , Волкова Н.Н. , Сурков А.А. Повышение точности прогнозирования интегральных показателей на основе объединения прогнозов. Финансы: теория и практика Т. 21, № 5. 2017. ., Пересецкий А. А. Моделирование динамики распределения доходов в России: // Прикладная эконометрика. — 2019. — Т. 54. — С. 105.

⁶ Q.X.Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyat). Darslik. – Т.: «Fan», 2019 yil. - 598 b.; N.S.Aliqoriev Xarakatlar strategiyasida aholi turmush darajasi sifatini oshirishning ustuvor vazifalari. XXI-asr psixologysi: istiqbol va muammolari. Toshkent 2017. 54 bet; Л.П.Максакова Проблемы обеспечения занятости трудовых ресурсов Республики Узбекистан в переходный период к рынку. Дис..док. экон. наук. – Т., 1995. – 309 с.; G.K.Abduraxmanova Inson resurslarini boshqarish. Darslik. – Т.: Fan, 2021 692 bet; B.Berkinov Institutsional iqtisodiyot. Darslik.-T:Iqtisodiyot,2021.-226 bet; X.I.Mo'minov Buxoro viloyatida mehnat bozorini shakllantirish va uning faoliyatini rivojlantirish. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Т., 2008. – 148 b.; RA.Ubaydullaeva ., Atamirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. Ilmiy o'quv qo'llanma. – Т.: Universitet, 2006. – 90 b.; Ш.Р.Холмуминов Совершенствование планирования трудовых ресурсов АПК региона. Т.: Мехнат, 1989. – 157 с.; K.Z.Xomitov O'zbekiston Respublikasi qishloq mehnat bozorining samarali rivojlanishi muammolari. Iqtisod fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Т., - 2012 yil; Z.Akbarova, M.A.Umarova., N.A.Shokirova Mehnat statistikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent:-Iqtisodiyot,-2020, 100-185 bet; X.Nabiev, N.M.Soatov, A.H.Ayubjonov. Aholi statistikasi. darslik.-T.:TDIU,2019.-568 bet; Sh.Yu.Makhkamova Bozor islohotlari chuqurlashayotgan sharoitda aholi bandligini tartibga solish. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiya. Т., 2008. – 150 b.; T.Sh.Shadiev «Экономические модели развития сельского хозяйства». – Т.: Fan, 1986. –168 b; N.Xujaev., N.Sattarov “Занятость, моделирование и рынок труда”– Т.:Mehnat, 1993-192s.; M.A.Umarova, O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorini statistik baholashning uslubiy jixatlari. Iqtisod fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi Т.,-2021 yil; S.S.G'ulomov “Совершенствование планирования трудовых ресурсов АПК региона” Т.: Mehnat, 1989. – 157b.

maqsad qilib qo‘ymaganlar. Hali bu borada oxirigacha aniqlanmagan ham nazariy, ham amaliy muammolar kam emas. Shuning uchun mintaqqa mehnat bozorini statistik tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № OT-F1-154 «Milliy iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishining yalpi ichki mahsulot o‘sishiga ta’sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqqa mehnat bozorini statistik tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklar bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mintaqa mehnat bozori rivojlanishini o‘rganishning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va mehnat bozorining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini statistik baholash;

mintaqa mehnat bozorida aholi bandligi darajasi va mintaqadagi xotin-qizlarning IT sohalarida bandligini oshirish maqsadida “axborot texnologiyalari” markazlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Toshkent viloyatida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tendensiylarini, mehnat resurslarining sifat va miqdor o‘zgarishlarini statistik o‘rganish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Toshkent viloyatida ish bilan band aholi tarkibi va dinamikasini statistik o‘rganish natijasida mehnat resurslarini “yashil” iqtisodiyotga o‘tishdagি moslashuvchanligini statistik baholash;

mintaqa mehnat bozori rivojlanishini ekonometrik tahlil qilish hamda mehnat resurslarining istiqboldagi o‘zgarish dinamikasi prognozi bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib Toshkent viloyati mehnat bozorining rivojlanish jarayonlarini statistik tahlil qilish va baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti mehnat bozorini statistik tadqiq qilish jarayonida yuzaga chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida statistik kuzatish, statistik guruhlash, variatsion va korrelyatsion-regression tahlil, statistik modellashtirish, ekonometrik prognozlash kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo‘sishimcha bandlik bo‘yicha ishslash imkonи mavjud bo‘lgan ayollarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish (birinchi bosqich) orqali masofadan bajariladigan ish turlarini aniqlash (ikkinchi bosqich) hamda davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan tegishli bilim va ko‘nikmalarga o‘qitish va kasbga tayyorlash hisobiga bandligini oshirish taklifi asoslangan;

“yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida mintaqqa mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan yangi kasblarning “yashil” iqtisodiyotga mosligi darajasini aniqlash hamda moslashuvchanligini statistik baholash taklifi asoslangan;

mintaqa mehnat bozorida ishsizlikni kamaytirish hamda aholi turmush darajasini oshirish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar ish bilan bandlikning yangi shakllari bo‘yicha yaratiluvchi ehtimoliy va nobarqaror daromad omillarini kiritish asosida takomillashtirilgan;

Toshkent viloyati iqtisodiyotida bandlar soni va ishsizlik darjasini o‘zgarishining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ko‘p omilli regressiya tenglamasi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

axborot texnologiyalari markazlarining mehnat bozori va undagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri aniqlangan;

mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishi natijasida mintaqqa mehnat bozorida sodir bo‘ladigan jarayonlar hamda mehnat resurslari dinamikasi statistik baholangan;

mintaqa mehnat bozori samaradorligiga ta’sir etuvchi ishsizlar hamda iqtisodiyotda bandlar soni statistik baholangan;

Toshkent viloyatida mehnat bozori rivojlanishini statistik o‘rganish va uning asosida istiqboldagi ko‘rsatkichlarini takomillashtirish bo‘yicha hulosalarga asosan o‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqini 1,0 foizga oshirilsa, Toshkent viloyatidagi ishsizlik darajasi mos ravishda 0,1 foizga, viloyatdagi korxonalar sonini 0,02 foizga, aholi jon boshiga daromadlarni 0,01 foizga qo‘srimcha qisqartirish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida qo‘llanilgan ma’lumotlar, aholi soni, mehnatga layoqatli aholi sonining oshib borishini aniqlash va prognozlash usullari, qo‘srimcha ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi bandligini ta’minlash hamda aholi bandligini oshirishning o‘ziga xos yangi shakllarini izlab topish, mehnat bozoridagi bandlik muammolarini echish, hal etish va butunlay bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan amaliy hamda nazariy tavsiyalarning amaliyatga joriy etilganligi va izlanishlar natijasida olingan ma’lumotlarni vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan begilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati mehnat bozori va respublikada taklif qilinayotgan mehnat qiymati va ish haqi darajasi, mehnat resurslariga bo‘lgan talab va taklifning ta’sirini optimallashtirish, ular o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, kerakli mutanosiblik va muvozanatni saqlash, tabiiy mexanizmlarga ko‘ra mehnat resurslari narx-navosi bozor kon'yunkturasiga tez va holislik bilan javob berishi, uning haqiqiy ehtiyojiga muvofiq, ko‘payishi yoki kamayishi tendensiyalarini prognozlashni har taraflama chuqurroq, aniqroq amalga oshirishni ta’minlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaqaga mehnat bozorida mavjud muammo va ularning echimlari, mehnat resurslarini hududlar bo‘yicha samarali taqsimlanishi va ularning ijtimoiy-siyosiy manfaatlari vakolatli davlat organlari tomonidan muhofaza etilishi natijasida aholi daromadlarini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlarni takomillashtirish, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar uchun “Mehnat statistikasi”,

“Mintaqaviy statistika”, “Inson resurslarini boshqarish” va “Amaliy statistika” kabi fanlardan talabalar bilimini oshirishda va o‘quv adabiyotlari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqa mehnat bozorining statistik tadqiqotini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

qo‘sishimcha bandlik bo‘yicha ishlash imkonи mavjud bo‘lgan ayollarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatish (birinchi bosqich) orqali masofadan bajariladigan ish turlarini aniqlash (ikkinchi bosqich) hamda davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan tegishli bilim va ko‘nikmalarga o‘qitish va kasbga tayyorlash hisobiga bandligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Toshkent viloyat boshqarmasi tomonidan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalilanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 4-apreldagi 01/100-04/12-2127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Toshkent viloyatidagi uy sharoitida bola parvarishi bilan uziviy bog‘langan holda axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan ayollarga masofaviy ish jarayonlarini tashkil etish, bo‘sh turgan bino-inshootlarni nol balans bilan axborot texnologiyalari markazlariga ijaraga berish va tuman markazlaridan uzoqda joylashgan qishloqlarda xam markaz filiallarni ochish orqali qishloq aholisining bandlik darajasini ko‘tarishga imkon yaratgan;

“yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida mintaqa mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan yangi kasblarning “yashil” iqtisodiyotga mosligi darajasini aniqlash hamda moslashuvchanligini statistik baholash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Toshkent viloyat boshqarmasi tomonidan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalilanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 4-apreldagi 01/100-04/12-2127-sonli ma’lumotnomasi).

Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi tabiiy resurslardan samarali foydalanishi bo‘yicha har bir mahalla kesimida seminar-treninglar o‘tkazish orqali ekotexnologiyalar sohasidagi bilimlarini oshirish, aholiga quyosh panellari va shamol ventelyatorlari o‘rnatish uchun imtiyozli kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda ularning bu jarayondan foydalanishni qonuniylashtirish imkonini bergen;

mintaqa mehnat bozorida ishsizlikni kamaytirish hamda aholi turmush darajasini oshirish jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik modellar ish bilan bandlikning yangi shakllari bo‘yicha yaratiluvchi ehtimoliy va nobarqaror daromad omillarini kiritish asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Toshkent viloyat boshqarmasi tomonidan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 4-apreldagi 01/100-04/12-2127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Toshkent viloyati yangidan tashkil etilgan korxonalar soni va hodimlarga hisoblangan nominal daromadlarning oshirilishi iqtisodiyotda bandlar sonining ortishiga va ishsizlikning kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan;

Toshkent viloyati iqtisodiyotida bandlar soni va ishsizlik darjasini o‘zgarishining 2027-yilga qadar ko‘p omilli regressiya tenglamasi asosida ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Toshkent viloyat boshqarmasi tomonidan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 4-apreldagi 01/100-04/12-2127-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi Toshkent viloyati mehnat bozorini rivojlantirish va bozor muvozanatini saqlashda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli rejalarining sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi va natijalari bo‘yicha jami 18 ta jumladan, 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarini asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan, ma’ruza tezislari 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarini to‘plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiyligi xajmi 158 betdan iborat.

I BOB. MINTAQА MEHNAT BOZORINI STATISTIK TADQIQ QILISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

§1.1. Mehnat bozori rivojlanishini o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslari

Bugungi kunda Respublikamizda, mehnat bozorini rivojlantirish va uni tartibga solish, zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda yuqori malakaga ega bo‘lgan kadrlarni etishtirish va har tomonlama raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning bugungi jahon talablariga mos eng samarali tizimini ishlab chiqishni talab etmoqda. Qolaversa yosh mutaxassislarni ishlab chiqarishdagi o‘rnini belgilash va ularning xorijiy mamlakatlar mutaxassislari bilan raqobatbardoshligini oshirish bugunning eng muhim masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Yuqoridagi masalalardan kelib chiqqan holda, yangi ish o‘rinlarini barpo etish va yoshlarni tadbirkorlikka yo‘naltirishni qo‘llab-quvvatlash natijasida aholi, ayniqsa ijtimoiy muxofazaga muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlari farovonligiga erishish borasida izchil tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonining 1-ilovasi “Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 barobarga qisqartirish” nomli 85-maqsadida quydagilar haqida so‘z boradi:

- kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- respublikamizda norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish;
- ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘limgan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish.

- hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.
- ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha ehtiyojmand aholining kamida 85 foizini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish.
- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va aholi qatlamlariga, shuningdek, vaqtinchalik og‘ir sharoitga tushib qolgan fuqarolarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat ijtimoiy yordamini ko‘rsatish⁷ kabi aniq chora-tadbirlar belilab berilgan.

Yuqoridagi farmonning ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda qator ko‘p tarmoqli va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan bugungi kunda mamlakatimizning ko‘plab xududlarida bo‘lgani singari Toshkent viloyatida xam salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida Toshkent viloyati hududlarida turizm va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi, viloyatning ko‘plab xududlarida dehqon xo‘jaliklari klasterlarini barpo etilishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xotin-qizlarga va yoshlarga berilayotgan turli-xil soliq imtiyozlari va qator hisobotlarning kamaytirilishi Toshkent viloyati aholisining turmush tarzi va farovonligiga o‘zining ijobiy hissasini qo‘shamoqda. Qolaversa viloyat hududiy birliklari va ularda istiqomat qiluvchi aholining imkoniyatlaridan kelib chiqgan xolda ishsiz yoshlarning bandligini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligi, oila tadbirkorligi, kasanachilik, asalarichilik, parrandachilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Darhaqiqat aholini ish bilan ta’minlash va ularni samarali mehnat faoliyati bilan bandligini tashkil etish, kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy ximoyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar mehnat bozori va undagi ko‘plab muammolarni bartaraf etishni taqazo etmoqda.

Hozirgi davrga qadar ko‘plab iqtisodchi olimlar mehnat bozori va undagi o‘zgarishlarni o‘rganish borasida qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bugungi kunda mamlakat mehnat bozori bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat sohasining tarkibiy qismidir. Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida mehnat bozorining o‘nlab ta’riflari keltiriligan bo‘lib, yangi ilmiy maktabni yaratuvchilar D.Gidler, A.Laffer, M.Fedstayn, R.Holler⁸ va boshqalar mehnat bozorini ichki bir xil bo‘lmagan va

⁷ O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoniga 1-ilova. LexUZ on-line.

⁸ Павленков В.А. Рынок труда. Занятост. Безработница: Учбник. М.:МГУ,2019. 36 с.

g‘oyat tez o‘suvchi hamda bozor qonunlariga bo‘ysunuvchi tizim sifatida qaraydilar. Shu sababli, mehnat qiymati va ish haqi darajasi mehnat resurslariga talab va taklifiga tasir qiladi, ular o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi hamda kerakli mutaanosiblik va muvozanatni saqlaydi, tabiiy mexanizmlarga ko‘ra mehnat resurslari narx-navosi bozor kon'yunkturasiga juda tez javob beradi, uning haqiqiy ehtiyojiga muvofik, ko‘payadi, yoki kamayadi. Rivojlangan mehnat bozori sharoitlarida ishsizlik mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo‘lmagan qismi iqtisodiy jarayonlarda ma’lum bir vazifasini bajaruvchi tabiiy xodisa deb hisoblaydilar.

Keynsianchilik mактабining asoschisi J.Keyns o‘z konsepsiyasini «Bandlik, foiz va pullarning umumiylazariyasi»⁹ nomli kitobida shunday bayon qilgan. U mehnat bozorini sustkash, statistik tizim sifatida ko‘rib chiqadi, mehnat resurslari qiymatini etarli darajada qat’iy deb qayd etadi. Majburiy ishsizlikning mavjudligi majmuaviy samarali talabni etishmasligi bilan asoslangan, uni byudjet va kredit, pulni tartibga solishning samarali choralar yo‘q, qilishi mumkin. Shu munosabat bilan talabning etishmasligi mehnatga haq to‘lashning pasayishi tomoniga egiluvchan emasligi oqibatida vujudga keladi, buning natijasida talab pasayganda ishlab chiqarish hajmi va ish bilan bandlik qisqaradi. Davlat bozorni tartibga solib boruvchi vazifasini o‘taydi. U majmuaviy talabni oshirib yoki pasaytirib, ushbu tengsizlikni yo‘q qilishi mumkin. Mehnat resurslariga jami talab-investitsiya va ishlab chiqarish hajmlari bilan tartibga solinadi.


Professor A.A.Pavlenko, «bozor iqtisodiyotida mehnat bozori yollanib ishslashga qodir kishilarning barchasini: ham yollanma mehnat bilan band bo‘lganlar ham band bo‘lmaganlarni kamrab oladi»¹⁰ deb hisoblaydi. A.A.Nikifirova esa boshqacha umumiylazariyasi ta’rifni taklif etadi. «Mehnat bozori rivojlanishining darajasi va bozorda ishtirok etuvchi kuchlar tadbirkorlar, mehnatkashlar va davlat o‘rtasida ma’lum davrda erishilgan manfaatlar balansini aks ettiruvchi ijtimoiy munosabatlar tizimida vujudga kelgan»¹¹ deb ta’kidlaydi. Mehnat bozori borasida olib borilgan tadbirkorlarni tahlil qilish natijasida shu

⁹ Shodmonov Sh., G‘afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, »Mehnat», 2018 123 b.

¹⁰ Pavlenkov V.A. Рынок труда. Москва Общество «Анкел» 2018. - 112c

¹¹ Nikifirova A.A. Рынок труда: занятое и безработица. Москва «Международная общность» 2017. - 184c

ma'lum bo'ladiki, keyingi yillarda mehnat bozori va uning tuzulmalari haqida aniqroq, yanada to'laroq tushunchalar paydo bo'ldi. Ba'zi bir tadqiqotchilar mehnat bozorini ish haqi va daromadlarning erkin harakati orqali mehnatga talabni va mehnat resurslari taklifini o'zini-o'zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar.



1.1-rasm. Mehnat bozorining tarkibiy qismlari¹².

Mehnat bozori va uning tarkibiy qismlari asosan 4 ta qismdan iborat bo'lib hisoblanadi. birinchidan: bozor sub'ektlari bu bevosita bozorda ma'lum darajada ishtirok etuvchilardir. Bozor sub'ktlarini esa xodimlar va ular tomonidan tayyorlangan vakillar, ish beruvchilar va ularning vakillari hamda davlat va davlat tashkilotlari bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan esa bozorining huquqiy asoslari bu bozor munosabatlarini tartibga solishdagi asosiy meyyori-xuquqiy xujjatlar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi hamda mehnat kodeksi va boshqa normativ qonunlar hisoblanadi. Uchinchidan esa mehnat bozori kon'yunkturasi asosiy o'rin egallab, ishchi kuchiga talab va ishchi kuchining taklifi uning asosiy ko'rstanichlari hisoblanidi. To'rtinchidan bozor infratuzuimasi. Bandlikka ko'maklashish, ishga marxamat mono markazlari hamda xususiy ish bilan bandlik xizmatlari va moliya, sug'urta, statistika tashkilotlari bozor infratuzilmasining asosiy qismlari hisoblanadi. Mehnat bozorining mana shu tarkibiy qismlari orqali

¹² Q.X.Abduraxmonov. "Mehnat iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti" darslik.UzR FA "FAN"nashriyoti, 2019.84b.

bozor munosabatlari tartibga solinadi va mavjud muammo hamda kachiliklarni bartaraf etishda ular tomonidan olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar etakchi o‘rin egallaydi (1.1-rasm).

Shu sababli, bugungi kunda mehnat bozorida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tendensiyalarini aniqlash, undagi mehnat resurslariga talab va taklifning hududlar bo‘yicha parametrlarini tizimli istiqbollashtirish va monitoring qilish, mehnat bozori mexnizmlarini yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb va echimini kutayotgan aniq masalalaridan biridir. Respublikamiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi bevosita mehnat bozorining samarali faoliyatiga, uning tarkibiy-miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etmoqda. Mamlakatimiz aholisining dinamikasi, shuningdek, uning tarkibida mehnat resurslari hamda iqtisodiyot tamoqlarida band bo‘lganlar soni kabi ko‘rsatkichlarning so‘nggi yillardagi dinamikasi va jami aholi sonidagi ulushi, uning yillar davomidagi o‘sish ko‘rsatkichlari haqidagi ma’lumotlar 1.1-jadvalda berilgan.

1.1-jadval


O‘zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari sonining o‘zgarish dinamikasi

| Yil | Doimiy aholisining o‘rtacha yillik soni (ming kishi) | Mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni (ming kishi) | Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni (ming kishi) | Mehnat resurslarining doimiy aholi sonidagi ulushi, % | Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning doimiy aholi sonidagi ulushi, % |
|--------------|--|---|--|---|--|
| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 2010 | 28001,4 | 16726,0 | 11628,4 | 59,7 | 41,5 |
| 2011 | 29123,4 | 17286,4 | 11919,1 | 59,4 | 40,9 |
| 2012 | 29555,4 | 17564,3 | 12223,8 | 59,4 | 41,4 |
| 2013 | 29993,5 | 17814,1 | 12523,3 | 59,4 | 41,8 |
| 2014 | 30492,8 | 18048,0 | 12818,4 | 59,2 | 42,0 |
| 2015 | 31022,5 | 18276,1 | 13058,3 | 58,9 | 42,1 |
| 2016 | 31575,3 | 18488,9 | 13298,4 | 58,6 | 42,1 |
| 2017 | 32120,5 | 18666,3 | 13520,3 | 58,1 | 42,1 |
| 2018 | 32656,7 | 18829,6 | 13273,1 | 57,7 | 40,6 |
| 2019 | 33255,5 | 18949,0 | 13541,1 | 57,0 | 40,7 |
| 2020 | 33905,2 | 19158,2 | 13236,4 | 56,5 | 39,0 |
| 2021 | 34558,9 | 19334,9 | 13538,9 | 55,9 | 39,2 |
| 2022* | 36024,9 | 20462,1 | 13737,4 | 56,7 | 38,1 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

1.1-jadvalda keltirilgan 2010-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlar o‘rtacha yillik uchun berilgan bo‘lib, 2022-yil uchun berilgan ma’lumotlar

dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi. 2022-yil dastlabki ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, aholi sonining o'sishi 2010-yil boshiga nisbatan 28,7 % ga ko'paygani holda, shu davr mobaynida iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlar soni 18,1 % ga ortgan. O'rganilayotgan davrlarda mehnat resurslari miqdorining o'sishi 2022-yilga kelib, 2010-yilga nisbatan 22,3% iqtisodiyotda ish bilan bandlik darajasining o'sishidan 4,2 % ga ko'proq bo'lган. Yuqoridagi 1.1-jadval asosida shuni aytish mumkinki mehnat resurslari soni 2022-yil 2010-yilga nisbatan 3736,1 (ming kishi) yani 22,3%; mehnat resurslari jami aholi soniga nisbatan 2022-yil 106,8 (ming kishi) ya'ni 6,8%; iqtisodiyotda bandlar soni esa 16,4%; o'sgan va jami aholi soniga nisbatan 2022-yilda 14,3% oshganligini ko'rishimiz mumkin.



1.2-rasm O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2023 yil, 1- yanvap holatiga, ming kishi)¹³

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2022-yilda mehnat resurslari soni 20462,1 ming kishini tashkil etib, ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagicha fikrlarni ta'kidlashimiz mumkin bo'ladiki, 2020-yilga nisbatan 176,7 ming kishiga, yoki 0,9 % ga o'sishi kuzatildi. Bugungi kunda mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

aholi soni 14980,7 ming kishini (jami mehnat resurslarining 77,5 %), iqtisodiy nofaol aholi soni esa 4364,2 ming kishini (22,5%) tashkil etdi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, respublikada ish bilan band aholi soni 13737,4 ming kishini tashkil etib, 2010 yilning mos davriga nisbatan 16,4 % ga o'sdi.

Quyidagi 1.2-rasm ma'lumotlari asosida 2022-yil yanvar-dekabr holatiga O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari sonining hududlar bo'yicha qanchani tashkil etganligi to'g'risida tanishib chiqamiz. Yuqoridagi ma'lumotlarini tahlil qilishda statistikada keng qo'llaniladigan statistik jamlash va svadkalash usulini qo'llagan holda meg'nat resurslari soni bo'yicha eng yuqori va eng kichik ko'rsatkichlarini tanlab olib, teng intervalga ega bo'lgan nisbatan past ko'rsatkichli, past ko'rsatkichli hamda yuqori ko'rsatkichli 3-guruxga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Guruhlash natijasida quyidagi ma'lumotlar olindi.

| Mehnat resurslari soni bo'yicha guruhanishi | Interval o'rtacha qiymat bo'yicha guruhanishi (ming kishi) | Viloyatlar nomi |
|---|--|---|
| <i>Nisbatan past ko'rsatkichli</i> | 487,2 - 1044,9 | Sirdaryo v, Navoiy v, Jizzax v. |
| <i>Past ko'rsatkichli</i> | 1044,9 - 1602,7 | Xorazm v, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro v, Surxondaryo v, Namangan v. |
| <i>Yuqori ko'rsatkichli</i> | 1602,7 - 2160,4 | Toshkent v, Samarcand v, Farg'ona v, Toshkent shahri, Andijon v, Qashqadaryo v. |

Demak 1.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinish turibtiki Toshkent viloyati mehnat resurslari soni 1616,4 ming kishini tashkil etgani xolda respublika bo'yicha 6-o'rinni egallab, jamiga nisbatan 8,3 % ni tashkil etmoqda. Ma'lumotlarni taxlil qilish natijasida respublikamiz doimiy aholi soni xamda mehnat resurslari soni muqobil darajada o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Mehnat bozori, bozorning boshqa barcha tizimlari bilan uzviy bog'langan. Haqiqatdan ham mehnat resurslarining ish bilan band bo'lishi uchun u jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo'lishi lozim. U o'z iste'mol sifatlarini yo'qotmasligi uchun ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta bilishi hamda qayta ishlab chiqarishga poydevor bo'lishi lozim. Bundan tashqari, mehnat resurslari va butun aholining sifat ko'rsatkichlari

ham yaxshilanishini rag‘batlantirib borib, kelajakda qayta ishlab chiqarishga asos solishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, mehnat bozoridagi raqobat xodimning mehnat qobiliyatini takomillashtiruvchi asosiy kuch sifatida aks etadi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida shu ma’lum bo‘ladiki, mehnat resurslari o‘zining ish kuchini doimiy ravishda takror ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarni his qila bilishi hamda, har doim yangi, eng yuqori sifat darajasida, ish qobiliyatlardan eng foydali sharoitlarda foydalana olishi va ana shu qobiliyatlarni rivojlantiridigan ish beruvchilarni izlashi va aksincha ish beruvchilar xam o‘zining ishchi kuchlarida ana shunday qobiliyatlar mujassam bo‘lishini talab etadi.

Bundan tashqari, mehnat resurslariga talabni shakllantiruvchi tizimda doimiy ravishda o‘zgarishlar sodir bo‘lishi, ya’ni xaridorlar-mulkdorlar o‘rtasida raqobat paydo bo‘lishi kerak. Faqat shunday sharoitlarda bir tomondan xodimning iqtisodiy faolligiga va boshqa tomondan ishlab chiqarish vositalari egasining bozordagi iqtisodiy faolligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga umid bog‘lash mumkin.

Shu sababli, mehnat bozorining yana bir boshqa nazariy qoidasi – o‘z-o‘zini hududiy ifodalash haqidagi tassavuri: hodim hatto yollanganda xam, o‘zini “mehnatga qobiliyatları”ni qayta ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarini doimiy ravishda qondirib borishi va bunga bo‘lgan intilishlari, mehnat resurslarini bozor bilan bo‘lgan aloqasini uzmaydi.

Hozirgi vaqtda mehnat bozori tushunchasi bo‘yicha aniq bir qarash mavjud emas. Nazariy qarama-qarshiliklar markazida ikkita muammo mavjud: 1) mehnat bozorini chegarasini aniqlab olish; 2) bozordagi oldi-sotdi predmeti nimadan iborat: mehnat yoki mehnat resurslari.

Birinchi muammoni ko‘rib chiqish uchun hozircha “mehnat” va “mehnat resurslari” atamalarini har jihatdan teng deb qaraymiz. Mehnat bozorini va uning chegarasi haqida ikki guruh olimlari orasida doimiy ravishda bahs-munozaralar bo‘lib kelgan.

Shu sababli, birinchi guruh olimlari (Yu.Odegov, L.A.Kostin, A. Rofe va boshqalar) mehnat bozorida faqatgina mehnat resurslarini oldi-sotdisi amalga oshiriladi degan fikrni ilgari surishgan. Bunda iqtisodchi olimlar mehnat bozori

ish beruvchi va yollanma ishchi o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabatlaridan iborat va ish boshlangan jarayon (mehnatdan foydalanish)dan boshlab bozor tugaydi deb hisoblaydilar.

Shu sababli, mehnat bozorini o‘rganishdagi ikkinchi muammo, oldi-sotdi predmetini aniqlashtirib olish: mehnat qilish qobiliyatimi yoki mehnat? Demak, zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida ta’kidlanishicha, mehnat bozorida aynan mehnatni o‘zi sotiladi va sotib olinadi, ish haqi esa – mehnatga to‘langan haq. (1.3-jadval) Shuning uchun mehnat bozorida mehnatni o‘zi emas balki, mehnat resurslarining mehnat qilish qobiliyati sotiladi. Haqiqatdan ham, ish beruvchi va yollanuvchi mehnat bozorida uchrashishganda mehnatni o‘zini sotolmaydi va sotib ololmaydi. Mehnat- bu ishlab chiqarish yoki xizmat sohasidagi ishchining maqsadli faoliyatidir.

Shu sababli, mehnat bozori - bu mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan qismlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini xisobga oluvchi kontraktlar (mehnat kelishuvlari) asosida «mehnatta qobiliyatlarini» xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi hamda mehnat resurslariga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi bozor iqtisodiyotining murakkab, ko‘p jihatli, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimidir.

| Aholi toifalari, shu jumladan: | | | | | | | | |
|-----------------------------------|-----------------------|---------------------------------------|------------------------|--------------------------------------|--|-------------------------------------|---|--|
| Ish bilan bandlar | | | Ishsizlar | Mehnat zaxiralari | | | | |
| O‘z-zini ish bilan band qilganlar | Yollanib ishlovchilar | Vaqtincha ish bilan band bo‘lmaganlar | Faol ish qidiruvchilar | O‘quvchi va ishlama-yotgan talabalar | Qarilik va imtiyozli nafaqa oluvchilar | Ish qidirib umidsizlikka tushganlar | Uy xo‘jaligi, bola yoki qariya parvarishi bilan bandlar | Hozirgi vaqtda davolanayotgan bemorlar |

1.3-rasm. Mehnat bozorining tuzulmasi¹⁴.

1.3-rasm ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda ish bilan bandlar toifasiga: O‘zini-o‘zi ish bilan band qilganlar, yollanib ishlovchilar, vaqtincha ish bilan band bo‘lmaganlar kiritiladi. Ishsizlarga esa faol

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzulgan.

ish qidiruvchilarni kiritamiz. Mehnat rezervlari esa, o‘quvchi va ishlamayotgan talabalar, qarilik va imtiyozli nafaqa oluvchilar, bola yoki qariya parvarishi bilan bandlar qolaversa hozirgi vaqtida davolanayotgan bemorlarni misol qilishimiz mumkin bo‘ladi.

Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, mehnat bozori turli elementlardan tuzilgan. Ulardan eng asosiyлари: talab, taklif, raqobat, ish haqi, bandlik, ishsizlik, iqtisodiy faol va nofaol aholidan iborat. Shu sababli, metodologik nuqtai nazardan yuqorida eng asosiy tushunchalarni aniqlab olish lozim, ayniqsa, bularni sharhlash va hisoblash mehnat bozorida turli tushunmovchilik va noaniqliklarga olib keladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan, mehnat resurslariga talab va uni taklifini eng oddiy aniqlash usuli “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik” vazirligining hisobotlarida uchrab turadi ya’ni, bo‘sh ish o‘rnlari - bu mehnat resurslariga talab, rasmiy ishsizlik maqomini olganlar - mehnat resurslarining taklifi. Ba’zi manbalarda yozilishicha, mehnat resurslariga talabni bo‘sh ish o‘rnlari, korxona va tashkilotlarda yangi kiritilayotgan ish o‘rnlari va o‘zi ish joyidan qoniqmasdan yangi ish izlayotgan ishchilar egallab turgan ish o‘rnlari tashkil etadi. Shu sababli, prof. L.A. Kostinning fikricha, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan, mehnat resurslarining taklifi mehnatga layoqatli aholi (MLA) sonidan iqtisodiy faol aholi (IFA) soni ayirmasi orqali aniqlanadi, deb ta’kidlaydi: **Taklif = MLA – IFA [1.1]**

Iqtisodiy faol aholiga o‘zini-o‘zi ish bilan ta’minlaganlar ham kiradi va ularni bandligi mehnat bozoridan tashqarida amalga oshiriladi. Shuning uchun ular mehnat resurslarining taklifi hisoblanmaydi va ish beruvchilar ularga murojat qilishmaydi. Natijada, mehnat resurslarining taklifiga faqatgina yollanib ishslashni xohlovchilar qoladi. Tadqiqot natijasida, mehnat resurslari taklifini yana ikkiga ajratib ko‘rsatish mumkin: aktiv va passiv. Birinchi qismiga – bandlar, ishdan bo‘shaganlar, faol ish izlayotgan ishsizlar va oliy o‘quv yurtlarini bitirgan bitiruvchilarni kiritsak, ish izlashdan umidsiz bo‘lganlar, uzoq vaqt ishsiz yurganlar – mehnat resurslari taklifining passiv qismiga kiritish mumkin. Bunda mehnat resurslariga bo‘lgan talabni 3 qismga ajratish mumkin:

- qondirilgan talab – aniq bir muddatga ishga yollangan ishchilar soni;
- qondirilmagan talab – bo‘sh ish o‘rinlari;
- uzoq yoki yaqin kelajakda yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari.

Natijada, yuqoridagi fikrlarda ko‘rinib turganidek, talab va taklif atamasiga qayta ta’rif berish g‘oyat muhimdir. Qisman to‘g‘ri bo‘lgan bu fikrlarda aniqlik etishmaydi, ya’ni, qaysi xollarda talab, qaysi xollarda taklif nazarda tutilgan: ular qondirilganmi yoki qondirilmagan.

Shunday qilib, mehnat resurslariga talab va uning taklifiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Mehnat resurslarining taklifi – ish bilan bandlar va ish izlayotganlarni yig‘indisiga teng, ya’ni, iqtisodiy faol aholi soni. Kerak bo‘lsa, ushbu ta’rifni yanada kengroq olib, “mehnat resurslari” va “mehnatga layoqatli aholi” deb ham o‘zgartirish mumkin. Mehnat resurslariga talab esa, bo‘sh ish o‘rinlarini yig‘indisiga teng.

Joylashishi va ma’muriy-hududi bo‘yicha mehnat bozorini quyidagicha ajratish mumkin: milliy, shaxar va qishloq mehnat bozorlari.

Respublikamiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini oshirish bo‘yicha muammoni hal qilishning eng samarali qurollaridan biri bo‘lgan qishloq mehnat bozori tushunchasi, tarkibi, xususiyatlari va vazifalarini tadqiqot qilish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularni o‘rganish quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarining inobatga olinishini taqazo etadi:

- respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 50% iga yaqini qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 40% dan ko‘prog‘ini ishlab chiqaradi¹⁵;
- respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilayotgan yangi ish o‘rinlarining etishmasligi sababli ish bilan band bo‘lmagan qishloq mehnat resurslarining ulushi respublikaning ish bilan band bo‘lmagan butun aholisining 60% dan ortig‘ini tashkil qiladi¹⁶;

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

- mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo‘lmagan qishloq mehnatkashlarining malakasi va safarbarligini pastligi ularning yashash joylaridan shaharga va mamlakatning kam mehnat bilan ta’minlangan hududlariga hamda xorijiy davlatlar ob’ektlariga qarab xarakat qilishlariga asosiy to‘sinq bo‘lmoqda;

- Toshkent viloyati mehnat resurslarining mehnatni tadbiq etishi, mintaqalarda nisbatan tezroq o’sishni, yashirin ishsizlikni, ayniqsa qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarini taklif etishda unga talabdan oshib ketadigan darajada ko‘payishiga bevosita yordam beradi;

- qishloq joylarida qayta ishslash sanoati, qurilish va xizmat ko‘rsatish korxonalari hamda xususiy xo‘jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo‘li bilan mehnat resurslari talabi va taklifi o‘rtasidagi rasional nisbatni ta’minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.

Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitlarida mehnat bozorini, mehnat resurslarini mehnatga qobiliyatini xarid qilish yoki sotishni amalga oshiruvchi tizim sifatida ko‘rib chiqish o‘rinli emas.

Shuning uchun u ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy mehnat sohasining ochiq, murakkab, ko‘p qirrali va o‘sib boruvchi tizimi bo‘lib, mehnat resurslariga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantiradi. Mazkur bozor mehnat resurslari talab va aholining taklifini tartibga solishda bevosita ishtirok etadi va oqilona bandligini shakllanishi hamda ishsizlikni kamaytirishga ko‘maklashadi¹⁷. Shunday qilib, respublika mehnat bozorida mehnat resurslari taklifining o‘sishi ko‘p jihatdan aholining iqtisodiy faol qismining holati bilan belgilanadi. U esa mazkur bozordagi raqobatga ham ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi. Mehnat bozoridagi mehnat resurslariga talab va taklif uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Chunki, mehnat bozori- mehnat resurslarining taklifi, unga bo‘lgan talab va mehnat resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

¹⁷ Eshmuxamedov A. va boshqalar. Bozor munosabatlari sharoitida Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. T.: O‘qituvchi, 2016 yil. 135-bet.


Mehnat resurslari taklifi – mehnatga qobiliyatli aholining o‘z kasbiy tayyorgarligi, mahorati va boshqa xususiyatlariiga mos ravishda ishlashga tayyor ekanligi, ya’ni faol ish qidirish jarayonidir. Bu aholining demografik va kasb tayyorgarligi hususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mehnat resurslariga talab – iqtisodiyot sohalari va korxonalar uchun zarur bo‘lgan mehnat resurslari miqdoridir. Mehnat bozorining ana shu tarkibiy qismlari unga ta’sir etuvchi omillar o‘zgartirib turadi va shunga mos holda ish kuchiga bo‘lgan talab va taklif hajmi aniqlanadi.¹⁸ Bunda esa qo‘srimcha manbalar mehnat nafaqasi oluvchilar, talabalar, o‘quvchilar hisoblanadi. Ishga joylashtiruvchi idora va tashkilotlarning faoliyatları kuchaytiriladi va takomillashtiriladi, boshqa hududlardan qo‘srimcha ish kuchining kelishi rag‘batlantiriladi, shuningdek ishsizlar shaxsiy hisobga olinadi.

Shunday qilib, agar mehnat bozorida mehnat resurslariga bo‘lgan talab taklifdan kam bo‘lsa, mehnat bozorida qo‘srimcha ish joy(o‘rin)larini yaratish, ish smenasini ko‘paytirish, ish bilan bandlikning noan’anaviy yo‘llaridan foydalanish, shuningdek, boshqa hududlarga ishsizlarning ortiqcha harakatini rag‘batlantirish mexanizm va vositalaridan foydalaniladi. Shunday qilib, agar mehnat bozorida mehnat resurslariga bo‘lgan talab taklif bilan teng bo‘lsa, ya’ni ular orasida muvozanat o‘rnatilsa, ishlab chiqarish vositalarini rekonstruksiya (qayta jihozlash) va modernizasiya (yangilash) qilish, ish vaqtidagi yo‘qotishlarni pasaytirish, ishchilarni muntazam ravishda malakalarini oshirib borish, mehnat faoliyatini rag‘batlantirish va ish haqini samarali tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu holat ish bilan bandlikning samaradorligini oshirish bilan makroiqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtiradi. Yuqoridagi mehnat bozori faoliyatidagi uch xil yo‘nalish unga ta’sir etuvchi omillar ta’siri bilan vujudga keladi. Unga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatib, uning shakllanishi, rivojlanishi, taqsimlanishi, boshqarilishi va tartibga solinishini turli xil darajalarda o‘zgartirib yuboradi. Shunday qilib, mehnat bozorining kon'yunkturasini miqdor va sifat nuqtai nazardan tadqiq qilish

¹⁸ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyot). Darslik. – T.: «Fan», 2019 yil. - 598 b

maqsadga muvofiqdir. Respublikamiz mehnat bozorida mehnat resurslariga talabning miqdori uning taklifiga nisbatan 1,6 marta kam.



1.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyati mehnat bozori kon'yunkturasi (ming kishi)¹⁹

1.4-rasm ma’lumotlarini tahlil qilish natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozoriga talab 2010-yilda 463,1 ming kishini, taklif esa 658,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkichlar talab 62,5% ga oshib 741,4 ming kishini tashkil etgan. Taklif 45,7 % ga oshib 1441,9 ming kishini tashkil etgan holda 2021-yilda respublikamizda ishsizlik 9,6 % ni tashkil etgan. Toshkent viloyatida 2010-yilda mehnat bozoriga talab 46,0 ming kishini takil etib, taklif esa 49,7 ming kishiga teng bo‘lgan. 2022-yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda talab 158,5 ming kishini, taklif esa 126,5 ming kishini tashkil etib, ishsizlik darajasi 9,4 % ni tashkil etgan. Jadval ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Respublikamiz bo‘yicha mehnat bozoriga talab o‘rtacha 65,3 ming kishiga ortgan. Taklif esa 23,2 ming kishiga oshgan. Toshkent viloyatida ham mehnat bozorida ishchi kuchiga talab o‘rtacha 10,0 ming kishiga oshgani holda mehnat bozoriga ishchi kuchi taklifi 6,2 ming kishiga o‘sganligini ko‘rshimiz mumkin bo‘ladi.

Toshkent viloyati mehnat bozorida mehnat resurslari taklifining shakllanishi demografik vaziyatning o‘zgarishiga bevosita aloqadordir. Aholi sonining muntazam yuqori darajada o‘sishi mehnat bozorida mehnat resurslari taklifining

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari asosida tuzulgan.

ortib borishiga olib keladi. Quyida O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholi bo‘yicha taqsimlanishi bilan tanishib chiqamiz (1.2-jadval).

1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholi bo‘yicha taqsimlanishi (ming kishi)

| Ko‘rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022 yil 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---|-------|
| | | | | | | | (+:-) | (%) |
| jamı mehnat resurslari soni | 18666,3 | 18829,6 | 18949 | 19158,2 | 19334,9 | 19517,5 | 851,2 | 104,6 |
| shahar | 9949,5 | 10032,5 | 10052,7 | 10471,7 | 10252,6 | 10394,1 | 444,6 | 104,5 |
| jamiga nisbatan foizda | 53,3 | 53,3 | 53,1 | 54,7 | 53 | 53,3 | 0,0 | 99,9 |
| qishloq | 8716,8 | 8797,1 | 8896,3 | 8686,5 | 9082,3 | 9123,4 | 406,6 | 104,7 |
| jamiga nisbatan foizda | 46,7 | 46,7 | 46,9 | 45,3 | 47 | 46,7 | 0,0 | 100,1 |
| iqtisodiy faol aholi | 14357,3 | 14641,7 | 14876,4 | 14797,4 | 14980,7 | 15038,9 | 681,6 | 104,7 |
| shahar | 7474,4 | 7682 | 7838,2 | 8189,8 | 7979,3 | 7945,3 | 470,9 | 106,3 |
| jamiga nisbatan foizda | 52,1 | 52,5 | 52,7 | 55,3 | 53,3 | 52,8 | 0,7 | 101,4 |
| qishloq | 6882,9 | 6959,7 | 7038,2 | 6607,6 | 7001,4 | 7093,6 | 210,7 | 103,1 |
| jamiga nisbatan foizda | 47,9 | 47,5 | 47,3 | 44,7 | 46,7 | 47,2 | -0,7 | 98,5 |
| iqtisodiy nofaol aholi | 4309 | 4187,9 | 4072,6 | 4360,8 | 4354,2 | 4478,6 | 169,6 | 103,9 |
| shahar | 2475,1 | 2350,5 | 2214,5 | 2281,9 | 2273,3 | 2448,8 | -26,3 | 98,9 |
| jamiga nisbatan foizda | 57,4 | 56,1 | 54,4 | 52,3 | 52,2 | 54,7 | -2,7 | 95,3 |
| qishloq | 1833,9 | 1837,4 | 1858,1 | 2078,9 | 2080,9 | 2029,8 | 195,9 | 110,7 |
| jamiga nisbatan foizda | 42,6 | 43,9 | 45,6 | 47,7 | 47,8 | 45,3 | 2,7 | 106,4 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

1.2-jadval ma’lumotlari asosida ta’kidlash mumkinki 2022-yil O‘zbekiston Respublikasida jami mehnat resurslari soni 19517,5 ming kishini tashkil etgan bo‘lib 2017-yilning mos davriga nisbatan 851,2 ming kishiga yoki 4,6 % o‘sgan. Shudan: shaharda 444,6 ming kishiga yoki 4,5 % o‘sib jamiga mehnat resurslariga nisbatan o‘zgarishsiz qolgani kuzatilgan. Qishloqlarda esa 406,6 ming kishiga yoki 4,7 % o‘sish kuzatilag bo‘lsa, jami mehnat resurslariga nisbatan ham o‘garmaganligi kuzatilagn. Iqtisodiy faol aholi 2022-yilda 15038,9 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 681,6 ming kishiga yoki 4,7 % o‘sib, shahar joylarda 470,9 ming kishiga yoki 6,3 % o‘sgan bo‘lsa, jami faol aholiga nisbatan

0,7 ming kishiga ko‘paygan yoki 1,4 % o‘sgan. Iqtisodiy nofaol aholi esa 2022-yilda 4478,6 ming kishini tashkil etib, 169,6 ming kishiga yoki 3,9 % o‘sgan bo‘lsa, shaxar joyldarda 26,3 ming kishiga yoki 1,1 % kamayganligini, qishloq joylarida 195,9 ming kishiga yoki 10,7 % ga o‘sganligini ko‘rsatadi. Quyidagi jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslari tarkibi to‘g‘risida tanishib chiqamiz.

1.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi mehnat resurslarining tarkibi (*ming kishi*).

| Ko‘rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022 yil 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---|-------|
| | | | | | | | (+:-) | (%) |
| mehnat resurslari | 18666,3 | 18829,6 | 18949 | 19158,2 | 19334,9 | 19517,5 | 851,2 | 104,6 |
| doimiy aholiga nisbatan, foizda | 57,6 | 57,1 | 56,4 | 56 | 55,4 | 54,8 | -2,8 | 95,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | | |
| Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi | 18549 | 18712,1 | 18857,6 | 19075,7 | 19237,6 | 19393,0 | 844,0 | 104,6 |
| doimiy aholiga nisbatan, foizda | 57,3 | 56,8 | 56,2 | 55,7 | 55,1 | 54,4 | -2,9 | 94,9 |
| mehnat resurslariga nisbatan, foizda | 99,4 | 99,4 | 934 | 99,6 | 99,5 | 99,4 | 0,0 | 100,0 |
| mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar | 117,3 | 117,5 | 91,4 | 82,5 | 97,3 | 124,5 | 7,2 | 106,1 |
| doimiy aholiga nisbatan, foizda | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,2 | 0,3 | 0,3 | 0,0 | 116,4 |
| mehnat resurslariga nisbatan, foizda | 0,6 | 0,6 | 0,5 | 0,4 | 0,5 | 0,6 | 0,0 | 100,0 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzulgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari 2022-yil 2017-yilga nisbatan 4,6% o‘sgan bo‘lib, jami aholi soniga nisbatan 2,8 % ga kamaygan. Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 2022-yilda 19393,0 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 844,0 ming kishiga yoki 4,6 % o‘sgan bo‘lib doimiy aholiga nisbatan 2,9 % ga kamaygan. Mehnat resurslariga nisbatan esa o‘zgarishsiz qolgan. Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar 2022-yilda 124,5 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 7,2 ming kishiga yoki 6,1 % ko‘paygan.

Doimiy aholi soniga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan bo‘lib, mehnat resurslari soniga nisbatan ham o‘zgarishsiz qolgan.

Qishloqda mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi keskin ta’sir ko‘rsatadi, zotan bu jihat qishloqda to‘liq ish bilan band bo‘lmaganlar sonining o‘zgarib turishi bilan izohlanadi. Mavsumiy ishsizlar sonining keskin o‘zgarib turishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat jarayonlarining mexanizasiyalashganlik darajasining pastligi oqibatidir. Vaholanki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash va mehnatni samarali tashkil etish sohadan ortiqcha ishchi kuchlarini bo‘shatish jarayonini tezlashtiradi. Buning natijasida yuqori malakaga ega bo‘lgan mehnatga talab yanada ortadi va malakasiz ishsizlar sonining ortishiga olib keladi.

Buning natijasida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan, mehnat bozorining kon'yunkturasi mehnat resurslari taklifining miqdori unga ehtiyojning talablariga to‘liq mos kelmaydi. Shuning uchun mehnat bozori kon'yunkturasini ifodalaydigan ikkita o‘zaro bog‘langan guruhlardagi omillar va shart-sharoitlar holatini ta’riflovchi miqdor va sifat ko‘rsatkichlarni ajratish zarur. Bunda **birinchi** guruhga quyidagilar kiradi: iqtisodiyotni agrosanoat sektorining holati; moddiy-texnik ta’minotining darjasи; ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura, qishloq qurilishi sanoati, shaxsiy-yordamchi xo‘jaliklar va uyda ishlovchilar mehnatining holati; ko‘p tarmoqli iqtisodiyotni rivojlanishi sharoitlarida jamoa-shirkat, ijara, hissadorlik, xususiy, qo‘shma va boshqa xo‘jaliklarni isloh qilinish darjasи; tovarlar va xizmatlar, sarmoyalar, qimmatbaho qog‘ozlar va ilmiy ishlanmalar bozorining shakllanishi darjasи; tabiiy boyliklarning mavjudligini kiritadigan bo‘lsak, **ikkinci** guruhga mehnat bozorining shakllanish va rivojlanish bilan bog‘liq jarayonlarni kiritishimiz mumkin va ularga quyidagilar kiradi:

-ma'lumot, malaka va kasbni egallaganlik darjasи;

-yuqori malakali qishloq kadrlarini tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi o‘quv yurtlarining holati;

-mehnatga layoqatli band bo‘lgan va band bo‘lmagan qishloq aholisining jinsi va yoshi bo‘yicha tuzilishi;

-ish haqi va boshqa manbalardan, ayniqsa shaxsiy-yordamchi xo‘jaliklardan olinadigan mehnat daromadlarining darajasi;

- ishsizning ijtimoiy va ruhiy holati;

- yollanib ishslash bo‘yicha ish taklif qiluvchi mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit;

- millatlararo munosabatlar va siyosiy ahvolning holati;

- milliy-etnik a’nanalar va qishloq aholisining mobilligi (safarbarligi) va boshqalar.

Mehnat bozorida mehnat resurslariga talab va taklifning nisbatini aniqlovchi omillar va shart-sharoitlar aholini ish bilan bandligi siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlari va tamoyillari bilan raqobatga (yohud ziddiyatga) kirishishi mumkin.

Bu holda mehnat bozorida salbiy tendensiyalarga qarshi harakat qiluvchi tadbirlarni o‘z vaqtida ishlab chiqish va o‘tkazish alohida o‘ringa ega. Xududiy mehnat bozorlarining omillari va kon'yunkturasidagi farqlarni hisobga olgan bandlik siyosati davlat tomonidan ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida va «Aholini ish bilan ta’minalash to‘g‘risida»gi Qonunda aks ettirilgan. Davlat tomonidan qo‘llaniladigan tartibga soluvchilarining (iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va huquqiy) o‘rni mehnat bozorida ziddiyatlarni yumshatish, mehnat resurslariga talab va taklif kon'yunkturasidagi nomuvozanatlikdan va ularni inqiroziy buzilish oqibatlaridan (yalpi ishsizlikni paydo bo‘lishi, ijtimoiy xo‘jalikda ishga joylashishga imkoniyat yo‘qligi, daromadlarni pasayishi va boshqalardan) ogohlantirish yo‘li bilan belgilanadi.

§1.2. Mehnat bozorining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini statistik baholash

Bozor munosabatlarining ijtimoiy oqibatlari natijasida ba’zida shunday sharoitlar shakllanadiki, viloyat aholisining bir qismi ish topish va doimiy daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lishida jiddiy qiyinchiliklar vujudga kelishi oqibatida

aholi turmush darajasi pasayadi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish va aholi turmush darajasini oshirish maqsadida soliq imtiyozlari, mehnat haqining oshirilishi, moliya-kredit vositalari, investitsiyalar (sarmoyalar)ni jalb etilishi, bandlikka ko‘maklashish makazlari va jamg‘armalari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqishni talab etadi. Natijada viloyat mehnat resurslarining harakati talab va taklifga muvofiq har qanday vaziyatda xam ish beruvchilar hamda hodimlar oldiga quyilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bozor muvozanatini tartibga solishda eng muhim yo‘nalish shundan iboratki, ishlab chiqilgan dasturlar majmuasi orqali mehnat bozorida nisbiy muvozanatga erishish mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, «mehnat bozori» tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining mintaqadagi tadqiqoti mazkur bozorni o‘tish davrida bajariladigan asosiy vazifalarni ham aniqlashga imkon beradi:

- mehnat resurslariga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;
- bozor uslubida xo‘jalik yuritishining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida mehnat resurslariga talab va taklifni tartibga solish;
- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatish;
- ishsizlarni ish topishga yoki bozor talablariga muvofiq malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko‘maklashish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o‘zgartirish kabi qator vazifalarni amalga oshiradi.

Davlat organlari tomonidan sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishida xodimlarni o‘zaro raqobat asosida jalb qilinishi mehnatning samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshiradi, hamda shuning bilan muomala sohasida mehnat resurslari rezervini shakllantirib, mehnat bilan samarali band bo‘lish imkon beradi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu nuqtai nazardan eng aniq xulosa O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan

30-avgust 2022-yildagi: «**Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-366-son qarorida aniq vazifalar belgilab berilgan. Qarorda quyidagilar xaqida so‘z boradi: 2022-yil 1-noyabrdan boshlab yana 10 ta faoliyat turi o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga kiritildi.

2023-yilning 1-yanvardan boshlab: yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun ijtimoiy soliq summasining eng kam miqdori oyiga BHMning 50%idan yiliga BHMning 1 baravarigacha kamaytiriladi (bundan savdo majmualari va bozorlarda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan jismoniy shaxslar mustasno); o‘zining shaxsiy tomorqa er uchastkasida shug‘ullanayotgan fuqarolar tomonidan yiliga BHMning kamida 1 barvari miqdorida ijtimoiy soliq to‘langan taqdirda, ular rasmiy band bo‘lgan aholi toifasiga kiritiladi va ushbu davr ularning mehnat stajiga qo‘shiladi.

2022-yil 1-noyabrdan boshlab tomorqa er uchastkalari egalarini kooperasiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilgan tadbirkorlik sub’ektlariga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan:

- parranda (tovuq, bedana, o‘rdak, g‘oz, kurka), parrandani saqlash uchun katak, ozuqa emi hamda dori vositalari;
- uzum ko‘chati va tok so‘risi;
- asalari oilasi, asalari uyasi uchun quti hamda ozuqa emi;
- quyon, quyon katagi va ozuqa emi;
- baliq chavoqlari, sun’iy hovuz va ozuqa emini xarid qilish hamda keyinchalik tomorqa er egalariga taqdim etish uchun subsidiya ajratildi.

Bunda, mazkur subsidiya bir nafar tomorqa er uchastkasi egasi uchun BHMning 20 baravarigacha miqdorda hokim yordamchilarining tavsiyasiga asosan ajratiladi.

Shuningdek, qaror bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilarga ruxsat etiladi:


- yakka tartibdagi tadbirkorlarga murakkab bo‘lmagan umumiylar qurilish va qurilish-ta’mirlash ishlari (beton quyish, bo‘yoqchilik, suvoqchilik ishlari, g‘isht va kafel terish, perforasiya, duradgorlik, chilangarlik va boshqa umumiylar qurilish ishlari)ni, shu jumladan, yuridik shaxslar uchun ham bajarishga;
- qurilish-pudrat tashkilotlariga umumiylar qurilish ishlarini bajarish uchun shartnomalar asosida yakka tartibdagi tadbirkorlarni jalb qilishga;

Bunda yakka tartibdagi tadbirkorlarga umumiylar qurilish ishlarini bajarish uchun besh nafargacha xodimlarni yollashga ruxsat etiladi. Kamida uch nafar xodimni yollagan yakka tartibdagi tadbirkorga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mehnat qurollari va asbob-uskunalarni sotib olishga subsidiya ajratiladi. Bunda, subsidiya miqdori bitta xodim uchun BHMning 15 baravaridan oshmasligi lozim²⁰.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar uzoqni ko‘zlangan va samarali davlat dasturlari asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Mehnat resurslarining ishlab chiqaruvchi hamda iste’molchi sifatidagi moddiy va manaviy manfaatlarini mos kelishini ta’minlashga urinishlari mehnatga qiziqishi bilan birgalikda mehnat faoliyatini xam tartibga solishni taqazo etmoqda. Mehnat bozorini quyidagi mezonlar orqali bir qancha turlarga ajratish mumkin.

Mehnat bozori yuqoridagi mezonlar asosida bir qancha turlarga ajratiladi va natijada, mehnat bozorining asosiy vazifalari va tarkibiy qismlari mazmunini chuqur o‘rganish uning rasional shakllanishi va rivojlanishi yo‘lini ravshanroq ko‘rishga va ish kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatni tenglashtirishning samarali usullarini topishga imkon beradi.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagagi “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-366-son qarori. <https://president.uz>.



1.5-pasm. Mehnat bozori turlari.

Avvalambor, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, aholi soni, tarkibi va boshqa o'zgarish ko'rsatkichlari tendensiyasi mehnat resurslari, tarmoqlar va hududlar bo'yicha bandlik statistikasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda qishloq aholisini ish bilan bandligini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini asoslashda, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-sun qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi" dagi 2019-yil 13-maydagi 394-sun qarori muhim ro'l o'ynaydi.

Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'limgan aholi sonini hisoblab chiqish va aholining mehnat bilan bandligini o'rganish tartiblari, mehnat resurslari balanslari, ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'limgan

aholi (ishsizlar) toifalarini hisobga olish hamda mehnat resurslari balansi va uning ko‘rsatkichlarini hisoblash masalalari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi²¹.

Buning uchun mintaqqa aholisini ish bilan bandligini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi sifatida – aholi soni, qishloq aholisi va uning tarkibi, ish bilan band bo‘lganlar, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nofaol aholi, mehnat resurslari, mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi, mehnat resurslari balansi, mehnat resurslarining prognoz balansi kabi ko‘rsatkichlarni tahlillarini amalga oshirish talab etiladi.

Mamlakat aholisi asosan, uning hududida va undan tashqarida istiqomat qilayotgan va fuqarosi hisoblangan odamlardan tarkib topgan bo‘lib, qishloq aholisi esa qishloq joylarda yashovchilarni o‘z ichiga oladi.

Demak ish bilan band bo‘lganlarga:

- yollanib ishlayotganlar, shu jumladan ishlarni to‘liq bo‘lmagan ish vaqt mobaynida yoki uyda ish haqi olib bajarayotgan, shuningdek haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan fuqarolar;
- kasallik, ta’til, qayta tayyorgarlik, malaka oshirish, ishlab chiqarishning to‘xtab turishi tufayli, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ishda bo‘lmagan xodim uchun ish joyi saqlanib qoladigan boshqa hollarda ish joyida vaqtinchalik bo‘lmagan fuqarolar;
- o‘zini mustaqil ravishda ish bilan ta’minlovchi fuqarolar, tadbirkorlar, shu jumladan yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar, kooperativlar a’zolari, fermerlar, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida mehnat bilan band bo‘lganlar, bevosita mol o‘stiruvchilar, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtiruvchilar va sotuvchilar, shuningdek ko‘rsatib o‘tilgan fuqarolar toifalarining ishlab chiqarishda qatnashadigan oila a’zolari;

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2020 yil 31 dekabrdagi PQ-4939-son qarori. <https://president.uz>

- Qurolli kuchlar, Milliy xavfsizlik hamda Ichki ishlar organlari va qo‘riqlash qo‘shinlarida xizmatni, shuningdek muqobil xizmatni o‘tayotgan fuqarolar;
- jamoat birlashmalarida va diniy tashkilotlarda ishlayotgan, o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan fuqarolar.

Iqtisodiy faol aholi - mehnat bilan band bo‘lgan fuqarolar va ishsizlar.

Iqtisodiy faol bo‘lмаган aholi - mehnat bilan band va ishsiz deb hisoblanmaydigan shaxslar, shu jumladan:


- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan hamda ish haqiga yoki mehnat daromadiga ega bo‘lмаган o‘quvchilar va ishlamayotgan talabalar;
- uy bekalari hamda bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan ishlamayotgan ayollar;
- ko‘char va ko‘chmas mulkdan daromad olayotgan ishlamayotgan shaxslar;
- ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo‘lмаган shaxslardir.

1.6-rasmda O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonini 2 turga ajratgan holda: iqtisodiy faol va nofaol aholi ajratib, ular tarkibiy-sinflar to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Mehnat resurslari - mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi hamda mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlayotgan shaxslar.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi - ishlamayotgan birinchi va ikkinchi guruh nogironlaridan hamda va yoshiga ko‘ra imtiyozli shartlarda pensiya oluvchi shaxslardan tashqari, mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar (16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar).

Mehnat resurslari balansi - mehnat resurslari soni hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.



1.6-rasm. Iqtisodiy faol va nofaol aholining tarkibi

Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblash uchun bevosita dunyo miqyosida amal qiladigan va mamlakatimizda mavjud sharoit va holatlardan kelib chiqqan holda hisoblash uslubiyatidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mamlakat miqyosida ushbu jarayonlarni hisoblash uslubiyatini qishloq aholisi bandligini hisoblashda qo'llash nafaqat nazariy, amaliy jihatdan ham to'g'ri yo'l hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ko'rsatkichlarni quyidagi 1.4-jadval ketma-ketligida hisoblash maqsadga muvofiqdir:

1.4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodchi olimlari tomonidan mehnat bozori holatini aniqlashdagi aypim ko‘rsatkichlari²²

| № | Ko‘rsatkichlar nomi | X.Nabiev cxemasi bo‘yicha hisoblanishi | Sh.P.Xolmo‘minov, N.T. Shoyusupova, S.E.Xolmuratov cxemasi bo‘yicha | Q.X.Abdupaxmonov cxemasi bo‘yicha |
|----------|--|---|--|---|
| 1 | Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi (ishsizlar)soni: | MM = MRA - B - IFA | I(t)=R _{hq} (t)-R ni (t), | U=LR-E-EIP |
| 2 | Mehnat resurslari soni: | MR = MYo - (N + BB) + PO ^c | MR=MYoM + IO‘P | LR=WAPM-WTP |
| 3 | Mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi soni | MLA = Ye(16-60) + X(16-55) - Nog - Pi | MYoM= E ₍₁₆₋₆₀₎ +A ₍₁₆₋₅₅₎ - Nog | WAPM=M _p (16-59)+W _p (16-54)-I _p -PP |
| 4 | Mehnat bilan bandlar soni | IT = ITr + ITnr + MM | IB=Ir +Idx +Inr | E=Eos+Eis+LM |
| 5 | Iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning aniq turi bilan shug‘ullanuvchi so‘rab chiqilganlar salmos‘i | SCHSi = SSi : SS x 100 | SS _i =SM _i : SM x 100 | RDIi=Nii : NI x 100 |
| 6 | Iqtisodiyotning norasmiy sektorida faoliyatning aniq turi bilan shug‘ullanuvchilar soni | ITNRi = MLA x SCHSi : 100 | NRBi= MYoT x SS _i :100 | Eisi= WAP *RDIi : 100 |
| 7 | Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi soni | IFA = O ^c + A + IN + IBB | INA=MR-IF | EIP = PS + IW +VUP |
| 8 | Ish bilan band bo‘lmanlar, mustaqil ravishda ish qidirayotganlar | IM = IB - RR | IQm=IJM - IQ - RI | US = U - UO |

1.4-jadvalda keltirilgan formulalar sharxi 1-ilovada keltirilgan. Demak yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda mehnat bozori va uning rivojlanishi borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi olimlarining mehnat bozori ko‘rsatkichlarini hisoblashda aynan qanday formulalar yordamiga tayanganliklari va ularning hisoblash usullaridagi farqlarni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Misol uchun mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi soni (MLA)ni hisoblashda X.Nabiev va Sh.R.Xolmo‘minovlar Ye(16-60) + X(16-55) lar soni bo‘yicha hisob kitobni amalga oshirgan bo‘lsa, Q. Abdurahmonov esa ushbu ko‘rsatkichni *M_p(16-59)+W_p(16-54)* orqali amalga oshirgan.

²² Nabiev X., Nabiev D.,X. Iqtisodiy statistika .Darslik. – T.: iqtisodchi, 2016. 496 bet; Sh.R.Xolmo‘minov, N.T. Shoyusupova, S.E.Xolmuratov Mehnat bozori iqtisodiyoti. O‘quv ko‘llanma 2006. 316 bet; Q.X.Abduraxmonov. Mehnat iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Darslik 2019.590 bet;

Mustaqil ravishda ish izlayotganlar soni ishga joylashtirishga ehtiyojmand aholining hisoblangan sonidan hisobot davri oxiridagi holati bo'yicha bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlarida rasman ishsizlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslar sonini chiqarib tashlash yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: **$IM = IB - PP$ [1.2]**,

Bu epda: **IM-** mustaqil ravishda ish izlayotganlar soni, **IB**-ishga joylashtirishga muxtoj aholi soni, **PP**- rasman ishsizlar ro'yxatidan o'tgan shaxslar.

Bandlik (tuman,shahar) markazlari tomonidan berilgan ma'lumotlar rasman ro'yxatdan o'tkazilgan ishsizlar soni bo'yicha axborot olish manbai hisoblanadi.

Qishloq aholisining mehnat bilan bandligini hisoblash, aholini ish bilan bandligini o'rghanish maxsus tanlab olingan uy xo'jaliklari a'zolaridan so'rab chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklarini so'rovnama o'tkazish har choraklik asosida kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari xodimlari tomonidan har chorakning oxirgi oyi ikkinchi o'n kunligi mobaynida o'tkaziladi.

So'rovnama o'tkazilishi ko'zda tutilgan uy xo'jaliklarini tanlash har bir tuman bo'yicha ma'lumotlarning reprezentativligini ta'minlaydigan, uy xo'jaliklarining kamida bir foizini so'rov bilan qamrab olish hisobga olingan holda proporsional tanlov bo'yicha o'tkaziladi.

Uy xo'jaliklarida so'rovnama o'tkazish kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish tuman (shahar) markazlari tomonidan hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari bilan birlgilikda to'rt bosqichda o'tkaziladi:

a) **bipinch**i bocqichda**** har bir tuman bo'yicha o'rghanilishi kerak bo'lgan uy xo'jaliklari soni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: **$UXC = UX \times 1\%$ [1.3]**,

Bu epda: **UXC**- uy xo'jaliklari soni, **UX**- tanlab olingan aholi punktlari soni.

b) **ikkinchi bocqichda** uy xo'jaliklari o'rghaniladigan aholi punktlari aniqlanadi, bunda:

- tanlab olingan aholi punktlari yonma-yon chegaralarga ega bo‘lmasligi kerak;
- tuman markazlari va ulardan yiroqda joylashgan aholi punktlari majburiy tartibda o‘rganilishi kerak;
- har bir tumanda kamida 5 ta aholi punkti (tuman markazi ham shu jumлага kiradi) o‘rganilishi kerak;
- har bir xududda yonma-yon chegaralarga ega bo‘lмаган kamida 5 ta mahalla o‘rganilishi kerak.

O‘rganilishi lozim bo‘lgan hududlarni tanlash tuman (shahar) statistika bo‘limi bilan kelishgan holda kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman (shahar) markazlari tomonidan amalga oshiriladi;

v) uchinchi bosqichda har bir aholi punktida o‘rganilishi kerak bo‘lgan uy xo‘jaliklari soni aniqlanadi;

g) to‘ptinchi bosqichda aholi punktlarida (mahallalarda) mavjud bo‘lgan uy xo‘jaliklari ro‘yxatlari asosida o‘rganilishi kerak bo‘lgan uy xo‘jaliklarining aniq ro‘yxati aniqlanadi.

Bunda tanlashning quyidagi tartib-qoidasini nazarda tutadigan "proporsional bosqichma-bosqich tanlash" usulidan foydalaniladi:

- mazkur aholi punktida (mahallada) joylashgan uy xo‘jaliklarining hisoblangan sonini o‘rganilishi kerak bo‘lgan uy xo‘jaliklarining hisoblangan soniga bo‘lish yo‘li bilan "tanlash bosqichi" aniqlanadi (masalan, tanlab olingan aholi punktida 300 ta uy xo‘jaligi mavjud bo‘lib, o‘rganiladigan uy xo‘jaliklari soni esa 30 tani tashkil etishi kerak bo‘lsa, "tanlash bosqichi" "10" ni (300:10) tashkil etadi);
- uy xo‘jaliklarining umumiyligi sonidan "tanlash bosqichi"ga bir karra har bir uy xo‘jaligiga tartib raqami beriladi va tanlab olinadi.

Pasmiy sektorda band bo‘lganlar soni ni aniqlash

Rasmiy sektorda band bo‘lganlar davlat statistika hisoboti ma’lumotlari bo‘yicha yollanib (mehnat shartnomasi bo‘yicha), shu jumladan saylanadigan

lavozimlarda ishlayotgan doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy xodimlar; harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va boshqa tashkilotlar xodimlari; kooperativlar va shirkatlar a'zolari; xususiy korxonalar egalari (ish beruvchilar), shu jumladan fermerlar; yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs sifatida rasman ro'yxatga olingan fuqarolar; yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan dehqon xo'jaliklari a'zolari hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda va dehqon xo'jaliklarida qoramol o'stirish bilan band bo'lган shaxslar; nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari soni bo'yicha hisoblanadi.

Norasmiy sektorda band bo'lганlar sonini aniqlash va hisoblab chiqish esa, xalqaro mehnat tashkiloti normalaridan kelib chiqib hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan hisobga olish va tasniflash amaliyotiga muvofiq iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lганlar jumlasiga ijtimoiy sug'urta va soliq organlarida hisobga turmagan quyidagi shaxslar kiradi:

- yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilmagan dehqon xo'jaliklari a'zolari; uyda pulli xizmatlar ko'rsatish bilan band bo'lган shaxslar (enagalar, uy xizmatchilar, uy oshpazlari, avtomobil haydovchilar, qorovullar va boshqalar); jismoniy shaxslarda haq olib ishlovchi shaxslar; oila boshliqlariga ularning tadbirkorlik faoliyatida yordam beruvchi oila a'zolari; tegishli ro'yxatdan o'tmay ishlovchi tadbirkorlar.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band shaxslar soni mehnat organlari tomonidan bandlik masalalari bo'yicha har chorakda amalga oshiriladigan o'r ganib chiqish asosida aniqlanadi.

Mehnat faoliyatini chet elda amalga oshirayotgan shaxslar soni quyidagi tartibda bosqichma-bosqich aniqlanadi:

- 1) birinchidan, ishga joylashtirishga muhtojlarni aniqlash maqsadi uchun mehnat organlari tomonidan mehnat emigrasiyasi bo'yicha savolnomaga muvofiq, mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'r ganishlarni o'tkazish paytida migrant mehnatchilar sifatida chet-elda turganlar soni aniqlanadi. Buning uchun: a) uy

xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha (mehnat emigrasiysi moduliga binoan) har chorakdagi o‘rganishlar ma’lumotlari asosida mehnat faoliyatini chet elda amalga oshirayotgan shaxslarning so‘ralganlar umumiyligi sonidagi salmog‘i quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\text{MMC} = \text{KMMC} : \text{CC} \times 100 [1.4]$$

Bu yerda: MMC- migrant mehnatchilar sifatida chet-elda turganlar soni,

KMMC- nat faoliyatini chet elda amalga oshirayotganlar soni, CC- mehnatga layoqatli yoshdagi so‘ralganlar soni.

Migrant mehnatchilarning so‘ralganlarning umumiyligi sonidagi salmog‘i quyidagi formula orqali aniqlanadi. $\text{MM} = \text{MMC} \times \text{MLA} : 100 [1.5]$

Bu yerda: MM- Ishga joylashtirishga muhtoj band bo‘lmagan aholi (ishsizlar), MMC- migrant mehnatchilar sifatida chet-elda turganlar soni, **MLA**- mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni.

O‘rganishlar natijasida har qaysi mamlakatdagi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan migrant mehnatchilarning so‘ralganlar umumiyligi sonidagi salmog‘i aniqlanadi. Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi umumiyligi soniga nisbatan salmoqni proporsional ravishda hisoblab chiqish va jamlash yo‘li bilan muayyan mamlakatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan migrant mehnatchilar soni aniqlanadi²³.

2) ikkinchidan, umuman respublika bo‘yicha mehnat resurslarini hisoblab chiqishda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet elga ketgan shaxslar soni hisobga olinadi. Ularning soni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migrasiysi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son qarori bilan tasdiqlangan Sxema bo‘yicha, quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi integrasiyalashgan axborotlar moduli asosida aniqlanadi: a) chet elga ketganlarning soni va maqsadi to‘g‘risida bojxona deklarasiyasining takomillashtirilgan shakli asosidagi har choraklik statistika hisoboti ma’lumotlari;

²³ Nabiev X., Nabiev D.,X. Iqtisodiy statistika .Darslik. – T.: iqtisodchi, 2019. 512 bet


b) mehnat emigrasiyasi masalalari bo‘yicha har yilgi sosiologik o‘rganishlar ma’lumotlari;

v) mehnat faoliyatini chet elda amalga oshirish uchun fuqarolarga Tashqi mehnat migrasiyasi masalalari agentligi tomonidan berilgan ruxsatnomalar ma’lumotlari;

g) Tashqi ishlar vazirligining chet eldagi konsullik muassasalaridan olingan ma’lumotlar;

d) uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha har choraklik o‘rganishlar ma’lumotlari.

Buning natijasida uy xo‘jaliklari xaqida to‘liq ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish imkoniyatlarini yaratiladi. Qolaversa aholining qaysi qatlami iqtisodiyotning qanday sohalarda ish bilan band ekanliklarini xam ochiqlaydi. Qo‘yida ko‘rib chiqadigan jadvallarimiz ham aynan mamlakat aholisining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bandligini ko‘rsatadi.



1.7-rasm. Ish bilan band aholi sonining hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi²⁴

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu ma'lumotlarni aniqlashtirish bugungi kunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish bilan band aholining sonini va ularning bugungi kundagi asosiy daromad manbalari to'g'risida ham ma'lumotlar to'plash imkonini yaratadi va qaysi sohalarni rivojlantirish orqali yanada ko'proq bo'sh ish o'rinalarini yaratishimiz mumkinligi to'g'risida tahlilar olib borish imkonini beradi.

Ish bilan band aholi soni hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil etilganda, 2021-yil O'zbekiston Respublikasida jami bandlar 13538,9 (ming kishi)ni tashkil etib, bunda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3414,7 (ming kishi)ni, sanoatda 1863,2 (ming kishi)ni, qurilish sohasida 1350,8 (ming kishi)ni va xizmatlar sohasida 6910,2 (ming kishi)ni tashkil etmoqda.

Respublikamiz hududlarida esa Farg'ona viloyati jami ish bilan bandlarning qarib 11% ni tashkil etgani xolda 1483,3 (ming kishi)ga teng bo'lib eng yuqori o'rinni egallamoqda. Keyingi o'rnlarda Samarqand viloyati (viloyat bo'yicha jami bandlar soniga nisbatan ulushi 10,7 %) va Toshkent viloyati (9,7 %), Andijon (9,3 %), Toshkent shahrida (9,0 %) va Qashqadaryo viloyatida (8,9 %), Namangan (8,2 %) va Surxondaryo viloyatida (7,5 %), Buxoro (5,7 %), Xorazm (5,3 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (5,2 %), va Jizzax viloyati (4,0 %), Navoiy viloyati (3,1%) va Sirdaryo viloyati esa (2,6 %) ni tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida xam Farg'ona viloyati etakchilik qilib 377,1 (ming kishi) sohadagi umumiyl ish bilan bandlarning 11,04% ni tashkil qilgan bo'lsa oxirgi o'rnlarda Toshkent shaxri 6,7 (ming kishi) tarmoqdagi 0,2% ni tashkil etmoqda. Sanoat tarmoqlarida Toshkent viloyati 274,1 (ming kishi) ya'ni 14,7 % bilan etakchilik qilayotgan bo'lsa, Sirdaryo viloyati 34,4 (ming kishi) 1,8% bilan so'nggi o'rinni egallamoqda. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida qurilish va xizmatlar sohasida xam Toshkent viloyati salmoqli o'rinalarni egallaganini ko'rishimiz mumkin. (1.7-rasm)

1.5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (ming so‘m)²⁵

| Hududlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2021 yil 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|---------------------------------|----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|---|--------------|
| | | | | | | | (+:-) | (%) |
| O‘zbekiston Respublikasi | 9 802,1 | 12 945,7 | 15 863,8 | 17 688,5 | 21 149,2 | 24 919,7 | 15 117,6 | 254,2 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 5 932,1 | 8 417,4 | 10 380,0 | 11 335,4 | 13 264,7 | 15 249,4 | 9 317,3 | 257,1 |
| Andijon | 6 612,8 | 8 889,4 | 10 842,1 | 12 036,0 | 13 454,0 | 16 564,0 | 9 951,2 | 250,5 |
| Buxoro | 9 257,9 | 11 605,0 | 14 645,0 | 16 189,2 | 19 546,4 | 22 975,6 | 13 717,7 | 248,2 |
| Jizzax | 7 373,0 | 9 498,5 | 11 743,8 | 13 207,6 | 16 309,9 | 18 596,0 | 11 223,0 | 252,2 |
| Qashqadaryo | 6 925,3 | 8 312,3 | 9 924,9 | 10 687,0 | 12 622,0 | 14 372,6 | 7 447,3 | 207,5 |
| Navoiy | 15 447,7 | 23 240,3 | 36 653,1 | 49 513,0 | 57 370,6 | 63 832,1 | 48 384,4 | 413,2 |
| Namangan | 5 721,7 | 6 899,6 | 8 542,4 | 9 814,0 | 11 794,3 | 13 864,4 | 8 142,7 | 242,3 |
| Samarqand | 7 335,8 | 8 693,1 | 10 100,3 | 10 996,3 | 13 258,2 | 15 323,2 | 7 987,4 | 208,9 |
| Surxondaryo | 5 788,9 | 7 313,8 | 8 574,0 | 9 275,2 | 10 948,8 | 12 561,6 | 6 772,7 | 217,0 |
| Sirdaryo | 8 399,8 | 10 369,1 | 14 157,3 | 14 999,7 | 17 327,5 | 20 433,5 | 12 033,7 | 243,3 |
| Toshkent v | 10 225,2 | 13 885,9 | 18 751,9 | 21 833,1 | 28 206,4 | 31 499,2 | 21 274,0 | 308,1 |
| Farg‘ona | 5 775,7 | 7 537,1 | 8 747,6 | 9 830,0 | 12 379,0 | 14 219,1 | 8 443,4 | 246,2 |
| Xorazm | 6 705,4 | 8 734,9 | 10 333,9 | 11 338,6 | 13 865,1 | 16 465,7 | 9 760,3 | 245,6 |
| Toshkent sh | 20 151,0 | 25 532,4 | 33 344,0 | 36 051,4 | 43 166,0 | 50 675,3 | 30 524,3 | 251,5 |

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida shu ma’lum bo‘ladiki, respublikamizda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 2022-yilda 24919,7 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 15117,6 ming so‘mga yoki 154,2 % o‘sgan. O‘rganilayotgan davrda eng yuqori o‘sish ko‘rsatkich Navoiy viloyatiga tegishli bo‘lib 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 43384,4 ming so‘mga yoki 413,2 % ga o‘sgan. Keyingi o‘rin Toshkent viloyati xissasiga to‘g‘ri kelib, 2022-yil 2017-yilga nisbatan 21274,0 ming so‘mga yoki 308,1 % ga o‘sgan. Eng past ko‘rsatkich esa Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri kelib, 7447,3 ming so‘mga yoki 207,5 % o‘sgan.

§1.3. Mintaqa mehnat bozori tarkibiy tuzilishini statstik ko‘rsatkichlari tizimi

Mehnat bozori uning tarkibiy tuzilishi va ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosan yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, uy xo‘jaliklari

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzulgan.

so‘rovnomasini o‘tkazish orqali aniqlanadi. Avvalambor, shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, uy xo‘jaliklari so‘rovi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bilan kelishgan holda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan maxsus so‘rovnoma bo‘yicha amalga oshiriladi.

Mehnat resurslari soni, ishsizlar va pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar sonini aniqlashda so‘rovnoma asosida uy xo‘jaliklarining mehnatga layoqatli yoshdagi barcha a’zolaridan so‘rab chiqilishi kerak, uy xo‘jaliklari a’zolari so‘rovnoma davrida bo‘lmagan taqdirda esa hozir bo‘lmagan uy xo‘jaliklari a’zolariga tegishli javoblarni uy xo‘jaligining boshqa vakolatlari a’zosidan olish mumkin.

So‘rovni amalga oshirgan xodimlardan uy xo‘jaliklari so‘rovining to‘ldirilgan so‘rovnomalarini qabul qilish kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazining ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan aholini hisobga olish va ular bo‘yicha ma’lumotlar bankini shakllantirish bo‘limi boshlig‘i tomonidan amalga oshiriladi.

To‘ldirilgan so‘rovnomalarni qabul qilishda:

- so‘rab chiqqan xodim tomonidan uy xo‘jaliklari so‘rovining aniq tarzda tanlanishiga rioya qilinganligi;
- so‘rovnoma savollari to‘liq to‘ldirilganligi;
- so‘rovnoma savollariga javoblarning mantiqliligi va bir-biriga zid emasligini tekshirish ta’milanishi kerak.

Uy xo‘jaliklari so‘rovi o‘tkazilishining sifati uchun javobgarlik uy xo‘jaliklari so‘rovini o‘tkazgan xodimga va so‘rovnomanini qabul qilib olgan shaxsga yuklanadi.

So‘rovnoma materiali qabul qilib olingandan keyin uni qayta ishslash maxsus dasturi yordamida amalga oshiriladi. Ma’lumotlar bazasini shakllantirish (ma’lumotlarni komp’yuterga kiritish) Qoraqalpog‘iston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar

kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ma’lumotlar to‘planayotgan bazaga to‘liq kiritilgandan keyin ma’lumotlar bazasi har bir tuman bo‘yicha alohida fayllar shaklida, keyinchalik uzil-kesil puxta ishlash va tahlil qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga yuboriladi.

Ma’lumotlarni puxta ishlash va tahlil qilish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- ma’lumotlar bazasini shakllantirish (to‘planma ma’lumotlar bazasiga kiritish) - hisobot choragi oxirgi oyidan keyingi oyning 1-kunigacha;
- har bir tuman bo‘yicha yig‘ma jadvallarni puxta ishlash va olish - hisobot choragi oxirgi oyidan keyingi oyning 10-kunigacha;
- tekshirish natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumotnomalar va tahliliy jadvallar tayyorlash - hisobot choragi oxirgi oyidan keyingi oyning 15-kunigacha.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish davrida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar statistika oldiga mehnat bozorini o‘rganish bo‘yicha yangi talablarni qo‘ymoqda. Jumladan, bandlik va ishsizlik darajasi, mehnat resurslarini kasbiy tayyorlash va uning xarajatlari qiymati, aholining majburiy migrasiyasi kabi masalalarni o‘rganish O‘zbekiston Respublikasi statistika uslubiyatini xalqaro andozalar darajasiga etkazishni taqazo etadi. Bulami o‘rganish uchun axborotlarning quyidagi yangi manbalaridan foydalilaniladi va ular kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hududiy idoralarining statistik hisobotlarida o‘z aksini topadi:

- fuqarolarning ish qidirib qilgan murojaatlari, bo‘sish ish o‘rnlari va ishsizlik darajasi va ishsizlar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- aholi bandligi darajasini o‘rganish maqsadida har chorakda o‘tkazilgan (oxirgi xافتада) tanlama kuzatish ma’lumotlari;
- migrasiya xizmatlari organlarining O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida faoliyat yuritayotgan xorij fuqarolari haqidagi ma’lumotlari.

Mehnat resurslarining soni, tarkibi va joylashishi haqida to‘liq ma’lumotlarni aholi ro‘yxati ma’lumotlaridan olish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi va uning hududiy birliklarida mehnat bozori holatini baholash uchun quyidagi nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Mehnatga layoqatli yoshdagи aholi koeffitsienti – umumiyl aholi sonida mehnatga layoqatli aholi salmog‘ini ifodalaydi.

2. Mehnatga layoqatli yoshdagи aholining mehnatga layoqatilik koeffitsienti – mehnatga layoqatli aholining mehnatga layoqatli yoshdagи aholidagi salmog‘ini ifodalaydi.

3. Aholini bandlilik koeffitsienti – band aholini umumiyl aholi sonidagi salmog‘ini ifodalaydi.

4. Mehnatga layoqatli yoshdagи aholini bandlilik koeffitsienti - mehnatga layoqatli yoshdagи aholini shu yoshdagи umumiyl aholi sonidan salmog‘ini ifodalaydi.

5. Mehnat resurslarini bandliligi koeffitsienti – band aholini umumiyl mehnat resurslaridagi salmog‘ini ifodalaydi.

6. Umumiyl yuklama koeffitsienti – har 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagи kishilarga to‘g‘ri kelgan mehnatga layoqatsiz yoshdagи kishilar sonini ifodalaydi.

7. Mehnat resurslari o‘rnini qoplash koeffitsienti – har 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagи kishilarga to‘g‘ri kelgan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar soni.


8. Nafaqa yuklamasi koeffitsienti – har 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagи kishilarga to‘g‘ri kelgan nafaqaxo‘rlar soni.

9. Ishsizlik darajasi – ishsizlar sonini iqtisodiy faol aholi soniga nisbati bo‘lib, u foizlarda ifodalanadi.

10. Aholini iqtisodiy faollik darajasi – iqtisodiy faol aholini umumiyl aholi sonidagi salmog‘ini ifodalaydi.

Mehnatga layoqatli aholi - yoshi va sog‘ligi bo‘yicha mehnat qila oladigan kishilar hisoblanadi. Mavjud bo‘lgan qonuniyatga asosan bizning mamlakatimizda mehnatga layoqatli yosh: erkaklar uchun 16 dan 60 yoshgacha va ayollar uchun 16

dan 55 yoshgacha hisoblanadi. Shu yoshdagi kishilar sog‘lig‘i bo‘yicha: mehnatga layoqatli va layoqatsiz guruhlarga ajratiladi. Layoqatsiz guruhga ishlamayotgan I va II guruh nogironlar, shuningdek mehnat yoshida bo‘lib, ishlamayotgan nafaqaxo‘rlar (ular imtiyozli shartlar bilan nafaqa olayotganlar). Quyidagi rasmda O‘zbekiston aholisining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi keltirilgan.



1.8-rasm. O‘zbekiston Respublikasi aholisining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi²⁶

1.8-rasm ma’lumotlari asosida shu ma’lum bo‘ladiki, 2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, Toshkent viloyati doimiy aholi soni yil boshiga nisbatan 0,5 % ga yoki 13,5 ming kishiga ko‘payib, 3007,0 ming kishini tashkil etmoqda. Shu jumladan, shahar aholisi soni 1504,6 ming kishini, jami aholi soniga nisbatan 50,04 % ni, qishloq aholisi soni 1502,4 ming kishini, jami aholiga nisbatan 49,96% ni tashkil etmoqda. Viloyatning doimiy aholisini 13,3 % ni yoki 399,9 ming kishini mehnatga layoqatli yoshdan kattalar, 902,3 ming kishini yoki 30,0 % ini mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar tashkil etgan bo‘lsa, mehnatga layoqatli yoshdagilar 56,7 % ni yoki 1704,8 ming kishini tashkil etmoqda.

1.6-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda 1.1-jadvalda ko‘rganimizdek yillar mobaynida aholi sonining o‘sishi hududlarimizda mehnat munosabatlariga xam o‘zining ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Toshkent viloyatida 2021-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi soni 1608,4 ming kishini tashkil etib 2018-yilga nisbatan 5,3 ming kishiga yoki 0,3 % ga kamaygan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Toshkent viloyatida eng yuqori o‘sish Nurafshon tumaniga 12,0 ming kishi yoki 44 % bilan to‘g‘ri kelib, eng past ko‘rsatkich O‘rtachirchiq tumaniga to‘g‘ri kelib, 6,6 ming kishiga yoki 8,4 % kamayganligini ko‘rsatmoqda.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

1.6-jadval


Toshkent viloyati bo‘yicha mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi soni va dinamikasi²⁷

| Yillar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 yil 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|-----------------------|--------|--------|--------|--------|--|-------|
| | | | | | (+;-) | (%) |
| Jami | 1613,7 | 1597,2 | 1601,9 | 1608,4 | -5,3 | 99,7 |
| Olmaliq sh. | 98,7 | 99,0 | 98,2 | 97,3 | -1,4 | 98,6 |
| Angren sh. | 97,1 | 97,5 | 102,8 | 102,8 | 5,7 | 105,9 |
| Bekobod sh. | 54,6 | 53,8 | 53,9 | 55,1 | 0,5 | 100,9 |
| Chirchiq sh. | 90,6 | 90,9 | 100,9 | 96,1 | 5,5 | 106,0 |
| Yangiyo‘l sh. | 31,3 | 30,4 | 33,0 | 32,4 | 1,1 | 103,6 |
| Nurafshon sh. | 27,2 | 37,6 | 39,7 | 39,2 | 12,0 | 144,0 |
| Ohangaron sh. | 19,5 | 20,2 | 21,7 | 23,4 | 3,9 | 120,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 57,0 | 57,2 | 56,3 | 57,9 | 0,9 | 101,5 |
| Ohangaron | 49,7 | 53,5 | 48,5 | 47,8 | -1,9 | 96,2 |
| Bekobod | 80,9 | 84,7 | 79,9 | 79,3 | -1,6 | 98,0 |
| Bo‘stonliq | 92,6 | 90,9 | 89,2 | 90,6 | -2,0 | 97,9 |
| Bo‘ka | 67,3 | 66,6 | 68,2 | 67,9 | 0,6 | 100,9 |
| Zangiota | 107,4 | 99,8 | 103,1 | 103,0 | -4,4 | 95,9 |
| Qibray | 111,9 | 104,3 | 104,1 | 106,8 | -5,1 | 95,5 |
| Quyichirchiq | 56,3 | 52,3 | 56,0 | 57,1 | 0,8 | 101,5 |
| Parkent | 82,8 | 81,0 | 83,3 | 83,2 | 0,4 | 100,4 |
| Piskent | 56,8 | 55,2 | 56,2 | 55,1 | -1,7 | 97,1 |
| O‘rtachirchiq | 79,3 | 74,1 | 73,3 | 72,7 | -6,6 | 91,6 |
| Chinoz | 70,5 | 69,1 | 68,0 | 69,3 | -1,2 | 98,3 |
| Yuqorichirchiq | 71,4 | 68,1 | 70,3 | 70,7 | -0,7 | 99,0 |
| Yangiyo‘l | 112,3 | 109,7 | 96,2 | 105,9 | -6,4 | 94,3 |
| Toshkent | 98,5 | 101,3 | 99,1 | 94,8 | -3,7 | 96,2 |

Respublikamiz hududlar bo‘yicha Toshkent shahri aholisi eng zich hudud hisoblanib, Toshkent viloyatida esa 1 kv.km.ga 197,7 kishi to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi zichligi 1,8 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Aholi zichligini oshishi bu bevosita aholi sonining ortishi bilan bog‘liq bo‘lgani bois, Respublikamiz aholisining zichlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda barcha infrastrukturalarni rivojlantirish, oshib borayotgan aholi extiyojlarini qondirish, aholi o‘rtasida “yashil” iqtisodiyot tushunchasini keng targ‘ib etishni talab etmoqda. Respublikada, qolaversa Toshkent viloyati hududlarida mehnat resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratish

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

hamda ishsizlik va aholining oqilona bandligini ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi. Aholi zichligining oshishi Toshkent viloyati hududlarida bir qator iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Toshkent viloyatida aholi bandligi va samaradorligini oshirishning katta ulushi bugungi kunga qadar qishloq ho'jaligini rivojlantirish hisobiga amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda aholi sonining ortishi va aholining savodxonlik darajasini ko'tarilishi natijasida bugun viloyatda turizm, maishiy xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida innovasion loyihalarini amalga oshirish hisobidan aholi bandligini boshqa tarmoqlardagi bandlik ulushlarini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Qolaversa viloyat hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqgan holatda viloyat aholisini, ayniqsa bugungi kunda ishsiz hisoblanayotgan yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirishda "Ishga marxamat mono markazlar"i faoliyatlarni keng yo'lga qo'yish, "yashil" iqtisodiyot davridagi yangi kasb ko'nikmalarini oshirish maqsadga muvofiqdir.



1.10-rasm. O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi²⁸

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida shuni aloxida ta'kidlash mumkin bo'ladiki, O'zbekiston Respublikasida 2000-yilda ish bilan band aholi soni 8983,0 (ming kishi)ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 13538,9 (ming kishi)ni tashkil etib, 66,4 % ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda ish bilan band aholining 34% i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 16% i sanoatda, 13% i qurilish sohasida, 6% i tashish va saqlash, 12% i ta'lim tizimida, 6% i sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va qolgan 13% i boshqa turdag'i xizmatlar ko'rsatish soxasida faoliyat yuritayotganligi va yillar davomida ushbu ko'rsatkichlar sezilarli ravishda ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. (1.10-rasm)

1.7-jadval

Toshkent viloyati bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida bandlarning taqsimlanishi va dinamikasi²⁹

| Yillar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2021 yil 2018 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|--|---------------|---------------|---------------|----------------|----------------|---|-------------|
| | | | | | | (+;-) | (%) |
| Bandlar - jami | 1227,7 | 1232,9 | 1177,2 | 1 222,1 | 1 206,7 | -21,0 | 98,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 322,9 | 322,2 | 304,2 | 279,5 | 280,7 | -42,2 | 86,9 |
| Sanoat | 255,1 | 258,4 | 263,3 | 274 | 275,2 | 20,1 | 107,9 |
| Qurilish | 112,8 | 124,6 | 119,5 | 125,3 | 126,4 | 13,6 | 112,1 |
| Savdo | 138,4 | 141,8 | 129,8 | 141,5 | 142,7 | 4,3 | 103,1 |
| Tashish va saqlash | 63,9 | 63,8 | 58,7 | 60,9 | 56,2 | -7,7 | 87,9 |
| Ta'lim | 80,7 | 81,6 | 80,5 | 88,1 | 88,9 | 8,2 | 110,2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 49,8 | 49,1 | 49,9 | 57,1 | 55,4 | 5,6 | 111,2 |
| Boshqalar | 204,1 | 191,4 | 171,3 | 195,7 | 191,3 | -12,8 | 93,7 |

Toshkent viloyatida 2022-yilda jami bandlar soni 1206,7 ming kishini tashkil etgan bo'lib 2018-yilning mos davriga nisbatan 21,0 ming kishiga yoki 1,7% ga kamaygan. Asosiy kamayish qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga to'g'ri kelib 2022-yil 2018-yilga nisbatan 42,2 ming kishiga yoki 13,1 % ga kamaygan bo'lsa, sanoatda 20,1 ming kishiga yoki 7,9 % o'sish kuzatilgan. Qurilish sohasida esa 13,6 ming kishiga yoki 12,1 % ga o'sish kuzatilgan bo'lsa savdoda 3,1 %,

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ta’limda 10,2 % , sog‘liqni saqlashda 11,2 % o‘sish kuzatilgan bo‘lib, tashish va saqlashda 7,7 ming kishiga yoki 12,1 % ga va bashqa sohalarda 6,3 % kamayish kuzatilgan.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining hozirgi darajasi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda mehnat resurslarining o‘rni va ahamiyatini tubdan o‘zgartirib yubordi, davlatlararo aloqalar madaniyatini sifat jihatdan yangi pog‘onaga ko‘tardi. Xalqaro mehnat bozori bu mehnat resurslari iste’molchilari va ularni etkazib beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi. O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida halqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo‘shilishi uni jahon mehnat bozorida ham faol qatnashishini taqazo etadi. Iqtisodiy isloh qilishning dastlabki yillaridagi o‘zgarishlar, demografik vaziyatning murakkabligi O‘zbekistonni mehnat resurslarini eksport qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. Shu bilan birga xorijiy mamlakatlardan yuqori malakali mehnat resurslarini jalb qilish imkoniyatlari ham mavjud bo‘ladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, mehnat resurslarining hisob-kitob balansi mehnat bozorining holati va mehnat bilan bandlik to‘g‘risida tezkor va xolisona axborot olish hamda tumanlar va shaharlar bo‘yicha alohida, viloyatlar bo‘yicha, shuningdek umumiy respublika bo‘yicha ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan shaxslar sonini aniqlash maqsadida mehnat, statistika va iqtisodiyot organlari tomonidan bиргаликда ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan, hududlar bo‘yicha ish o‘rinlari tashkil etish parametrlarini ishlab chiqish va zarurat bo‘lganda, unga tuzatishlar kiritish, shuningdek, ishsizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlariga yo‘naltiriladigan moliyaviy resurslar hajmini aniqlash amalga oshiriladi.

Mehnat resurslarining hisob-kitob balansi quyidagilardan kelib chiqqan holda yilning har choragida ishlab chiqiladi:

- ish bilan band bo‘lganlar toifalarining soni to‘g‘risida davlat statistika hisobotining dastlabki ma’lumotlari;
- norasmiy sektorda ish bilan band bo‘lgan shaxslar soni va chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar soni;
- iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi soni;
- ish bilan band bo‘lmagan aholi soni; emigrant mehnatchilar soni.

Shu bilan birga bunda tumanlar, shaharlar va viloyatlar bo‘yicha mehnat resurslari balansi hisob-kitobida ish bilan bandlik bo‘yicha uy xo‘jaliklarini o‘rganib chiqishga kiritilgan mehnat emigrasiyasi yuzasidan modul savollariga javoblar bo‘yicha olingan chet eldagи migrant mehnatchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobga olinadi. Mehnat resurslarining hisob-kitob balansi hududlar bo‘yicha ishlab chiqiladi.

Mehnat resurslari hisob-kitob balansini O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bilan birgalikda ishlab chiqadilar.

Shu bilan birga tumanlar (shaharlar) bo‘yicha mehnat resurslarining hisob-kitob balansi kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan hisobot choragining oxirgi oyidan keyingi oyning 20 kunidan kechikmay ishlab chiqiladi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalariga hamda Statistika agentligining hududiy boshqarmalariga yuboriladi. Hududiy boshqarmalarga taqdim etiladigan hisob-kitob balansiga tumanlar va shaharlar bo‘yicha uy xo‘jaliklarini o‘rganib chiqish natijalarining tartibga solingan ma’lumotlari (jadval shakllarida) ilova qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Statistika agentligining hududiy boshqarmalari bilan birgalikda olingan ma’lumotlar asosida va mazkur metodikada

nazarda tutilgan tartib-qoidalarga muvofiq har bir tuman (shahar) bo'yicha hisob-kitob balanslarini ishlab chiqadilar. Bunda umuman respublika bo'yicha mehnat resurslari yig'ma balansini ishlab chiqishda takomillashtirilgan bojxona deklarasiyasi bo'yicha statistika hisoboti ma'lumotlari, mehnat emigrasiyasi masalalari bo'yicha o'rganishlar materiallari hamda Tashqi mehnat migrasiyasi masalalari agentligi va Tashqi ishlar vazirligining chet eldag'i konsullik muassasalari ma'lumotlari asosida olingan emigrant mehnatchilar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobga olinadi.

Aholini oqilona ish bilan ta'minlashda birinchi navbatda ishga joylashishga muhtoj bo'lgan shaxslarni to'la hisobga olish g'oyat muhimdir. Ushbu muammolarni hal qilishda mehnat resurslarini shakllanishi va ularni ishga joylashish borasidagi haqiqiy ehtiyojini aniqlash imkoniyatini beradigan balans usulidan foydalanib, aholining ish bilan bandligini hisobga olishni to'g'ri takomillashtirishi muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"³⁰gi qarori yuzasidan ham Respublikamizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh ish o'rinaliga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini-o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Aholining ishchanligini, faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda³⁰.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan

³⁰ O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018 yil 17iyuldag'i "Aholi bandligini ta'minlash borsidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"³⁰gi qarori.

“Aholi bandligi to‘g“risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida xam ijtimoiy ximoyaga muxtoj bo‘lgan va ish topishda qiynalayotgan xamda mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan, band bo‘lmagan aholi, bo‘sh ish o‘rinlari milliy bazasi, ishsizlik, ishsizlik nafaqlari, ish qidirayotgan shaxs, kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish milliy tizimi, kasbiy standart, malakani baholash, mehnat resurslari, mehnat resurslari balansi, xaq to‘lanadigan jamoat ishlari, “yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi va aholini ish bilan band qilish sohasini tartibga solish borasida bir qator ustuvor vazifalar belgilab olingan va hozirgi kunda ushbu dasturlar yuzasidan qator vazifalar amalga oshirilmoqda.

Tarmoqlararo balans - iqtisodiyotning barcha sektorlari va tarmoqlarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va taqsimlash hamda ular o‘rtasidagi mehnat mutanosibligini to‘g“ri aniqlash imkonini beradi. Funksional yondashish asosida mehnat sarflari tarmoqlararo balans tuzilishining ekonometrik modellari qishloq hududida iqtisodiyot tarmoqlari o‘zaro bog‘langan beshta sektor: qishloq xo‘jaligi (dehqonchilik va chorvachilik); qayta ishslash sanoati (go‘sht-sut, meva sabzovot, nonvoychilik, oziq-ovqat, paxta tozalash, qurilish materiallari); xizmat ko‘rsatish (qishloq va suv qurilish, qishloq xo‘jaligi texnikasining moddiy-texnik ta’minoti va uni ta’mirlash, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo va umumiyligi ovqatlanish, qishloq xo‘jalik ilmiy-ekperimental institutlari, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, boshqaruv, moliya-kredit xizmatlari, ta’lim, madaniyat tarmoqlari); shaxsiy mehnat sektori (shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar, dehqon xo‘jaliklari) va boshqa tarmoqlar sektori orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mehnat sarflarining tarmoqlararo hisobot balansini tuzishda ta’kidlab o‘tilgan sektorlar istiqbol balansiga ham tegishlidir. Bunday turdagiligi balansni tuzish mahsulotlarni ishlab chiqish va taqsimlashning istiqboldagi tarmoqlararo balans axborotlari hamda mehnat sarflarining koeffitsientlari yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayonda mehnat sarflarining tarmoqlararo hisobot balans ma’lumotlaridan, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish bo‘yicha me’yorlardan, qishloq

hududi rivojlanashining makroiqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlaridan hamda mehnat resurslariga talab va taklifning belgilangan istiqbol rejalaridan keng foydalilaniladi.

1-bob bo'yicha xulosalar

1. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslarini tadqiq etish borasida qator ilmiy ishlar olib borilgan. Ammo, shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davorda, mehnat bozoridagi muammo va kamchiliklarni bugungi kundagi holatini, hududlardagi ko'rsatkichlarini statistik jihatdan tahlil qilish va ulardagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida aniq, tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqazo etmoqda

2. Olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari soni yillar davomida o'rtacha 2% ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida mehnat bozoriga har yili o'rtacha 200,0 (ming kishi)ga yaqin mehnat resurslari qo'shilib borayotganini bildiradi. Pirovardda bu mamlakatda yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi bandligiga ko'maklashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning yakuniy natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

3. Mehnat bozorining boshqa bozorlardan farq qiladigan tomoni shuki, unda oldi sotdi ob'ekti ish kuchidan yoki mehnatga bo'lgan qobiliyatdan foydalanish xuquqidir. Mehnat bozorining asosiy vazifalaridan biri mehnat resurslariga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini oqilona tartibga solish hisoblanadi. Chunki, mehnat bozori mehnat resurslarining talab va taklifi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy –iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

4. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi tarkibi, aholining iqtisodiy faol va nofaol qatlamlari orasidagi o'zgarishlarni statistik o'rganildi. Ish bilan band bo'lgan aholi sonini hududlar kesimida tadqiq qilindi. Mamlakatimizda mehnat bozorining ahamiyati va bu boradagi davlat dasturlari, amalga oshirilayotgan islohotlarining samarasi o'rganildi.

5. Mehnat bozorida fuqarolarning o‘zlari emas, balki mehnat qobiliyati oldisotdi qilinadi. Mehnat bozoridagi mehnat resurslariga talab va taklif uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Mehnat bozorining to‘g‘ri shakllanishi alohida korxonalarning va tegishli iqtisodiy sohalarning rivojida, shuningdek, hududiy va mamlakat miqyosidagi taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

6. Respublikamiz mintaqalarida mehnat resurslari mehnatda band bo‘lgan aholi sonini tavsiflaydi va mamlakat iqtisodiy salohiyatining zarur elementini ifodalaydi. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ekonometrik va statistik usullar, mehnat resurslari va uning tarkibiy qismlarini hisoblashda qo‘llaniladigan formulalar, kuzatish usullari, hisoblash yo‘nalishlari va mehnat bozorining istiqboldagi ko‘rsatkichlarini aniq va xar taraflama to‘liq tadqiq etishning statistik ahamiyati keng yoritilgan.

II BOB. TOSHKENT VILOYATI MEHNAT BOZORINI HOZIRGI HOLATINI STATISTIK TAHLILI

§2.1. Viloyatda mehnat bozori rivojlanishi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish tendensiyalarini statistik tahlili

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri aholi bandligini ta’minlash va uning turmush darajasini yuksaltirish hisoblanadi. Ushbu sohadagi munosabatlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllanish qonuniyatlari va rivojlanish tendensiyalarini miqdoriy tahlil qilishda zamonaviy fan-texnikaning samarali qurollaridan sanalgan statistik modellashtirish va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Statistik tahlillar natijasida mehnat bozoridagi muvozanatlikni va uni boshqarish, tartibga solish va muvofiqlashtirishda qo‘llanishi natijasida aholi bandligining haqiqiy holati, rivojlanish dinamikasi va yo‘nalishi, bozor sharoitidagi dolzarb muammo hisoblangan ishsizlik va uni bartaraf etish yuzasidan qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan aniq va ishonchli axborotlarga ega bo‘lish imkonini beradi.

“Eng muhimi, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xom-xayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma’qul ish uslubi tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi³¹”, deb takidladilar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev. Ma’lumki, mehnat bozori faoliyati mehnat resurslariga talab, uning taklifi, ish haqi, yollanma xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasidagi erkin raqobat kabi bozor kategoriyalari bilan bir qatorda hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati va kelgusidagi taraqqiyotini ifodalovchi ko‘rsatkichlariga ham bog‘liq. Shu boisdan ham, mehnat bozori va uning asosiy segmentlarini modellashtirishda mehnat bozoriga ta’sir etuvchi

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Pezidentining Oliy majlis va parlamentga navbatdagi murojaatnomasi. 29-dekabr 2020-yil. <https://president.uz>

omillar va shart-sharoitlarni hisobga olish lozim. Mazkur bozorni tadqiq qilishga yondashuv, viloyat miqyosida mehnat resurslari taklifi va unga bo‘lgan talabning miqdoriy parametrlarini statistik majmuaviy modellashtirishni taqozo etadi.

Mehnat bozori o‘z amaliy faoliyatida «Statistikaning umumiy nazariyası» ishlab chiqqan usullardan foydalanadi. Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, mehnat munosabatlari sohasidagi barcha hodisa va jarayonlar dinamikada hamda o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi.

Mehnat bozori zarur axborotni to‘plashda oldindan ishlab chiqilgan dasturlarga ko‘ra, belgilangan muddatda zarur axborotni olish imkonini beradigan statistik kuzatish usulidan foydalanadi. Bu axborotni olish uchun statistik kuzatishning barcha turlaridan foydalaniladi. Kuzatish usulini tanlash ko‘p sonli omillar: tadqiqot maqsadi; tadqiqot dasturi, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga bog‘liq.

Axborot olingandan so‘ng uning nazorati amalga oshiriladi. Bunda mehnat bozori nazoratning quyidagi turlaridan foydalanadi:

-statistik nazorat, bunda kuzatish ob’ektlari qamrovining to‘laligi, barcha zarur ustun va qatorlar to‘liq to‘ldirilganligi, zarur ko‘rsatkichlari: manzil, sana, imzo, muhrlarning borligi tekshiriladi;

-arifmetik nazorat, u miqdoriy bog‘langan ko‘rsatkichlarga asoslanadi (masalan, tashkil etuvchi elementlar yig‘indisidan katta bo‘la olmaydi);

-mantiqiy nazorat, u sifat bog‘lanishiga asoslanadi (masalan, 5-6 yoshli bola oliy ma’lumotga ega bo‘la olmaydi).

Olingen statistik axborotning sifati tekshirilgach, uni jamlash va guruhlash jarayoni amalga oshiriladi. Jamlash va guruhlashning axamiyatli tomoni kuzatuvchi tomonidan olingen ma’lumotlar, kuzatish dasturiga qo‘yilgan asosiy maqsadlarni hisobga olgan holda ularni alohida belgisi orqali sinf, tur, tip va bo‘limlarga ajratgan holda tadqiq etish imkonini berishi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Natijada guruhlash oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qanchalik

erishilganligi va gurihlardagi o‘zgarishlar qay darajada rivojlanganligi borasida aniq fikr-mulohazalar yuritiladi.

2.1-jadval

Toshkent viloyatiga mehnat qilish va boshqa maqsadda ko‘chib kelganlar soni va tarkibi dinamikasi (kishi)

| Yillar bo‘yicha | 2021 | | | 2022 | | | 2022 yil 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi | | | | | | | | |
|--------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|---|-------------|-------------|----------|-------------|-------------|----------|-------------|-------------|
| | Jami | Erkak | Ayol | Jami | Erkak | Ayol | Jami | | Erkak | | Ayol | | | | |
| | | | | | | | (+;-) | (%) | (+;-) | (%) | (+;-) | (%) | | | |
| Toshkent viloyati | 35265 | 14002 | 21263 | 27350 | 11436 | 15914 | - | 7915 | 77,6 | - | 2566 | 81,7 | - | 5349 | 74,8 |
| Nurafshon sh. | 1003 | 381 | 622 | 639 | 255 | 384 | -364 | 63,7 | -126 | 66,9 | -238 | 61,7 | | | |
| Olmaliq sh. | 1422 | 557 | 865 | 1470 | 606 | 864 | 48 | 103,4 | 49 | 108,8 | -1 | 99,9 | | | |
| Angren sh. | 1637 | 670 | 967 | 976 | 373 | 603 | -661 | 59,6 | -297 | 55,7 | -364 | 62,4 | | | |
| Bekobod sh. | 841 | 255 | 586 | 670 | 235 | 435 | -171 | 79,7 | -20 | 92,2 | -151 | 74,2 | | | |
| Ohangapon sh. | 953 | 395 | 558 | 775 | 320 | 455 | -178 | 81,3 | -75 | 81,0 | -103 | 81,5 | | | |
| Chipchiq sh. | 3433 | 1512 | 1921 | 2604 | 1133 | 1471 | -829 | 75,9 | -379 | 74,9 | -450 | 76,6 | | | |
| Yangiyo‘l sh. | 1489 | 562 | 927 | 846 | 351 | 495 | -643 | 56,8 | -211 | 62,5 | -432 | 53,4 | | | |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | | | | | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 411 | 100 | 311 | 346 | 88 | 258 | -65 | 84,2 | -12 | 88,0 | -53 | 83,0 | | | |
| Ohangaron | 793 | 268 | 525 | 869 | 343 | 526 | 76 | 109,6 | 75 | 128,0 | 1 | 100,2 | | | |
| Bekobod | 681 | 209 | 472 | 466 | 140 | 326 | -215 | 68,4 | -69 | 67,0 | -146 | 69,1 | | | |
| Bo‘stonliq | 870 | 321 | 549 | 999 | 367 | 632 | 129 | 114,8 | 46 | 114,3 | 83 | 115,1 | | | |
| Bo‘ka | 762 | 271 | 491 | 391 | 144 | 247 | -371 | 51,3 | -127 | 53,1 | -244 | 50,3 | | | |
| Quyichirchiq | 1062 | 407 | 655 | 836 | 323 | 513 | -226 | 78,7 | -84 | 79,4 | -142 | 78,3 | | | |
| Zangiota | 3084 | 1263 | 1821 | 2721 | 1235 | 1486 | -363 | 88,2 | -28 | 97,8 | -335 | 81,6 | | | |
| Yuqorichirchiq | 3275 | 1357 | 1918 | 1896 | 846 | 1050 | -1379 | 57,9 | -511 | 62,3 | -868 | 54,7 | | | |
| Qibray | 3639 | 1584 | 2055 | 2665 | 1129 | 1536 | -974 | 73,2 | -455 | 71,3 | -519 | 74,7 | | | |
| Parkent | 373 | 105 | 268 | 410 | 164 | 246 | 37 | 109,9 | 59 | 156,2 | -22 | 91,8 | | | |
| Piskent | 730 | 297 | 433 | 461 | 198 | 263 | -269 | 63,2 | -99 | 66,7 | -170 | 60,7 | | | |
| O‘rtachirchiq | 2070 | 832 | 1238 | 1519 | 603 | 916 | -551 | 73,4 | -229 | 72,5 | -322 | 74,0 | | | |
| Chinoz | 1377 | 427 | 950 | 980 | 391 | 589 | -397 | 71,2 | -36 | 91,6 | -361 | 62,0 | | | |
| Yangiyo‘l | 2441 | 1048 | 1393 | 1991 | 921 | 1070 | -450 | 81,6 | -127 | 87,9 | -323 | 76,8 | | | |
| Toshkent | 2919 | 1181 | 1738 | 2820 | 1271 | 1549 | -99 | 96,6 | 90 | 107,6 | -189 | 89,1 | | | |

Manba: Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.1-jadval ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Toshkent viloyati aholisi o‘rganilayotgan davrda ya’ni 2010-yil 2585,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa shu davrda aholining 50,01 % ni shahar aholisi 49,99 % ni qishloq aholisi tashkil etgan. Qolaversa ayollar soni erkaklar soniga nisbatan 0,09 % (1,1 ming kishi) ga ustinlik qilgan. Ushbu jadval orqali aytishimiz mumkinki, yillar davomida viloyat aholisi soni ham viloyatdagi shaharlar aholisi va erkaklar soni xam o‘rganilayotgan davr mobaynida o‘sib borgan. 2022-yilning dastlabki ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, viloyatning doimiy aholisi 2992,6 (ming kishi) ni

tashkil etgani holda shahar aholisi 1463 ((49,7%) (ming kishi) ni tashkil etib, qishloq aholisiga nisbatan - 15,6 (ming kishi) ga kam ekanligini ko'rsatadi. Ammo 2022-yilga kelib, viloyatda ayollar soniga nisbatan erkaklar soni 11,8 (ming kishi) ga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda viloyatda olib borilayotgan islohotlar viloyat aholisining umumiy statistik ko'rsatkichlariga o'zining ijobiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda.

Statistik ma'lumotlarni jamlash oldindan tuzilgan dastur bo'yicha guruhiy va umumiy yakunlarni olishdir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, guruhlash o'rganilayotgan birliklar majmuini o'rganilayotgan belgilariga muvofiq, miqdoriy va sifatiy guruhlarga taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, miqdoriy guruhlash miqdoriy ifoda (masalan, iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlar soni, ishsizlar soni, daromad hajmi va boshqalar bo'yicha guruhlash)ga ega bo'lgan belgilar (ko'rsatkichlar)ga asoslanadi, sifatiy guruhlash asosida esa miqdoriy ifodaga ega bo'lishi mumkin bo'limgan ko'rsatkichlar (masalan, mehnatga layoqatli aholi sonining jinsi va yoshi hamda ijtimoiy-kasbiy guruhlari va h.k.) yotadi.

2.2-jadval

Toshkent viloyati mehnat resurslari tarkibining o'zgarish dinamikasi (ming kishi)³²

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022 yilda 2017 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|-------------------------|-----------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|---|-------|
| | | | | | | | | (+;-) | (%) |
| Doimiy aholi soni | ming kishi | 2829,3 | 2861,2 | 2898,5 | 2941,9 | 2975,9 | 2992,6 | 163,3 | 105,8 |
| Mehnat resurslari | ming kishi | 1624,1 | 1627,2 | 1607,3 | 1615,4 | 1627 | 1696,8 | 72,7 | 104,5 |
| Band bo'lgan aholi soni | ming kishi | 1289,6 | 1227,7 | 1232,9 | 1177,2 | 1246,9 | 1206,7 | -82,9 | 93,6 |
| Ishsizlik darajasi | % da | 5,2 | 9 | 8,9 | 10,5 | 9,4 | 8,8 | 3,6 | 169,2 |

Toshkent viloyati doimiy aholisi soni 2017-yilda 2829,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022-yil 2992,6 ming kishini tashkil etib 163,3

³² Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ming kishiga yoki 5,8 % ga o'sgan, mehnat resurslari soni esa 2022-yil 2017-yilga nisbatan 72,7 ming kishiga yoki 4,5% ga o'sgan, band bo'lgan aholi esa 82,9 ming kishiga yoki 6,4 % ga kamayganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. ishsizlik darajasi esa 3,6 % ga yoki 2017-yilga nisbatan 69,2 % ortganligini ko'rishimiz mumkin. Band bo'lgan aholi sonining kamayishi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki 2020-yildan pasayish ko'zatilgan bo'lib, bu albatta SOVID-2019 pandemiyasi bilan bog'liq, ishsizlik darajasining ortishi esa O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori ko'rsatkichlarini hisoblash tartibida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) standartlarini joriy qilishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" karori³³da ko'rsatilgan o'zgarishlar natijasida ishsizlik ko'rsatkichlarida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lgan. Mehnat bozori bo'yicha axborotni jamlash va guruhash keyingi tahlil uchun boshlang'ich material xizmatini o'taydigan ko'rsatkichlarning ma'lum tizimiga ega bo'lish imkonini beradi. Bunda ham statistika umumiylaz nazarasi ishlab chiqadigan usullardan foydalilanadi.

Sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarning hajm va darajalarini ifodalaydigan mutlaq ko'rsatkichlar bilan birga quyidagilarga kiradigan nisbiy kattaliklar ham hisoblanadi:

- dinamikaning nisbiy kattaligi hodisa vaqtidagi o'zgarish yo'nalishini ifodalaydi va bu o'zgarish tezligini o'lchaydi (masalan, o'sish va qo'shimcha o'sish sur'ati);
- tuzilmaning nisbiy kattaligi o'rganilayotgan ko'rsatkich umumiylaz hajmda har bir komponent (tarkibiy qismi)ning ulushi yoki salmog'ini ifodalaydi (masalan, iqtisodiy faol aholi sonida iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining o'sishi);

³³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 22 dekabrdagi "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida" karori

- qiyoslashning nisbiy kattaligi turli ob'ektlarga tegishli bo'lgan bir va ayni o'sha davrdagi ikki yoki undan ortiq bir nomdagi kattaliklar nisbatini ko'rsatadi (masalan, ishsizlarning jahon mamlakatlari bo'yicha soni);

- muvofiqlashtirish (koordinasiya)ning nisbiy kattaliklari, bir va o'sha yig'indining turli elementlari nisbatini ifodalaydi (masalan, shu mamlakatda iqtisodiyotda band bo'lgan erkaklar va ayollar sonining nisbati);

- intensivlikning nisbiy kattaliklari, u berilgan hodisaning ma'lum muhitda tarqalish darajasini aks ettiradi (masalan, aholi zichligi ko'rsatkichi).

Mehnat sohasidagi hodisa va jarayonlarni ifodalashda o'rtacha kattaliklar hisob-kitobi juda muhim hisoblanadi. U o'rganilayotgan yig'indining (masalan, xodimlar ish haqining o'rtacha darajasi) barcha birliklar uchun xos bo'lgan, ko'rib chiqilayotgan umumiy belgining qiymatini aniqlash imkonini beradi.

Variasiya ko'rsatkichlari hisob-kitobi o'rganilayotgan belgining o'zgaruvchanlik darajasini aniqlaydi, ya'ni berilgan yig'indining berilgan belgi munosabatida o'zgaruvchanligini ifodalaydi. Variasiyalarni o'rganishda disspersiya va o'rtacha kvadratik tafovut muhim statistik ko'rsatkich hisoblanadi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida ta'kidlash mumkinki, 2022-yilning yanvar-dekabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2992,6 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 52,9 ming kishiga yoki 1,8 % ga ko'paydi. Shundan 1495,8 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 49,98 %) va 1 496,8 ming kishi - qishloq joylarida (50,02 %) istiqomat qiladi.

Demak, viloyatning xududiy birliklar doimiy aholisidan kelib chiqqan holda va rivojlanishdan ortda qolayotgan tumanlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tezkor tadbirlar rejasи ishlab chiqilishi, hududlarning iqtisodiy salohiyatini hisobga olib, ularni aniq maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar yordamida aholi bandligiga ko'maklashish va turmush farovonlilini oshirish, kambag'allikni qisqartirish uchun keng qamrovli ishlar amalga oshirish bugungi kunning eng asosiy va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Aholining demografik ko'rsatkichlari yuqori hududlarda mavjud barcha infratuzulmalarni rivojlantirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va tumanlar salohiyatidan kelib chiqib, erkin iqtisodiy

zonalar tashkil etish, turizmni rivojlantirish, yirik ishlab chiqarish korxonalarining bo‘limlarini ochish bu xudularda aholi bandligini ta’minlashga katta ta’sir o‘tkazadi.

2.3-jadval

Toshkent viloyati shahar va tumanlari kesimida mehnatga layoqatli yoshdagি mehnatga layoqatli aholi soni³⁴

| Yillar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 yil 2018 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|--------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---|-------------|
| | | | | | (+;-) | (%) |
| Toshkent viloyati | 1613,7 | 1597,2 | 1604,6 | 1608,4 | -5,3 | 99,7 |
| <i>shaharlar</i> | | | | | | |
| Olmaliq | 98,7 | 98,8 | 95,3 | 97,3 | -1,4 | 98,6 |
| Angren | 97 | 97,3 | 101,9 | 102,8 | 5,8 | 106 |
| Bekobod | 54,5 | 53,7 | 53,6 | 55,1 | 0,6 | 101,1 |
| Chirchiq | 90,5 | 90,9 | 91,5 | 96,1 | 5,6 | 106,2 |
| Nurafshon | 27,3 | 37,6 | 39,7 | 39,2 | 11,9 | 143,6 |
| Yangiyo‘l | 31,3 | 30,3 | 33,1 | 32,4 | 1,1 | 103,5 |
| Ohangapon | 19,5 | 20,1 | 20,8 | 23,4 | 3,9 | 120 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 57 | 57,1 | 54,6 | 57,9 | 0,9 | 101,6 |
| Ohangaron | 49,7 | 53,4 | 47,6 | 47,8 | -1,9 | 96,2 |
| Bekobod | 80,9 | 84,5 | 77,8 | 79,3 | -1,6 | 98 |
| Bo‘stonliq | 92,7 | 90,7 | 91,4 | 90,6 | -2,1 | 97,7 |
| Bo‘ka | 67,3 | 66,3 | 66,3 | 67,9 | 0,6 | 100,9 |
| Zangiota | 107,5 | 99,5 | 100,8 | 103 | -4,5 | 95,8 |
| Qibray | 111,9 | 104,2 | 102,3 | 106,8 | -5,1 | 95,4 |
| Quyi chirchiq | 56,4 | 52,2 | 58,1 | 57,1 | 0,7 | 101,2 |
| Parkent | 82,8 | 80,9 | 83,4 | 83,2 | 0,4 | 100,5 |
| Piskent | 56,8 | 55,1 | 57,2 | 55,1 | -1,7 | 97 |
| O‘rta chirchiq | 79,3 | 73,9 | 78,5 | 72,7 | -6,6 | 91,7 |
| Chinoz | 70,5 | 69 | 71,1 | 69,3 | -1,2 | 98,3 |
| Yuqori chirchiq | 71,4 | 67,9 | 70,3 | 70,7 | -0,7 | 99 |
| Yangiyo‘l | 112,3 | 109,5 | 111 | 105,9 | -6,4 | 94,3 |
| Toshkent | 98,5 | 101,2 | 98,3 | 94,8 | -3,7 | 96,2 |

2.3-jadval ma’lumotlar asosdida quydagicha izox berishimiz mumkin bo‘ladi, mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi soni shahar tumanlar kesimida statistik ma’lumotlarga asosan, 2018-yilda Toshkent viloyatida 1613,7 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilning mos davriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich 1608,4 ming kishini tashil etib, -5,3 ming kishiga yoki 1,4 % kamaygan. Toshkent viloyat hududlari ichida eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi

³⁴ Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. (2021 yil holatiga (ming kishi))

Nurafshon shahriga to‘g‘ri keklib, 11,9 ming kishiga yoki 43,6 % o‘sigan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich O‘rtachirchiq tumaniga -1,2 ming kishiga yoki 8,3 % ga kamyish bilan to‘g‘ri kelmoqda. Mehnat bozorida bandlik va ishsizlik ko‘rsatkichlarining boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro aloqasi ya’ni korrelyatsiyasi, yalpi ichki mahsulot, asosiy kapital, investitsiyalar, tovar va xizmatlar eksporti, importi va boshqalar ko‘rsatkichlar bilan aloqasini miqdoriy baholash imkonini beradi. Regressiya ko‘rsatkichlari natijasi faktorli ko‘rsatkichga (masalan, mehnat unumdorligi 1% oshganda ish haqqi necha % ga o‘sishi) bog‘liqligining miqdoriy bahosiga ega bo‘lish imkonini beradi.

2.4-jadval

Toshkent viloyati shahar va tumanlari kesimida band aholi soni to‘g‘risida ma’lumot (ming kishi)³⁵.

| Yillar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 yil 2018 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|-------------------|--------|--------|--------|--------|--|-------|
| | | | | | (+;-) | (%) |
| Toshkent viloyati | 1227,7 | 1232,9 | 1195,6 | 1222,1 | -5,6 | 99,5 |
| <i>Shaharlar:</i> | | | | | | |
| Olmaliq sh. | 80,8 | 81,1 | 75,4 | 75,6 | -5,2 | 93,6 |
| Angren sh. | 74,4 | 74,5 | 76,3 | 78,9 | 4,5 | 106 |
| Bekobod sh. | 42,6 | 41,5 | 40,7 | 42,6 | 0 | 100 |
| Chirchiq sh. | 72,6 | 72,6 | 71,4 | 66,2 | -6,4 | 91,2 |
| Nurafshon sh. | 20,6 | 31,4 | 32,6 | 32,5 | 11,9 | 157,8 |
| Yangiyo‘l sh. | 22,3 | 23,5 | 24,8 | 24,3 | 2 | 109 |
| Ohangapon sh. | 14,2 | 15,7 | 15,8 | 18,5 | 4,3 | 130,3 |
| <i>Tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 42,9 | 43,5 | 39 | 44 | 1,1 | 102,6 |
| Ohangaron | 36,5 | 41,3 | 33,7 | 36 | -0,5 | 98,6 |
| Bekobod | 60,7 | 63,7 | 55,1 | 59,6 | -1,1 | 98,2 |
| Bo‘stonliq | 72,8 | 70,9 | 68 | 70,8 | -2 | 97,3 |
| Bo‘ka | 49,7 | 50,5 | 47,5 | 50,9 | 1,2 | 102,4 |
| Zangiota | 83,2 | 76,9 | 74,4 | 80,9 | -2,3 | 97,2 |
| Qibray | 87,8 | 81,2 | 76,2 | 79,9 | -7,9 | 91 |
| Quyichirchiq | 40,8 | 38,1 | 42,4 | 43,2 | 2,4 | 105,9 |
| Parkent | 61,2 | 61,5 | 61,7 | 62 | 0,8 | 101,3 |
| Pskent | 41,2 | 42,8 | 43 | 42,6 | 1,4 | 103,4 |
| O‘rtachirchiq | 58 | 54,7 | 57,8 | 53,9 | -4,1 | 92,9 |
| Chinoz | 53,1 | 52,6 | 51,6 | 52,4 | -0,7 | 98,7 |
| Yuqorichirchiq | 54,2 | 51,4 | 51,6 | 53,7 | -0,5 | 99,1 |
| Yangiyo‘l | 83,8 | 84,4 | 82,5 | 80,2 | -3,6 | 95,7 |
| Toshkent | 74,3 | 79,1 | 74,1 | 73,4 | -0,9 | 98,8 |

2.3-jadvaldan farqli ravshda 2.4-jadvalda Toshkent viloyatida band aholi soni shahar va tumanlar kesimida 2021-yil holatiga ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib,

³⁵ Toshkent viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. 2021 yil holatiga

ular orqali 2018-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan oraliqda Toshkent viloyatining shahar va tumanlarida band aholi soni qay darajada o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. 2018-yilda Toshkent viloyatida band aholi soni 1227,7 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa 2021-yilda 5,6 ming kishiga yoki 0,5 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Toshkent viloyatining shahar va tumanlarida band aholi soni eng ko‘p o‘sgan shahar Nurafshon shahriga to‘g‘ri kelib, 11,9 ming kishiga yoki 57,8 % ga ko‘paygan. Keyingi o‘rinlarda Ohangaron shahriga to‘g‘ri kelib 4,3 ming kishiga yoki 30,3 % ga o‘sganligini ko‘rsatadi. Yangiyo‘l shahrida esa 2 ming kishiga 9% ga ortgan. Shahar va tumanlar kesimida kamayish ko‘rsatkichlari esa Qibray tumani 7,9 ming kishiga yoki 9 % ga kamaygan, Chirchiq shahrida esa 6,4 ming kishiga yoki 8,8 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Band aholining kamayishi ham o‘z navbatida COVID-2019 pandemiyasi va uning sal’biy ta’sirlari natijasida viloyatdagi korxona va tashkilotlarning faoliyati qisqarganligi keyinchalik esa bu ko‘rsatkichlar biroz ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Mehnat bozori o‘rganilayotgan yig‘indi birliklarni bir necha belgilari bo‘yicha tasniflashni amalga oshirishda bu birliklarni (masalan, mamlakatlar yoki iqtisodiy mintaqalar) har bir birlik o‘rtacha guruhlashga yaqin ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan (masalan, mintaqalarning bandlik darajasi, ish haqi va aholi daromadlari bo‘yicha guruhlash), nisbatan bir xil guruhlarga birlashtirish imkonini beradigan klasterli tahlildan foydalanadi. Statistik axborotni to‘plash, ishlov berish va tahlil qilish nitijalari odatda statistik jadval va grafiklar (diagramma va statistik kartalar) tuzishning umumiyligi tamoyillarini ishlab chiqadi. Ulardan mehnat statistikasi ko‘rsatkichlari tahlilining oraliq yoki pirovard yakunlarini bayon qilishda foydalanadi.

XXI asrdan boshlab jahon mamlakatlarida ekologik iqtisodiyotni rivojlanishi bilan bog‘liq qarashlar va fikr-mulohazalar negizida “yashil iqtisodiyot”, “yashil bandlik”, “yashil ish joyi”, “yashil ish o‘rni” kabi tushunchalar paydo bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki bugungi kunda dunyo mamlakatlari o‘zi hoxlamagan tarzda ekologik muammolar bilan kurashmoqda va imkon qadar bu muammolarni iqtisodiyotga va aholi turmush darajasiga ta’sirlarini kamaytirish yo‘llarini

izlamoqda. Ta'kidlash mumkinki, bugungi kun zamonaviy mehnat bozorining oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu “yashil” iqtisodiyotga o'tish davrida “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida aholini samarali bandligiga erishish, iqtisodiyotning barcha sohalarini tabiatga, atrof-muxitga salbiy tasirlarini maksimal darajada kamaytirish va bu yo'lda ekologik vaziyatni yaxshilash uchun xizmat qiladigan yashil ish o'rinalarini joriy etishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Bu borada qator rivojlangan davlatlarda ekologik dasturlar hamda chora-tadbirlar paketlarini ishlab chiqishgan. Ekologik muammolarni iqtisodiyotimizga ta'sirini kamaytirish, aholining tabiiy resurslardan oqilona va uzlucksiz foydalanishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarori dasturulamal bo'lib hizmat qilmoqda. Ushbu qarorda 2030-yilgacha amalga amalga oshirish uchun qator vazifalar belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagicha:

- issiqhona gazlarining ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35% ga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiyligi xajmining 30%idan ko'proqqa etkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20% ga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30%ga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln get targacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 mln ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiyligi sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30%dan ortiqroqqa kengaytirish;

- qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darajasini 65%dan oshirish va boshqalar³⁶ kabi aniq vazifalar belgilab olingan.

Mamlakatimiz aholisi yillar davomida o'sib borayotganligi, mehnat resurslari sonining ham shiddat bilan o'sib borayotganligini ko'rsatadi. "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida o'sib borayotgan mehnat resurslarni ham cheklangan resurslardan samarali foydalangan holda ish bilan bandligini ta'minlash, doimiy daromad mabaalarini yaratish hamda aholining "yashil" iqtisodiyot borasidagi bilimlarini oshirish muhim va dolzarb hisoblanadi. Toshkent viloyati aholisi o'rtasida kichik bir kuzatuv jarayoni shuni ko'rsatadiki, viloyat aholisining ko'p sonli qismi "yashil iqtisodiyot", "yashil bandlik", "yashil ish joyi", "yashil ish o'rni" kabi tushunchalardan juda past darajada habardordir. Toshkent viloyati aholisiga yoshlar kesimi: 16 yoshdan 18 yoshgacha, 19 yoshdan 25 yoshgacha, 25 yoshdan 35 yoshgacha, 35 yoshdan 60 yoshgacha va 60 dan yuqori bo'lgan 5 guruhga ajratgan holda yashil iqtisodiyot tushunchalari to'g'risida quyidagi savollar berildi:

- iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz va iqtisodiyotning cheklanganlik muammosi nima;
- "yashil" iqtisodiyot va uning bugungi turmush-tarzimizga ta'siri qanday deb o'ylasiz;
- "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida kasbingizni qanday himoya qиласиз, agarda kasbingizni yo'qotsangiz qaysi iqtisodiy faoliyat turi bilan shug'ullangan bo'lar edingiz;
- bilamizki Toshkent viloyati aholisining aksariyat qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan holda o'zini-o'zi band qiladi. Agar mana shu faoliyat turi bilan shug'ullanishingizda tabiiy resurslar bilan bog'liq muammolarga duch kelsangiz (suv taqchilligi, elektr enerigiya, tabiiy gaz, havoning ifloslanishi) qanday yo'l tutasiz kabi bir nechta savollar natijasida olingan hulosalarga tayanib

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 02.12.2022 yildagi «2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-436-sonli qarori.

Toshkent viloyatida amalga oshirish zarur bo‘lgan quyidagi fikrlarni ilgari surishimiz mumkin bo‘ladi;

-avvalambor, Toshkent viloyati aholisining iqtisodiy bilim darajasini oshirish, qolaversa ekologik madaniyatini shakillantirish;

-tabiiy resurslardan samarali foydalanishi to‘g‘risida xar bir maxalla kesimida seminar-treninglar o‘tkazish va mintaqa yoshlarini ekotexnologiyalar sohasidagi bilimlarini oshirish;


-aholiga quyosh panellari va shamol vintelyatorlari o‘rnatish uchun imtiyozli kreditlar ajratish hamda ularning bu jarayondan nafliylik darajasini tushuntirish;

-jismoniy shaxslar tomonidan o‘rnatilgan ekotexnologiyalar tomonidan olinadigan daromad manbaalarini qonuniylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

-organik dehqonchilik tushunchalarini oshirish, fermer xo‘jaliklaridan ajralgan holda dehqonchilik, polizchilik va sobzavotchilik kabi faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar qatlamiga ekin maydonlarini tomchilab sug‘orish texnologiyalarini joriy qilishlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va imtiyozli kreditlar ajratish uchun tegishli muassasalar tomonidan dastur ishlab chiqish kabi takliflarni ilgari surishimiz mumkin bo‘ladi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi o‘zgarishlar nafaqat aholi bandligining umumiyligi darajasida va uning tarkibidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi, balki ish bilan bandlikning sifat tomonlariga ham ta’sir qilishi mumkin. Yani, yangi texnika-texnologiyalar, jarayonlar, amaliyotlarning vujudga kelishi natijasida ishning mazmun-mohiyati va kasblarning funksiyalari, mehnatga yaratilgan shart-sharoitlar o‘zgarishi kutilmoqda va ayrim jihatlarda kuzatilmoqda xam. Bu jarayonlar orqali yaratilayotgan ish joylari nafaqat yashil, balki munosib bo‘lishi, ya’ni bandlik samarali bo‘lishi, tegishli daromad manbai va ijtimoiy himoyani ta’minlashi, mehnat resurslarining huquqlari himoyalanishi va ularning sog‘lig‘i hamda hayotiga aloqador qarorlar qabul qilishda mehnat resurslarining hohish-istiklari inobatga olinishi darkor.

Demak, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida ham aniq va funksional vazifalarni belgilab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.




2.2-rasm. Iqtisodiyotni “yashil” iqtisodiyotga o‘tkazish tamoyillari³⁷

Demak, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda aniq vazifalarni belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham “yashil” iqtisodiyatning asosiy vazifasi bu mehnat bozorini rivojlantirish uchun qulay va xavsiz shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bunda esa davlat va korxona vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va kamchiliklarni davlatchilik aosida xal qilinsa, uning samarali amal qilinishi korxonalar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Mehnat bozori mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlar tendensiyalarini o‘rganish maqsadida dinamik qatorlar tahlili usulidan foydalanadi. Bunday tahlil natijasida aniqlangan mehnat bozori ko‘rsatkichlarining o‘sish dinamikasidagi tendensiyalar ularning interpolyatsiyasi (tadqiq qilinayotgan

³⁷ Зеленая занятость и рынок труда в условиях формирования экологически ориентированной экономики. Е. А. Войкина, И. М. Потравный. Российский экономический университет им. Г. В. Плеханова, Российская Федерация, 117997, Москва, Стремянный переулок, 227 ст.

dinamika qatorlari ichida noma'lum darajalarni topish) va trend ekstropolyatsiyasi (bashorat qilish) uchun boshlang'ich material xizmatini o'taydi. Mehnat bozorida bir yo'la tadqiqotlar o'rtasidagi davrda (aholini ro'yhatga olish davrda) oraliq ko'rsatkichlarga ega bo'lish imkonini beradigan balans usuli alohida o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, u mehnat potensialining mavjudligi va undan foydalanish (jumladan, band aholi balansi va undan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha foydalanish)ni ifodalaydi. Balans usuli mavjud mehnatga layoqatli aholi va undan foydalanish orasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.



2.3-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tish davrida 2026-yilgacha sanoat tarmoqlarida band bo'lganlar hisobidan ortishi kutilayotgan ish o'rirlari³⁸

Mintaqa mehnat bozorida amalga oshirilgan statistik tadqiqotlar va hisob-kitoblar natijasijda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish talablariga to'liq rioya qilinishi natijasida 2030-yilga qadar 6 mln ortiq ish yoq bo'lib ketishi hamda 9 mlndan ortiq yangi ish o'rirlar yaratilishi kutilmoqda. Yuqoridagi jadvalda esa 2026-yilga kelib sa'noat

³⁸ <http://evrostat.org> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

tarmoqlarida paydo bo‘lishi kutilayotgan kasblar (raqamlarda) ko‘rsatilgan. Eng ko‘p qurilish sohasiga tegishli bo‘lib 18,3 ming ta, eng kam esa san’at sohasiga tegishli bo‘lib 1,0 ming ta yangi ish o‘rnlari paydo bo‘lishi kutilmoqda.

Taqidlاب o‘tish kerakki, iqtisodiyotni “yashil” iqtisodiyotga o‘tkazish jarayonida yaratiladigan barcha ish o‘rnlari soni investitsiyalar va talab hajmiga, bandlik elastikligiga va savdo ta’siriga bog‘liq. Yalpi hududiy mahsulot va yo‘qotishlar yig‘indisi ish joyini o‘zgartirishga majbur bo‘lgan ishchilar soniga teng. Iqtisodiyotni “yashil iqtisodiyot” talablariga moslashtirish jarayoni aholi bandligiga ta’siri ijobiy bo‘ladimi yoki sal’biy, degan savolga javob ushbu ish oqimlari va davlatning aralashmasi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarga bog‘liq hisoblanadi.

Bundan tashqari, aholi bandligini ta’minalash sohasidagi natijalarni belgilovchi muhim omil bu qishloq xo‘jaligining moslashuvchan tuzilmaga ega ekanligi hisoblanadi. Tabiiy resurslarni yuqori darajada iste’mol qilishi va tabiatning, atrof-muhit ifloslanishi tufayli sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish faoliyati bir muncha zaiflashishi va shuning uchun ham iqtisodiyot tarmoqlarini tabiiy resurslar va iqlim o‘zgarishlariga bog‘liq deb hisoblashimiz mumkin bo‘ladi. Mehnat bozorida “yashil” iqtisodiyotga moslashuvchan sohalar sifatida energetika, qishloq, baliqchilik, o‘rmon xo‘jaligi, tabiiy resurslarni talab qiluvchi ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishslash, qurilish sanoati va transport sanoatini kiritishimiz mumkin bo‘ladi. Bu tarmoqlarda faoliyat yurituvchilar soni nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda ham ishchi kuchining yarmini tashkil qiladi. Korxonalar miqyosida ish joylarini yo‘qotish va atrof-muhitni yaxshilash xarajatlari bir qismini mehnatning samaradorligini oshirish yo‘li orqali qoplanishi mumkin bo‘ladi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jihatdan narxlar va texnologiyalarning hozirgi darajasidan “yashil” iqtisodiyotga to‘liq o‘tilgan holatda sezilarli samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarida nafaqat bandlikning umumiy sonida va uning tarkibidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi, balki bandlik sifatiga ham ta’sir qilishi mumkin.

2.5-jadval

“Yashil” iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyat turlari va ularga mos keladigan kasblar tahlili³⁹

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha | Kasblar | Topening yo‘nalishi mutaxaccilapi |
|---|---|--|
| Yashil sanoat | mashina operatori, kompyuter muhandisi, kimyo muhandisi, elektrotexnika muhandisi, mexanik muhandis, texnologik muhandis, mikrobiolog, dasturiy ta’milot ishlab chiqaruvchisi, atrof-muhit muhandisi | Iqtisodiyot, huquq, biologiya, kimyo, muhandislik, axborot texnologiyalari |
| Yashil bino | Elektrchi, duradgor, tom yopuvchi, konditsioner va ventilyatsiya tizimini o‘rnatuvchi, izolyator, qurilish menejeri, bino nazorati inspektor, montajchi, qurilish ishchisi, qurilish mashinasi haydovchisi, plastik oyna o‘rnatuvchi, energiya tejovchi isitish tizimini o‘rnatuvchi, sovutish tizimini o‘rnatuvchi | Muhandislik fanlari, davlat va kommunal boshqaruv, qurilish |
| Shamol kuchi | Atrof-muhit bo‘yicha mutaxassis, metall ishchi, elektr montajchi, qurilish ishchisi, ishlab chiqarish menejeri, shamol turbinasi o‘rnatuvchisi | Energiya, ekologiya |
| Quyosh energiyasi | Atrof-muhit bo‘yicha mutaxassis, elektromontyor, mexanik, payvandchi, metall ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi, quyosh batareyasi va akkumulyator o‘rnatuvchisi, quyosh batareyasi va batareya o‘rnatish yordamchisi, tom yopish ustasi | Energiya, ekologiya |
| Bioyoqilg‘i ishlab chiqarish | Kimyogar, kimyo muhandisi, ishlab chiqarish texnologi, bioyoqilg‘i uskunalar bo‘yicha mutaxassis | Biologiya, kimyo, biotexnologiya |
| Yashil transport va transport infratuzilmasi | Muhandis, mexanik, muhandis-konstruktur, urbanist (hududiy rivojlanish bo‘yicha mutaxassis), eko-avtomobilarni ta’mirlash ustasi | Muhandislik fanlari |
| Organik dehqonchilik | Agronom, qishloq xo‘jaligi texnologi, meliorator, zootexnik, zooinjener, chorvachilik kompleksi va mexanizasiyalashgan ferma operatori, mashina sog‘ish operatori, veterinar, o‘simgilikshunos | Qishloq xo‘jaligi, er tuzish |
| Chiqindilarni qayta ishlash, chiqindilarni qayta ishlash, axlatni yo‘q qilish | Ekolog, atrof-muhit muhandisi, mexanik, chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha mutaxassis, chiqindilarni olib tashlash va utilizasiya qilish bo‘yicha mutaxassis, chiqindilarni qayta ishlash uskunalarini loyihalash, ishlab chiqish va ulardan foydalanish bo‘yicha mutaxassis | Ekologiya, iqtisodiyot va huquq, biotexnologiya, menejment, loyihalarni boshqarish |
| Uy-joy communal xo‘jaligi boshqarmasi | Texnologik muhandis, chilangar, texnologik quvurlarni o‘rnatuvchi, muhandis-konstruktur | Muhandislik fanlari, davlat va shahar boshqaruvi, atrof-muhitni boshqarish |

2.5-jadval ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, bugungi kunda davlat va nodavlat ta’lim muassasalari tomonidan o‘qitiladigan ayrim mutaxassisliklarni qamrov darajasini bugungi zamonaviy iqtisodiyot talablari darajasiga olib chiqish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan “yashil kasblar”, “yashil ish o‘rinlari” va “yashil bandlik” talablari darajasida amalga oshirish zarurati tug‘ulmoqda.

Toshkent viloyatida bugungi kunda “yashil” iqtisodiyot talablariga mos keluvchi faoliyat turlaridan “quyosh energiyasi”, “shamol ventelyatorlari”, “musurni qayta ishlash va ahlatni yoq qilish” kabi iqtisodiy faoliyat turlari rivojlanmoqda va faoliyatları asta-sekinlik bilan kengaytirib borilmoqda.

³⁹ Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.6-jadval

Toshkent viloyatida mavjud bo‘lgan “yashil” iqtisodiyot talablapiga mos iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ma’lumot⁴⁰

| Iqtisodiy faoliyat turlari | Chiqib ketishi kutilayotgan kasblar | Kirib kelishi kutilayotgan kasblar |
|---|--|---|
| Quyosh elektor stansiyalari va quyosh panellarini ishlab chiqarish | <p>1) elektr energiyasining ayrim toifadagi xodimlari, 2) elektr hisoblagich ishlab chiqaruvchi xodimlar, 3) aholini elektrdan qonuniy foydalaniishi nazoratchisi faoliyatida o‘zgarishlar 4) an-anaviy elektr trubinalari ishlab chiqaruvchi muxandis, 5) an-anaviy elektor hisoblagich nazoratchisi,</p> | <p>1) quyosh panelari ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi xodimlar, 2) quyosh panelarini o‘rnatuvchi xodimlar, 3) quyosh panelarini o‘rnatuvchi mutaxassis, 4) elektromontyor, 5) mexanik, 6) metall ishlab chiqaruvchi va ta’mirlovchi, 7) quyosh batareyasi va akkumulyator o‘rnatuvchisi, 8) quyosh batareyasi ta’mirlovchi</p> |
| Chiqindini qayta ishlab chiqarish | <p>1) Chiqindilarni maxsus joylarga tashish bilan shug‘ullanuvchi xodimlar; 2) chiqindi maydonlari nazoratchisi, 3) chiqindilarni preslash muxandisi,</p> | <p>1) chiqindilarni qayta ishlovchi mutaxassis, 2) qayta ishlovga chiqindilarni etkazib beruvchi xodimlar, 3) chiqindidan mahsulotlar tayyorlash mutaxassis, 4) chiqindi texnikalari ustasi, 5) chiqindi orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar marketolog.</p> |
| Shamol elektr stansiyalari | <p>1) Elektr energiya xodimlari; 2) Elektr hisoblagich ishlab chiqaruvchi xodimlar;</p> | <p>1) shamol generatorlarini ishlab chiquvchi xodimlar, 2) shamol generatorlarini 3) shamol generatori ustasi, 4) shamol eletr stansiyalari arxitektori va mutaxislari.</p> |

Bugungi kunda Toshkent viloyati Parkent tumanida quyosh elektr stansiyasi o‘z faoliyatini olib bormoqda. Elektr stansiyada quyosh energiyasidan foydalangan xolda 30 dan ortiq maxsulot ishlab chiqarilmoqda va 500 dan ortiq xodimlar faoliyat olib borishmoqda. “yashil” iqtisodiyot talablariga moslashishi va foaliyat turlarini kengaytirish natijasida 1,5 minga yaqin ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda. Chiqindini qayta ishslash zavodi faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi natijasida chiqindidan 20 dan ortiq maxsulot ishlab chiqarish va 2,0 mingdan ortiq ish zrni ta’milanishi nazarda tutilgan. Shamol elektr stansiyalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida esa 1,8 minga yaqin ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda.

Bu borada “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bosqichlarni oldinroq boshlagan Yaponiya, Korrea, Xitoy davlatlari tajribalarini mamlakatimiz tabiatini va aholimiz

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

turmish-tarziga moslashtirgan holda amaliyotga tadbiq etish chora-tadbirlarini ko‘rish zarurati tug‘ilmoqda. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan, biotexnologiya, quyosh energiyasi, shamol kuchi, yashil sanoat kabi iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga kelayotgan kasblar va ular borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan mamlakatimizda barcha imkoniyatlar mujassam.

§2.2. Viloyat mehnat resurslarining sifat va miqdor o‘zgarishlarini statistik ko‘rsatkichlari tahlili

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda aholi turmush tarzi, farovonligi hamda aholini ish bilan ta’minlash va bandligiga ko‘maklashish, kambag‘allikni qisqartirish, joylarda samarali mehnat faoliyati va mehnat resurslarni ijtimoiy muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan bir qancha davlat dasturlari mamlakatimiz mehnat bozorida o‘zining ijobiy ta’sirlarini ko‘rsatmoqda. Xususan asosiy demografik jarayonlar - tug‘ilish, vafot etish, migrasiya, urbanizasiya darajasi, aholini milliy va ijtimoiy tarkibi, mehnat resurslari va ularning bandligida sifat va miqdor o‘zgarishlari, shuningdek, tug‘ilishning va bolalar hamda onalar o‘limining kamayishi, aholi sonini tez sur’atlarda o‘sishi sodir bo‘lmoqda. Shu jumladan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar Toshkent viloyati demografik jarayonlariga hamda mehnat bozorininng asosiy ishtirokchilaridan bo‘lgan mehnat resurslarining kasbiy tayyorgarliklariga har tomonlama sifat va miqdor jixatdan bir qancha ijobiy o‘zgarishlariga sabab bo‘lmoqda. Xususan: respublikamizda aholini samarali bandligini oshirishda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlardan biri bu respublikamizning barcha hududiy birliklarida amalga oshirilayotgan aholining “ahborot texnologiyalari” savodxonligini oshirish natijasida nafaqat respublikamiz, balki Toshkent viloyatida ham ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan yoshlarni ayniqsa ular tarkibidagi xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, onalik davrida xam kampyuter tehnologiyalari asosida aniq vazifalarni bajargan holda uy sharoitida daromad olish imkoniyalarini yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ushbu jarayonlarni

amalga oshirishda aholi va uning demografik jarayonlarini o‘rganish muhim hisoblanadi. Ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bugungi kunda Toshkent viloyati aholisi tarkibida uning demografik jarayonlarida xam o‘sish suratlari yuqori. Shuning uchun ham aholini ishsizlik darajasini kamaytirish, uning samarali mehnat faoliyati bilan bandligini ta’minalash, aholi turmush-darajasini oshirish uchun maqsadli va uzoqni ko‘zlagan ishlarni amalga oshirish, bugungi tabiatning o‘zgarishlariga va resurslar taqchilligiga moslashuvchan mehnat bozorini tashkil etish uchun joylarda aholiningsovodxonlik darajasini oshirish, ekologik madaniyatini yuksaltirish hamda xar qanday sharoitga moslashuvchan kasblar bilan bandligini ta’minalash zarurati tug‘ilmoqda. Respublikamizda “axborot texnologiyalari”ni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida ham axborot kommunikasion texnologiyalarini rivojlantirish va aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida bir qator vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmonida ham Toshkent viloyatini raqamli transformasiya qilish bo‘yicha, Toshkent viloyatida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 44 ta aniq vazifalar belgilab olingan bo‘lib, bulardan:

- Qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirish jarayonlariga buyumlar interneti (IT) texnologiyalaridan foydalangan holda “aqli dala” apparat dasturiy kompleks tizimlarini joriy etish;
- Paxta-to‘qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy qilishga ko‘maklashish;
- Qishloq xo‘jaligida mexanizasiya xizmatlari ko‘rsatishning elektron hisobini yuritish va onlayn monitoring qilish tizimini joriy etish;
- Maktablarda “Bir million dasturchi” loyihasini keng joriy qilish;

- Maktablar o‘qituvchilarini “**Bir million dasturchi**” loyihasi doirasida malakasini oshirish⁴¹ kabi uzoqni ko‘zlagan loyihalar bugun Toshkent viloyati aholisi turmush-tarzida va hayotida sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirishda oxirgi yillarda Respublikamizda bir nechta “Raqamli tehnologiyalar” markazlari faoliyati yo‘lgan qo‘yildi.

2.5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ochilgan raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari bo‘yicha ma’lumot

| T/P | Hudud (viloyatlar) nomi | Ochilgan markazlar soni | T/P | Hudud nomi | Ochilgan markazlar soni |
|--------------|-------------------------------|-------------------------|-----------|----------------------|-------------------------|
| 1 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 17 | 8 | Samarqand viloyati | 16 |
| 2 | Andijon viloyati | 16 | 9 | Sirdaryo viloyati | 11 |
| 3 | Buxoro viloyati | 12 | 10 | Surxondaryo viloyati | 15 |
| 4 | Jizzax viloyati | 13 | 11 | Toshkent viloyati | 22 |
| 5 | Qashqadaryo viloyati | 15 | 12 | Farg‘ona viloyati | 19 |
| 6 | Navoiy viloyati | 11 | 13 | Xorazm viloyati | 13 |
| 7 | Namangan viloyati | 13 | 14 | Toshkent shahri | 12 |
| Jami: | | | | 205 | |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

2.5-jadval ma’lumotlariga asoslanib ta’kidlashimiz mumkinki, bugungi kunda Respublikamizning barcha viloyatlarida “axborot texnologiyalariga a’loxida e’tibor berilmoqda. Jadvalga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Respublikamizda jami 205 ta “Raqamli texnologiyalar” markazlari faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, shulardan Toshkent viloyatida bugungi kunda 22 ta markaz o‘z faoliyatlarini yutiritayotganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Xar bir markaz aniq bir sohaviy dasturlarga asoslangan bo‘lib, unda tahsil olayotgan xar bir bitiruvchi ish bilan doimiy daromad manbai bilan ta’minlanishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadval asosida biz 2020-yildan bugungi kungacha respublikamiz bo‘yicha ushbu markazlar tomonidan qancha bitiruvchilar tahsil olganligini ko‘rishimiz mumkin. (2.6-jadval)

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-soni farmoni

2.6-jadval

Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari bitiruvchilar soni dinamikasi

| T/P | Hudud (viloyatlar) nomi | 2020 yildagi bitiruvchilar soni | 2021 yildagi bitiruvchilar soni | 2022 yildagi bitiruvchilar soni | 2022 yil 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|--------------|----------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|--|--------------|
| | | | | | (+;-) | (%) |
| 1 | Qoraqalpog‘iston Res. | 1 001 | 2 301 | 3 826 | 2 825 | 382,2 |
| 2 | Andijon | 1 446 | 3 327 | 2 228 | 782 | 154,1 |
| 3 | Buxoro | 1 692 | 3 297 | 2 119 | 427 | 125,2 |
| 4 | Jizzax | 1 821 | 7 381 | 3 052 | 1 231 | 167,6 |
| 5 | Qashqadaryo | 1 004 | 2 622 | 2 454 | 1 450 | 244,4 |
| 6 | Navoiy | 1 539 | 2 714 | 1 316 | -223 | 85,5 |
| 7 | Namangan | 1 275 | 7 151 | 3 004 | 1 729 | 235,6 |
| 8 | Samarqand | 1 588 | 5 191 | 6 837 | 5 249 | 430,5 |
| 9 | Sirdaryo | 1 319 | 6 923 | 1 602 | 283 | 121,5 |
| 10 | Surxondaryo | 828 | 2 530 | 2 642 | 1 814 | 319,1 |
| 11 | Toshkent v. | 520 | 14 679 | 6 810 | 6 290 | 1309,6 |
| 12 | Farg‘ona | 1 110 | 3 606 | 6 571 | 5 461 | 592 |
| 13 | Xorazm | 1 041 | 3 760 | 3 697 | 2 656 | 355,1 |
| 14 | Toshkent sh. | 222 | 102 | 326 | 104 | 146,8 |
| Jami: | | 16 406 | 65 584 | 46 484 | 30 078 | 283,3 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

2.6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalar bitiruvchilari soni 2022-yil 2020-yilga nisbatan 30,1 ming kishiga yoki 183,3 % ga ko‘paygan. O‘rganilayotgan davrda bitiruvchilar soni eng yuqori bo‘lgan viloyat Toshkent viloyati hisoblanib, 2020-yilda 520 kishi tamomlagan bo‘lsa, 2022-yil bu ko‘rsatkich 6290 kishiga ko‘paygan bo‘lib, eng past ko‘rsatkich Navoiy viloyatiga to‘g‘ri kelib, 223 kishiga yoki 14,5 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Toshkent viloyatida 22 009 kishi aniq yo‘nalishga ixtisoslashgan holda, mehnat bozoriga kirib kelgan. “Raqamli texnologiyalar” o‘quv markazlari ni 2020-yilga nisbatan qarib 3 barobar ko‘proq yoshlar tamomlagani ushbu markazlar faoliyati aholi xayotida aniq o‘zgarishlarga sabab bo‘layotganligidan dalolatdir. Ayniqsa ushbu markazlarni bitiruvchilari orasida xotin-qizlarning ulushi xam yuqori ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.

2.7-jadval

Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari bitiruvchilari soni bo‘yicha ma’lumot

| T/P | Hudud (viloyatlar) nomi | 2021 yildagi bitiruvchilar soni | 2021 da bitirgan ayollarsoni | 2021 da bitirgan epkaklar soni | 2022 yildagi bitiruvchilar soni | 2022 da bitirgan ayollar soni | 2022 da bitirgan epkaklar soni |
|--------------|----------------------------|---------------------------------------|------------------------------------|---|---------------------------------------|--|---|
| 1 | Qoraqalpos‘iston Res | 2 301 | 1 226 | 1 075 | 3 826 | 2 463 | 1 363 |
| 2 | Andijon | 3 327 | 1 157 | 2 170 | 2 228 | 728 | 1 500 |
| 3 | Buxoro | 3 297 | 1 681 | 1 616 | 2 119 | 1 253 | 866 |
| 4 | Jizzax | 7 381 | 4 207 | 3 174 | 3 052 | 1 150 | 1 902 |
| 5 | Qashqadaryo | 2 622 | 1 086 | 1 536 | 2 454 | 981 | 1 473 |
| 6 | Navoiy | 2 714 | 1 016 | 1 698 | 1 316 | 716 | 600 |
| 7 | Namangan | 7 151 | 1 875 | 5 276 | 3 004 | 938 | 2 066 |
| 8 | Samarqand | 5 191 | 2 344 | 2 847 | 6 837 | 2 247 | 4 590 |
| 9 | Sirdaryo | 6 923 | 2 215 | 4 708 | 1 602 | 897 | 705 |
| 10 | Surxondaryo | 2 530 | 1 619 | 911 | 2 642 | 1 414 | 1 228 |
| 11 | Toshkent v. | 14 679 | 7 193 | 7 486 | 6 810 | 3 528 | 3 282 |
| 12 | Farg‘ona | 3 606 | 1 097 | 2 509 | 6 571 | 1 559 | 5 012 |
| 13 | Xorazm | 3 760 | 1 354 | 2 406 | 3 697 | 1 512 | 2 185 |
| 14 | Toshkent sh. | 102 | 15 | 87 | 326 | 55 | 271 |
| Jami: | | 65 584 | 28 085 | 37 499 | 46 484 | 19 441 | 27 043 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida mualif tomonidan qayta ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasining 38-vazifasida belgilangan topshiriqlar natijasida Toshkent viloyatida bir qator ishlar amalga oshirilgani, yangi tashkil etilgan “Raqamli texnologiyalar” o‘quv markazlarini birgina 2021-yilda butun respublikamiz bo‘yicha 65 584 nafar yoshlar tamomlagani va Toshkent viloyati ushbu ko‘rsatkichning 22,4 % ni yani 11 679 nafar yoshlar tamomlaganini alohida ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Quvonarli tomoni viloyatda raqamli texnologiyalarni o‘rganishga bo‘lgan xotin-qizlarning qiziqishi 2021-yilda ushbu kurslarni tamomlagan ayollar sonidan xam ma’lum yani 7 193 nafar ayollar ushbu kurslarni muvofaqqiyatli tamomlagan. 2022-yilda esa respublikamiz bo‘yicha 46 484 nafar bitiruvchilarning 6,7 % i Toshkent viloyati xissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 6810 nafar bitiruvchining 3 528 nafari esa xotin-qizlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Oldingi yillar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak viloyatdagi ko‘p sonli yoshlar qiyin turmush-tarzini yaxshilash uchun o‘qishdan ko‘ra ayni damdagi uy-xo‘jaliklari ishlari bilan band bo‘layotganliklari 2022-yilda kursga qatnashuvchilar soni 2021-yilga nisbatan

15% ga kamayganligidan xam ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Demak viloyatda yoshlarni axborat texnologiyalari sohalariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish uchun avvalo:

- umumiy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazalarini bugungi zamnaviy jihozlar bilan boyitish, ta’lim muassasalarining o‘z mablag‘laridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun qonuniy kafolatlarni joriy qilish;

-tumanlarning chekka qishloqlarida xam internet tarmoqlariga ulanish (iste’molchi)lar sonini oshirish;

-tuman elektr tarmoqlarini isloh qilish va “yashil” iqtisodiyot talablariga mos texnikalar bilan ta’minlash;

-Toshkent viloyatining chekka hududlariga ham chet-el tajribasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni yo‘naltirish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish tizmini takomillashtirish;

-uy sharoitida ko‘chaga chiqmasdan bola parvarishi bilan uzviy bog‘langan xolda “axborot texnologiyalari”dan foydalana oladigan viloyat ayollariga masofaviy ish jarayonlarini tashkil etish;

-Toshkent viloyatida bo‘sh turgan bino-inshoatlarni nol balans bilan axborot texnologiyalari markazlariga ijara berish va tuman markazlaridan uzoqda joylashgan qishloqlarda xam markaz filiallarni ochish orqali qishloq aholisini xam bandlik darajasini ko‘tarish;

Ta’kidlab o‘tish kerakki, raqamli texnologiyalar sohasida nafaqat ishsiz va ishga joylashtirishga muhtoj aholini, balki davlat va nodavlat sektorlarda ish bilan band bo‘lgan aholini xam malaka oshirish kurslari sifatida qayta tayyorlovga jalb etishni tizimli ravishda joriy etish zarur. Bugungi kunda Respublikamiz mehnat resurslarining salmoqli qismi kompyuter texnologiyalaridan, zamnaviy dasturlar bilan ishslash tajribasiga ega emas. Quyidagi jadvalda esa davlat tashkilotlari tomonidan ushbu kurslarda tahsil olganlar xaqida ma’lumot olamiz.

2.8-jadval

Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarida malaka oshirgan va oshirayotgan davlat hodimlari bo‘yicha ma’lumot

| T/P | Hudud (viloyatlar) nomi | 2021 yilda malaka oshirgan davlat xodimlari soni | shu jumladan: | | 2022 yilda malaka oshirgan davlat xodimlari soni | shu jumladan: | | 2022 yil 2021 yilga nisbatan o‘zgarishi | | |
|--------------|----------------------------|---|---------------|--------------|---|---------------|--------------|---|--------------|--|
| | | | Epkaklar | Ayollar | | Epkaklar | Ayollar | (+;-) | (%) | |
| | | | | | | | | | | |
| 1 | Qoraqalpog‘iston Res. | 954 | 610 | 344 | 2 158 | 1 352 | 806 | 1 204 | 226,2 | |
| 2 | Andijon | 708 | 498 | 210 | 1 166 | 678 | 488 | 458 | 164,7 | |
| 3 | Buxoro | 743 | 456 | 287 | 378 | 206 | 172 | -365 | 50,9 | |
| 4 | Jizzax | 1 874 | 1 176 | 698 | 941 | 505 | 436 | -933 | 50,2 | |
| 5 | Qashqadaryo | 1 685 | 1 205 | 480 | 786 | 401 | 385 | -899 | 46,6 | |
| 6 | Navoiy | 493 | 211 | 282 | 632 | 332 | 300 | 139 | 128,2 | |
| 7 | Namangan | 2 212 | 1 406 | 806 | 991 | 506 | 485 | -1 221 | 44,8 | |
| 8 | Samarqand | 1 242 | 784 | 458 | 3 665 | 2 202 | 1 463 | 2 423 | 295,1 | |
| 9 | Sirdaryo | 623 | 365 | 258 | 465 | 268 | 197 | -158 | 74,6 | |
| 10 | Surxondaryo | 1 608 | 994 | 614 | 1 274 | 709 | 565 | -334 | 79,2 | |
| 11 | Toshkent v | 1 020 | 620 | 400 | 1 631 | 898 | 733 | 611 | 159,9 | |
| 12 | Farg‘ona | 1 042 | 704 | 338 | 1 128 | 709 | 419 | 86 | 108,3 | |
| 13 | Xorazm | 1 481 | 805 | 676 | 1 640 | 899 | 741 | 159 | 110,7 | |
| 14 | Toshkent sh | 369 | 203 | 166 | 201 | 125 | 76 | -168 | 54,5 | |
| Jami: | | 16 054 | 10 037 | 6 017 | 17 056 | 9 790 | 7 266 | 1 002 | 106,2 | |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

2.9-jadval ma’lumotlari asosida ta’kidlashimiz mumkinki, 2021-2022-yillar mobaynida respublikamizda davlat tashkilotlari tomonidan 33 110 nafar hodim axborot texnologiyalari kurslarida o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashgan. Demak, Toshkent viloyatining 1 020 nafar davlat hodimi 2021-yilda kurslarda malaka oshirishgan bo‘lsa 1 631 nafari 2022-yilda ushbu kurslarni tamomlashgan. O‘rganilayotgan davrlarda eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi Samarqand viloyatiga to‘g‘ri kelib, 2423 nafarga yoki 195,1 % o‘sish ko‘zatilgan keyingi o‘rinlarda Toshkent viloyatida 611 nafar yoki 59,9 % ga o‘sish kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi, eng past ko‘rsatkich esa Namangan viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda. Namangan viloyatida 2022-yil 2021-yilga nisbatan 1221 nafarga yoki 44,8 % kamayish kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. O‘z navbatida yana bir savol tug‘iladi, bu kurslarda qanday yo‘nalishlarda, qaysi sohalarga tegishli programmalar o‘rgatilmoqda va mehnat bozoriga “Raqamli texnologiyalar” markazlari bitiruvchilari o‘zlarining qanday mehnatlarini taklif etmoqda (2.9-jadval)

2.9-jadval

Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarida kurslar kesimida bitiruvchilar soni (DX lari bilan birga)⁴²

| T/P | Hudud (viloyatlar) nomi | KC | Front | Bek | Grafik D | Mob Robot | Android | Boshqa kurslar | P va IT , tadbirkorlik |
|--------------|-------------------------|---------------|--------------|------------|--------------|------------|------------|----------------|------------------------|
| 1 | Qoraqalpog‘iston Res. | 4 309 | 465 | 2 | 69 | 16 | 30 | 1 093 | 568 |
| 2 | Andijon | 2 914 | 402 | 29 | 49 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 3 | Buxoro | 1 661 | 395 | 43 | 95 | 3 | 6 | 294 | 237 |
| 4 | Jizzax | 2 317 | 598 | 43 | 97 | 17 | 4 | 917 | 34 |
| 5 | Qashqadaryo | 2 603 | 340 | 0 | 36 | 27 | 28 | 206 | 0 |
| 6 | Navoiy | 1 606 | 214 | 36 | 53 | 6 | 0 | 33 | 15 |
| 7 | Namangan | 2 823 | 193 | 33 | 90 | 0 | 24 | 832 | 753 |
| 8 | Samarqand | 8 360 | 773 | 26 | 117 | 120 | 365 | 741 | 482 |
| 9 | Sirdaryo | 1 716 | 290 | 30 | 6 | 2 | 1 | 22 | 0 |
| 10 | Surxondaryo | 3 410 | 404 | 0 | 3 | 0 | 16 | 83 | 0 |
| 11 | Toshkent | 3 816 | 4 393 | 36 | 49 | 0 | 9 | 138 | 125 |
| 12 | Farg‘ona | 5 763 | 577 | 250 | 293 | 133 | 118 | 565 | 1 |
| 13 | Xorazm | 2 870 | 352 | 134 | 71 | 7 | 211 | 1 692 | 407 |
| 14 | Toshkent sh. | 88 | 163 | 50 | 0 | 7 | 25 | 194 | 162 |
| Jami: | | 44 256 | 9 559 | 712 | 1 028 | 338 | 837 | 6 810 | 2 784 |

2.9-jadvalda ko‘rib turganimiz axborot texnologiyalari tomonidan joriy qilingan kurslar tomonidan 2022-yilda asosan 7 ta yo‘nalishlar bo‘yicha tayyorlov kurslari joriy qilingan bo‘lib, ushbu kurslarning ya’na bir asosiy g‘oyasi kurslarni muvafaqqiyatli tamomlagan har bir bitiruvchi 100% ish bilan ta’milnishi uchun qulay sharoitlar yaratilganligida. Shuning uchun xam ushbu markazlar sonini oshirish va ularda tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushini ko‘tarish, viloyat aholisining ishsizlik darajasiga o‘zining ijobiy tasirini o‘tkazadi.

Olib borilayotgan isloxoqlar natijasida nafaqat Respublikamizda balki Toshkent viloyatida ham br muncha ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bularga yaqol misol sifatida yillar davomida viloyatda ishsizlar sonining kamayib borayotganligi va bandlar tarkibida ayollarning ulushi ortib borayotganligini ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi.

O‘rganilayotgan davrlarda respublikamizda va Toshkent viloyatida qancha ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan quyida 2.3-rasm orqali tanishib chiqishimiz mumkin.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.



2.4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi va Toshkent viloyatida ishsizlar soni to‘g‘risida ma’lumot (*ming kishi*)⁴³.

2.4-rasm ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ishsizlik ko‘rsatkichlari biroz pasayganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ammo aholi sonining o‘sish darajasiga nisbatan va kelgusida mehnat bozoriga o‘z ish kuchlarini taklif etuvchi mehnat resurslari soniga nisbatan bu yaxshilanish xali etarli deb hisoblab bo‘lmaydi. 2022-yilning yanvar-dekabr ma’lumotlari asosida ta’kidlash mumkinki, Respublikamizda joriy davrda ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan aholi soni 1333,9 ming kishini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2010-yilning mos davriga nisbatan 675,7 ming kishiga ko‘p ekanligini bildiradi. Yuqoridagi jadval asosida ta’kidlash mumkinki oxirgi 3 yillikda ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan aholi soni yillar davomida biroz kamaygan. Toshkent viloyatida ham bu ko‘rsatkich yillar davomida kamayib borganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. 2022-yilda Toshkent viloyatida ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lganlar soni 116,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 126,5 ming kishini tashkil etgan va 2022-yilda ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lganlar 9,6 ming kishiga kamayganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Demak, mamlakatimizda aholi bandligini ta’minlash borasida qator ishlar amalga oshirilayotganligi, ammo taklif qilinayotgan bo‘sh ish o‘rnulari ishga joylashtirishga muhtoj aholini to‘liq qamrab olish imkoniyati mavjud emasligi hamda, aholining turmush darajasini yaxshilashga bo‘lgan harakatlari va

⁴³ О‘збекистон Республикаси камбаг‘алликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ма’лумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

ishchi kuchini sotishga bo‘lgan extiyoji aholi migrasiyasini vujudga keltiradi. Natijada aholining ichki va tashqi migrasiya harakati yani ishchi kuchi migrasiyasi vujudga keladi. Quyidagi jadvalda Toshkent viloyati hamda hududlari bo‘yicha aholisining umumiy migrasiyasi ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumotlar olishimiz mumkin bo‘ladi.

2.10-jadval

Toshkent viloyati doimiy aholisining mehnat migratsiyasi (2023-yil yanvap holatiga, kishi)

| Hudud (viloyatlar) nomi | Kelganlar | | Ketganlar | | Migratsiya saldosи | |
|-------------------------|-----------|----------|-----------|----------|--------------------|----------|
| | 2021 yil | 2022 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2021 yil | 2022 yil |
| Viloyat bo‘yicha: | 27675 | 20745 | 34329 | 26960 | -6654 | -6215 |
| Shaharlar: | | | | | | |
| Nurafshon | 867 | 491 | 341 | 311 | 526 | 180 |
| Olmaliq | 1144 | 1071 | 1566 | 988 | -422 | 83 |
| Angren | 1291 | 747 | 1253 | 881 | 38 | -134 |
| Bekobod | 658 | 434 | 856 | 564 | -198 | -130 |
| Chirchiq | 2637 | 1976 | 2222 | 1557 | 415 | 419 |
| Ohangaron | 766 | 592 | 425 | 336 | 341 | 256 |
| Yangiyo‘l | 1160 | 660 | 784 | 466 | 376 | 194 |
| Tumanlar: | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 351 | 284 | 723 | 490 | -372 | -206 |
| Ohangaron | 601 | 643 | 936 | 604 | -335 | 39 |
| Bekobod | 525 | 342 | 1037 | 735 | -512 | -393 |
| Bo‘stonliq | 682 | 784 | 1506 | 759 | -824 | 25 |
| Bo‘ka | 605 | 296 | 912 | 592 | -307 | -296 |
| Quyi Chirchiq | 850 | 659 | 1231 | 565 | -381 | 94 |
| Zangiota | 2186 | 2038 | 5713 | 5992 | -3527 | -3954 |
| Yuqori Chirchiq | 2741 | 1578 | 1296 | 1215 | 1445 | 363 |
| Qibray | 2772 | 2109 | 2547 | 4891 | 225 | -2782 |
| Parkent | 306 | 287 | 781 | 448 | -475 | -161 |
| Piskent | 596 | 343 | 798 | 631 | -202 | -288 |
| O‘rta Chirchiq | 1683 | 1127 | 3546 | 2409 | -1863 | -1282 |
| Chinoz | 1110 | 714 | 970 | 432 | 140 | 282 |
| Yangiyo‘l | 1983 | 1520 | 3238 | 1031 | -1255 | 489 |
| Toshkent | 2161 | 2050 | 1648 | 1063 | 513 | 987 |

Manba: Statistika agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.10-jadval ma’lumotlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, 2022-yil ma’lumotlariga asosan, 2021-yilga nisbatan Toshkent viloyati bo‘yicha mehnat qilishga va boshqa maqsadlarda ko‘chib kelganlar soni 6654 kishiga kamligi va bunga mos ravishda ko‘chib ketganlar soni xam 6215 kishiga kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Demak, o‘rganilayotgan davrda viloyatning deyarli barcha hududlari bo‘yicha aholining mehnat migrasiyasi sezilarli darajada qisqarganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlarni ham viloyatning

mehnat resusrlarini besamar xarakati oldini olishdagi asosiy yutuqlari sirasiga kiritishimiz mumkin.

2.11-jadval ma'lumotlari orqali esa Toshkent viloyati mehnat bozorida ko'rsatkichlarining ayol va erkaklar bo'yicha qanday xolatda ekanligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

2.11-jadval
Toshkent viloyati mehnat bozori ko'rsatkichlarining jins bo'yicha
taqsimlanishi (ming kishi)

| Ko'rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 yil 2017 yilga | nisbatan o'zgarishi |
|-----------------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|---------------------|---------------------|
| | | | | | | (+;-) | (%) |
| Iqtisodiy faol aholi | 1360,9 | 1349,8 | 1353,5 | 1315,8 | 1348,6 | -12,3 | 99,1 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | |
| <i>Ayollar</i> | 684,3 | 586,7 | 588,2 | 580,2 | 605,6 | -78,7 | 88,5 |
| <i>Erkaklar</i> | 676,6 | 763,1 | 765,3 | 735,6 | 743,0 | 66,4 | 109,8 |
| Iqtisodiyotda bandlar soni | 1289,6 | 1227,7 | 1232,9 | 1177,2 | 1222,1 | -67,5 | 94,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | |
| <i>Ayollar</i> | 652,4 | 524,7 | 513,9 | 499,1 | 530,2 | -122,2 | 81,3 |
| <i>Erkaklar</i> | 637,2 | 703,0 | 719,0 | 678,1 | 691,9 | 54,7 | 108,6 |
| Ishsizlar soni | 71,3 | 122,1 | 120,6 | 138,6 | 126,5 | 55,2 | 177,4 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | |
| <i>Ayollar</i> | 31,9 | 62,0 | 74,3 | 81,1 | 75,4 | 43,5 | 236,5 |
| <i>Erkaklar</i> | 39,4 | 60,1 | 46,3 | 57,5 | 51,0 | 11,6 | 129,6 |
| Ishsizlik darajasi | 5,2 | 9,0 | 8,9 | 10,5 | 9,4 | 4,2 | 180,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | | |
| <i>Ayollar</i> | 4,7 | 10,6 | 12,6 | 14,0 | 12,5 | 7,8 | 266,0 |
| <i>Erkaklar</i> | 5,8 | 7,9 | 6,0 | 7,8 | 6,9 | 1,1 | 119,0 |

Manba: Statistika agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ladiki, Toshkent viloyatida iqtisodiy faol aholi 2021-yilda 1348,6 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 12,3 ming kishiga yoki 0,9 % ga kamayganini ko'rsatadi. Ammo bu kamayish iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ayollarning soni 78,7 ming kishiga yoki 11,5 % kamayishi bilan kuzatilgan bo'lib, 2021-yilda erkaklar 743 ming kishini tashkil etgan xolda 9,8% ga o'sgan. Iqtisodiyotda bandlar soni esa 2021-yilda 1222,1 ming kishini tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 67,5 ming kishiga yoki 5,2 % ga kamaygan. bandlar sonida ham ayollarning ulushi kamayishi kuzatilib, 122,2 ming kishiga yoki 17,7 % ga kamaygan. erkaklar esa aksincha 54,7 ming kishiga yoki 8,6 % ga o'sganligini ko'ramiz. Ishsizlar soni esa 2021-yilda

2017-yilga nisbatan 55,2 ming kishiga yoki 77,4 % ga ortgan. Ishsizlar sonidagi ayollarning ulushi esa 136,5 % ortgan bo‘lsa, erkaklar 129,6 % ga ortgan. Ishsizlik darajasi esa 4,2 % ortgan. Mehnat bozoridagi iqtisodiy faol va iqtisodiyotda bandlar sonining kamayishi va ayniqsa bunda ayollarning ulushi oshganligi COVID-2019 pandemiyasi va uning sal’biy oqibatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kamayish ko‘rsatkichlari aynin 2018-2019-yillardan boshlanganligini ko‘rshimiz mumkin bo‘ladi. Pandemianing sal’biy oqibatlarini bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan davlat dasturlarning ta’siri natijasida barcha ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar 2020-yildan boshlab o‘zini tiklayotganligi, ushbu chora-tadbirlarning naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

2.13-jadval

**Toshkent viloyatida ish bilan band aholi soni va dinamikasi
(ming kishi)⁴⁴**

| Yillar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 yil 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|----------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---|-------------|
| | | | | | (+;-) | (%) |
| Jami | 1227,7 | 1232,9 | 1177,2 | 1222,1 | -5,6 | 99,5 |
| Olmaliq sh. | 80,8 | 81,1 | 76,0 | 75,6 | -5,2 | 93,5 |
| Angren sh. | 74,4 | 74,5 | 76,5 | 78,9 | 4,6 | 106,1 |
| Bekobod sh. | 42,6 | 41,5 | 40,2 | 42,6 | 0,0 | 100,0 |
| Chirchiq sh. | 72,6 | 72,6 | 71,3 | 66,2 | -6,4 | 91,1 |
| Yangiyo‘l sh. | 22,3 | 23,5 | 24,2 | 24,3 | 2,1 | 109,3 |
| Nurafshon sh. | 20,7 | 31,3 | 32,2 | 32,5 | 11,9 | 157,4 |
| Ohangapon sh. | 14,2 | 15,7 | 16,6 | 18,5 | 4,3 | 130,4 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 42,9 | 43,5 | 40,4 | 44,0 | 1,1 | 102,5 |
| Ohangaron | 36,5 | 41,3 | 34,3 | 36,0 | -0,5 | 98,7 |
| Bekobod | 60,7 | 63,7 | 55,1 | 59,6 | -1,1 | 98,1 |
| Bo‘stonliq | 72,8 | 70,9 | 68,6 | 70,8 | -2,0 | 97,3 |
| Bo‘ka | 49,7 | 50,5 | 50,2 | 50,9 | 1,2 | 102,3 |
| Zangiota | 83,2 | 76,9 | 78,9 | 80,9 | -2,4 | 97,2 |
| Qibray | 87,8 | 81,2 | 76,2 | 79,9 | -7,8 | 91,1 |
| Quyichirchiq | 40,8 | 38,1 | 39,8 | 43,2 | 2,3 | 105,7 |
| Parkent | 61,2 | 61,5 | 61,2 | 62,0 | 0,8 | 101,3 |
| Pskent | 41,2 | 42,8 | 42,4 | 42,6 | 1,4 | 103,4 |
| O‘rtachirchiq | 58,0 | 54,7 | 49,1 | 53,9 | -4,1 | 92,9 |
| Chinoz | 53,1 | 52,6 | 49,1 | 52,4 | -0,7 | 98,7 |
| Yuqorichirchiq | 54,2 | 51,4 | 53,7 | 53,7 | -0,5 | 99,1 |
| Yangiyo‘l | 83,8 | 84,4 | 66,7 | 80,2 | -3,6 | 95,7 |
| Toshkent | 74,3 | 79,1 | 74,7 | 73,4 | -0,9 | 98,8 |

Mehnat resurslari va uning kelgusidagi ko‘rsatkichlari qay yo‘sinda o‘zgarishi esa ma’lum miqdorda aholining tabiiy o‘sish sur’atlariga ham bog‘liq hisoblanadi. Demografik o‘zgarishlar aholining yuqori sur’atlar bilan o‘sib borayotganligi bilan bog‘liq bo‘lib, demografik jarayonlar: tuzilgan nikohlarning

⁴⁴ Statistika agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

ko‘pligi va ularni bekor bo‘lishining pastligi, ko‘p bolalikdan o‘rtacha bolalikka o‘tish, shuningdek, tug‘ilish darajasining o‘sishi, viloyat aholisining tashqi migrasiyasi qisqarishi, urbanizasiya darajasining keskin oshishi, aholining o‘rtacha umr kechirish yoshining o‘sishi, onalar va bolalar o‘limining doimiy ravishda kamayib borishi tendensiyasi aholining muntazam ko‘payib borishining asosiy omillari bo‘lib hisoblanadi.

2.13-jadval orqali Toshkent viloyatida ish bilan band aholi (IBBA) va uning hududlardagi soni to‘g‘risida ma’lumot olishimiz mumkin bo‘ladi. 2021-yilda Toshkent viloyatida (IBBA) soni 1222,1 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 5,6 ming kishiga yoki 0,5 % ga kamaygan. Viloyatda (IBBA) eng ko‘p hudud Zangiota tumani bo‘lib, 80,9 ming kishini tashkil etmoqda. Ammo (IBBA) 2021-yil 2018-yilga nisbatan Nurafshon tumani 11,9 ming kishiga yoki 57,4 % ga ko‘paygan. Eng past ko‘rsatkich esa Qibray tumaniga to‘g‘ri kelib 7,8 ming kishiga yoki 8,9 % kamayish kuzatilgan.

Yuqoridagi jadval orqali Toshkent viloyati va uning hududiy birliklarida mehnat layoqatli yoshdagagi mehnatga layoqatli aholi soni to‘g‘risida ma’lumot olgan bo‘lsak, quyidagi jadval orqali Toshkent viloyatida 2018-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan mehnat resurslari dinamikasi bilan tanishib chiqamiz. (2.14-jadval)

Toshkent viloyatida mehnat resurslari soni 2021-yilda 1622,5 ming kishini tashkil etib 2018-yilga nisbatan 4,6 ming kishiga yoki 0,3 % kamaygan. Viloyatning mehnat resurslari soni eng ko‘p o‘sgan hudud Nurafshon tumani bo‘lib, 2017-yilga nisbatan 12,21 ming kishiga yoki 44,4 % o‘sgan. Eng past ko‘rsatkich esa O‘rta chirchiq va Yangiyo‘l tumanlariga tegishli bo‘lib, 2021-yilda 2017-yilga nisbatan ikkala tumanda ham 7 ming kishiga kamayish kuzatilgan. O‘rta chirchiq tumani 8,8 % ga kamaygan bo‘lsa, Yangiyo‘l tumani 6,1 % ga kamaygan. mehnat resurslari sonining kamayishi o‘z navbatida Toshkent viloyatining mamuriy-hududiy birliklarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, bunda tumanlardagi aholining demografik va mexanik jarayonlaridagi o‘zgarishlar ham muxim o‘rin tutadi.

2.14-jadval

Toshkent viloyati mehnat resurslarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi dinamikasi (ming kishi)⁴⁵

| Yillar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2021 yil 2017 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---|-------------|
| | | | | | (+;-) | (%) |
| Jami | 1627,2 | 1607,3 | 1615,4 | 1622,5 | -4,6 | 99,7 |
| Olmaliq sh. | 99,3 | 99,4 | 100,1 | 99,0 | -0,3 | 99,7 |
| Angren sh. | 97,9 | 98,2 | 103,5 | 103,6 | 5,7 | 105,8 |
| Bekobod sh. | 55,0 | 54,1 | 54,5 | 55,8 | 0,8 | 101,4 |
| Chirchiq sh. | 91,3 | 91,5 | 102,2 | 97,4 | 6,1 | 106,7 |
| Yangiyo'l sh. | 31,6 | 30,6 | 33,4 | 32,9 | 1,3 | 104,0 |
| Nurafshon sh. | 27,5 | 37,8 | 40,2 | 39,7 | 12,2 | 144,4 |
| Ohangapon sh. | 19,7 | 20,3 | 21,9 | 23,7 | 4,0 | 120,3 |
| <i>tumanlap:</i> | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | 57,5 | 57,6 | 56,5 | 58,1 | 0,6 | 101,0 |
| Ohangaron | 50,1 | 53,8 | 48,9 | 48,2 | -1,9 | 96,3 |
| Bekobod | 81,6 | 85,2 | 80,1 | 79,5 | -2,1 | 97,5 |
| Bo'stonliq | 93,4 | 91,6 | 90,0 | 91,4 | -2,0 | 97,9 |
| Bo'ka | 67,9 | 66,9 | 68,3 | 68,2 | 0,3 | 100,4 |
| Zangiota | 108,3 | 100,5 | 103,9 | 103,8 | -4,5 | 95,8 |
| Qibray | 112,8 | 105,0 | 105,8 | 108,5 | -4,3 | 96,2 |
| Quyichirchiq | 56,8 | 52,7 | 56,2 | 57,4 | 0,6 | 101,1 |
| Parkent | 83,4 | 81,6 | 83,5 | 83,6 | 0,2 | 100,2 |
| Piskent | 57,3 | 55,6 | 56,6 | 55,6 | -1,7 | 97,0 |
| O'rtaqirchiq | 80,0 | 74,6 | 73,7 | 73,0 | -7,0 | 91,2 |
| Chinoz | 71,1 | 69,6 | 68,5 | 69,9 | -1,1 | 98,4 |
| Yuqorichirchiq | 72,0 | 68,5 | 70,9 | 71,5 | -0,5 | 99,2 |
| Yangiyo'l | 113,2 | 110,4 | 96,6 | 106,3 | -7,0 | 93,9 |
| Toshkent | 99,3 | 102,0 | 99,9 | 95,6 | -3,7 | 96,3 |

Qo'yidagi 2.4-rasmida esa, yuqoridagi jadvallarni tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlar asosida aholining tabiiy o'sish sur'atlari dinamikasi haqida so'z boradi.



2.4-rasm. Toshkent viloyati aholisining tabiiy o'sish ko'rsatkichlari (ming kishi)⁴⁶.

⁴⁵ Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

⁴⁶ Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2.4-rasm ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlashimi mumkinki, Toshkent viloyati aholisining 2000-yildan 2021-yilgacha bo'lgan yillar oralig'idagi aholining tabiiy o'sish sur'ati o'rganilgan. Toshkent viloyati aholisining tabiiy o'sishi 2000-yilda 13,7 (ming kishi)ni, 2005-yilda 15,7 (ming kishi)ni, 2010-yilda 33,3 (ming kishi)ni, 2015-yilda 32,4 (ming kishi)ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 43,4 (ming kishi)ni tashkil etib, 2021-yilda 34 ming kishini tashkil etgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu ko'rsatkichlar Toshkent viloyati aholisining tabiiy o'sishi yildan-yilga o'sib borgani, faqatgina 2020-yildagi aholi soni bo'yicha o'sish sur'atining qolgan yillarga nisbatan yuqoriligi uchun tabiiy o'sish sur'ati sezilarli darajada o'sganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Aholining tabiiy o'sish sur'ati esa o'z navbatida mehnat resurslari soniga xam ta'sir etmasdan qolmaydi. Mehnat resurslari tarkibida ikki xil tendensiya- bir tomondan, jami mehnat resurslari va iqtisodiy faol aholini sonini o'sishi, ikkinchi tomondan esa, qishloqda ushbu ko'rsatkichlarning qisqarishi sodir bo'lmoqda. Bu albatta Toshkent viloyatida urbanizasiya darajasining yillar mobaynida o'sib borishi bilan uzviy bog'liq. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida uchragan ko'plab muammolar orasida mehnat bozorining samarali amal qilishi muammosi dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur muammoni muvaffaqiyatli hal etilishi ko'p jihatdan mehnat bozori rivojlanishining ob'ektiv qonunlarini chuqur darajada anglash va kelgusi istiqbollarini belgilash bilan bog'liq. Mehnat bozorining hozirgi holatiga ilmiy abstraksiyalash usulidan foydalanib yondashadigan bo'lsak, unga ta'sir etuvchi bosh omil sifatida demografik omilni olishimiz mumkin. Shuning uchun ham aholi sonining bir maromda o'sishi mehnat bozori rivojlanishiga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi.

§2.3. Toshkent viloyatida band aholi tarkibi va dinamikasini statistik baholash

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bevosita iqtisodiy faol aholiga ta'lluqli bo'lib, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, uning iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini ifodalaydi. Bularga eng avvalo, sinflar va ijtimoiy guruqlar bo'yicha guruhash kiradi, bu usul

ilgarilari sobiq sosialistik mamlakatlar statistikasida qo'llanilgan. Hozirgi kunda 4-bandlik maqomining xalqaro tasnifi bazasida amalga oshiriladigan bandlikdagi holati bilan almashtirilgan. Iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlikning muvofiq keluvchi koeffitsientlari alohida jins va yosh guruhlari bo'yicha ham, butun aholi uchun aniqlanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bandlik va ishsizlik koeffitsientlarini quyidagi kategoriyalarga nisbatan hisoblab chiqish mumkin:

- a) aholining umumiyligi soniga;
- b) iqtisodiy faol aholi soniga.

Aytib o'tilgan ko'rsatkichlar hisob-kitobi quyidagi formulalar bo'yicha amalga oshiriladi:

$$K_{\text{faol}} = \frac{S_{\text{faol}}}{S_{\text{band}}} \epsilon$$

$$K_{\text{band}} = \frac{S_{\text{faol}}}{S_{\text{umum}}} \epsilon$$

$$K_{\text{ishs}} = \frac{S_{\text{faol}}}{S_{\text{ishs}}} \epsilon$$

$$K_{\text{ishs}} = \frac{S_{\text{band}}}{S_{\text{umum}}} \epsilon$$

$$K_{\text{umum}} = \frac{S_{\text{faol}}}{S_{\text{ishs}}} \epsilon$$

Bunda: K_{faol} , K_{band} , K_{ishs} - muvofiq tarzda faollik, bandlik va ishsizlik koeffitsientlari; S_{faol} , S_{band} , S_{ishs} , S_{umum} - muvofiq tarzda iqtisodiy faol, band, ishsiz aholi soni va aholining umumiyligi sonini bildiradi.

Tahlil maqsadida iqtisodiy faol aholi soni va bandlar sonining muvofiq tarzda mehnatga layoqatli aholiga nisbatidan ham foydalanish, maqsadga muvofiq, ishsizlik koeffitsientini yollanma ishchilar va o'zini-o'zi band qilganlar uchun alohida hisoblash mumkin. Aytish lozimki, faollik, bandlik va ishsizlik koeffitsientlari ikki usulda hisoblab chiqilishi mumkin: a) lahzalik (biror sanadagi holati bo'yicha); b) oraliqli (biror vaqt davri uchun).

Statistik amaliyotda ko'pincha iqtisodiy faol aholiga nisbatan hisoblangan bandlik va ishsizlik koeffitsientlaridan foydalaniladi. Bu holatda bandlik va ishsizlik koeffitsientlarining yig'indisi bir-biriga teng bo'ladi. Ayrim mamlakatlar

statistikasida mehnat resurslarini bandlik muammolari bo'yicha tadqiq qilish ma'lumotlari bazasida olinadigan va XMT tavsiyalariga muvofiq hisoblanadigan ishsizlar umumiyligi soni hamda umumiyligi ishsizlik darajasining baholovchi ko'rsatkichlari bilan birga bandlik xizmati joriy statistik ma'lumotlar bo'yicha ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi ko'rsatkichi ham hisoblanadi. Ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi bandlik xizmati organlarida ro'yxatga olingan ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati orqali ifodalanadi. Shunisi ravshanki, ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi uning umumiyligi darajasidan bir necha marta past bo'ladi, chunki mamlakat iqtisodiy faol aholisining umumiyligi sonidagi haqiqiy ishsizlar kam qisminigina ulushini ifodalaydi.

Toshkent viloyatida mehnatga layoqatli aholiga yuklama koeffitsientini o'zgarishi tendensiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1000 ta mehnatga layoqatlilarga mehnatga layoqatsiz aholining nisbatida jami mehnatga layoqatsiz aholining, shuningdek, ushbu jarayonning pasayishi sodir bo'layotganligini ta'kidlash mumkin. Viloyat aholisining tarkibida ham mehnatga layoqatli yoshdan kichiklarning pasayishi bilan bir qatorda mehnatga layoqatli yoshdan kattalarning o'sishi kuzatilmoxda. Ya'ni, bir tomondan aholining yosharishi va ikkinchidan esa, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar sonini o'sishi, yoki qisman keksayishi davom etmoqda. Buning yaqqol isboti sifatida 2010-2021-yillarda 1000 ta mehnatga layoqatlilarga mehnatga layoqatsiz qishloq aholining sonini 49 kishiga, shu jumladan, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklarni 54 kishiga kamaygani holda mehnatga layoqatli yoshdan kattalar soni 5 kishiga ortgan. Avvalambor, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar va kattalar o'rtasidagi nisbatdagi keskin tafovutning saqlanib kelayotganligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni qisqa muddatli jarayon emasligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinalini yaratish bugungi kunda barqaror rivojlanishimizning muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Albatta, bunday yondashuv murakkab demografik jarayonning davom etishi davrida to'g'ri va oqilona yondashuv hisoblanadi. Chunki, ish bilan bandlik darajasining qanchalik yuqori va muntazam o'sib borishi, shuni ta'kidlab o'tish

kerakki, barqaror rivojlanishning muhim tarkibi hisoblangan ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda ushbu yo‘nalishda qator chora-tadbirlarning oshirilishi o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Jumladan bugungi kundagi yangi yaratilayotgan ish o‘rinlari va bu boradagi Prizidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan chiqarilayotgan qonun va qarorlar fikrimizning yaqqol tasdig‘i bo‘la oladi. Mehnat bozori rivojlanishi va mamlakat aholisi sonini qay darajada o‘zgarayotganligini aniqlashda dinamika qatorlari ya’ni dinamika nisbiy miqdorlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, dinamika so‘zi grekcha “dinamikos” so‘zidan olingan bo‘lib, kuchga tegishli, kuchli degan lug‘aviy mazmunga ega. Bu atama harakat holatini, o‘sish yoki rivojlanishni anglatadi. Hodisalarning vaqt ichida o‘zgarishi statistikada dinamika deb, shu jarayonni ta’riflovchi ko‘rsatkichlar qatori esa dinamika qatorlari deb yuritiladi. Dinamika qatorlari ikki unsurdan tarkib topadi: birinchisi- vaqt momentlari yoki davrlar sanasi, ikkinchisi - ularga tegishli ko‘rsatkichlar. O‘rganilayotgan rivojlanish vaqtining umumiyligi uzunligini oraliqlarga bo‘lib qarasak, har bir kesilish nuqtasi moment (muayyan on, payt, fursat) deb ataladi, bir momentdan ikkinchisigacha o‘tgan vaqt oralig‘i (yil, kvartal, oy, kun va h.k.) esa davr deb yuritiladi. Hodisa me’yorini muayyan momentga nisbatan belgilasak, u holda uning zaxirasi, ya’ni shu on holatiga bo‘lgan miqdori (soni va h.k.) aniqlanadi. Agar hodisa me’yorini ma’lum davr uchun o‘lchasak, u holda uning muayyan vaqt oralig‘idagi oqimi, ya’ni ushbu davr davomidagi umumiyligi miqdori (hajmi va h.k.) aniqlanadi. O‘rganilayotgan hodisaning vaqt momentlariga yoki davrlarga tegishli ko‘rsatkichlari qator darajalari deb ataladi va “U” orqali belgilanadi.

Dinamika qatorlarini tahlil qilish jarayonida bir qator ko‘rsatkichlar hisoblanadi: mutlaq qo‘shimcha o‘sish (yoki kamayish); o‘sish (yoki kamayish) koeffitsienti yoki sur’ati; qo‘shimcha o‘sish (yoki kamayish) koeffitsienti yoki sur’ati (foizda); 1% qo‘shimcha o‘sishning (yoki kamayishning) mutlaq qiymati.

Yuqorida qayd qilingan ko‘rsatkichlarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Mutlaq qo'shimcha o'sish yoki kamayish - har qaysi keyingi davr darajasidan boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasini ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

$$\Delta_{i/i-1} = Y_i - Y_{i-1} \quad \Delta_{i/i_0} = Y_i - Y_0 \quad [2.1]$$

2. O'sish yoki kamayish koeffitsienti yoki sur'ati (Ko'.k.) - har qaysi keyingi davr darajasi boshlang'ich yoki o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha martaba katta yoki kichik ekanligini yoki qancha foiz tashkil etishini ko'rsatadi.

$$K_{i/i-1} = Y_i / Y_{i-1};$$

$$T_{i/i-1} = Y_i \cdot 100 / Y_{i-1};$$

$$K_{i/i_0} = Y_i / Y_0;$$

$$T_{i/i_0} = Y_i \cdot 100 / Y_0 \quad [2.2]$$

3. Qo'shimcha o'sish (kamayish) sur'ati (Δ) ham ikki usulda aniqlanishi mumkin. Birinchi usulda har bir keyingi davr darajasidan boshlang'ich davr darajasi ayirilib, 100 ga ko'paytiriladi va boshlang'ich davr darajasiga bo'linadi.

$$\Delta_{i/i_0} = \frac{\sum(Y_i - Y_0) \cdot 100}{Y_0} \quad [2.3]$$

Ikkinci usulda har bir keyingi davr darajasidan oldingi davr darajasi ayirilib, 100 ga ko'paytiriladi va o'zidan oldingi yil darajasiga bo'linadi.

$$\Delta_{T_{i/i-1}} = \frac{\sum(Y_i - Y_{i-1}) \cdot 100}{Y_{i-1}} \quad [2.4]$$

1% qo'shimcha o'sish (kamayish)ning mutlaq qiymati – mutlaq qo'shimcha o'sish qiymati zanjirsimon qo'shimcha o'sish sur'atiga bo'linadi⁴⁷.

$\Delta_{i/i-1} : \Delta_{T_{i/i-1}}$ Sifat ko'rsatkichlariga asoslangan dinamika qatorlarini tahlil qilishda, ular qanday shaklda - to'g'ri yoki teskari ko'rinishda tuzilishiga qarab, yuqorida zikr etilgan analitik ko'rsatkichlar, masalan, o'sish va qo'shimcha o'sish sur'atlari turlicha mantiqiy mazmunga ega bo'ladi va bir biriga barobar bo'lmaydi. Bu erda sifat ko'rsatkichlari deganda miqdoriy qiymati ob'ekt (predmet)ning birligiga nisbatan hisoblanadigan hodisa me'yori tushuniladi. Ular ijtimoiy-

⁴⁷ Soatov N.M., Ayubjonov A. H. Statistika. Darslik. – T.:Abu Ali ibn Sino., 2016 yil.

iqtisodiy faoliyat natijalarini, ya’ni mavjud moddiy, moliyaviy, tabiiy, mehnat resurslaridan foydalanishni sifat jihatidan, samaradorlik nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

2.15 -jadval

Toshkent viloyatida ish bilan band bo‘lgan aholi sonining o‘zgarish dinamikasi⁴⁸ (ming kishi)

| Yillar | Ish bilan band bo‘lgan aholi soni , (ming kishi) | Mutloq qo‘srimcha o‘sish, (ming kishi) | | O‘sish sur’ati, % | | Qo‘srimcha o‘sish sur’ati, % | | 1% qo‘srimcha o‘sish (kamayish)ning mutlaq qiymati, (ming kishi) | |
|--------|--|--|----------|-------------------|----------|------------------------------|----------|--|----------|
| | | Bazisli | Zanjirli | bazisli | zanjirli | bazisli | zanjirli | $\Delta_{i+1} - \Delta_i$ | Yi+1/100 |
| 2010 | 752,1 | - | - | - | - | - | - | - | - |
| 2011 | 784,4 | 32,3 | 32,3 | 104,3 | 104,3 | 4,3 | 4,3 | 7,521 | 7,521 |
| 2012 | 817,7 | 65,6 | 33,3 | 108,7 | 104,2 | 8,7 | 4,2 | 7,844 | 7,844 |
| 2013 | 843,0 | 90,9 | 25,3 | 112,1 | 103,1 | 12,1 | 3,1 | 8,177 | 8,177 |
| 2014 | 1272,4 | 520,3 | 429,4 | 169,2 | 150,9 | 69,2 | 50,9 | 8,43 | 8,43 |
| 2015 | 1281,8 | 529,7 | 9,4 | 170,4 | 100,7 | 70,4 | 0,7 | 12,724 | 12,724 |
| 2016 | 1287,6 | 535,5 | 5,8 | 171,2 | 100,5 | 71,2 | 0,5 | 12,818 | 12,818 |
| 2017 | 1289,6 | 537,5 | 2 | 171,5 | 100,2 | 71,5 | 0,2 | 12,876 | 12,876 |
| 2018 | 1227,7 | 475,6 | -61,9 | 163,2 | 95,2 | 63,2 | -4,8 | 12,896 | 12896 |
| 2019 | 1232,9 | 480,8 | 5,2 | 163,9 | 100,4 | 63,9 | 0,4 | 12,277 | 12,277 |
| 2020 | 1177,2 | 425,1 | -55,7 | 156,5 | 95,5 | 56,5 | -4,5 | 12,329 | 12,329 |
| 2021 | 1246,9 | 494,8 | 69,7 | 165,8 | 105,9 | 65,8 | 5,9 | 11,772 | 11,772 |

Manba: Statistika agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

2.15-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Toshkent viloyatida ish bilan band bo‘lgan aholi soni va uning absolyut qo‘srimcha o‘sishi, o‘sish sur’ati, va qo‘srimcha o‘sish sur’ati to‘g‘risida 2010-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan. Keltirilgan ma’lumotlar asosida shuni aytish mumkinki 2018-yil va 2020-yillarda ish bilan band bo‘lgan aholi soni mos ravishda 4,8 va 4,5 % ga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Qolgan yillarda esa o‘rtacha 4-5 % ga o‘sish kuzatilgan.

Dissertasiyaning avvalgi boblarida Toshkent viloyati aholisining asosiy qatlamlari iqtisodiyotimizning qaysi sohalarida ish bilan band ekanliklari, Toshkent viloyati aholisining milliy tarkibi, iqtisodiy faol va nofaol aholi soni, qolaversa shahar va qishloqlarda ayollar va erkaklar soni to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘ldik. Endilikda O‘zbekiston Respublikasi aholisini qolaversa

⁴⁸ Toshkent viloyati statistika boshqarmasining 2000-2021 yil ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Toshkent viloyati aholisining davlat sektori yoki nodavlat sektorida bandlik ulushlarini o‘rganamiz. Mamlakatimiz hamda Toshkent viloyatida tug‘ilganlar, vafot etganlar, aholining tabiiy harakati va tabiiy o‘sish sur’atlari to‘g‘risida fikr va muloxazalar yuritamiz. Statistik ma’lumotlarga asosan, 2021-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandlarning jami bandlikdagi ulushi 78,3 % ni tashkil etdi.

2.16-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi sonining iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha taqsimlanishi

| Ko‘rsatkichlar | | Jami bandlar (ming kishi) | Davlat setorida bandlar (ming kishi) | ulushi, % | Nodavlat setorida bandlar (ming kishi) | ulushi, % |
|---|--------------|------------------------------|--|-------------------|--|-------------------|
| Yillar | | | | | | |
| 2010 | | 11628,4 | 2410,2 | 20,7 | 9218,2 | 79,3 |
| 2011 | | 11919,1 | 2369,4 | 19,9 | 9549,7 | 80,1 |
| 2012 | | 12223,8 | 2363,2 | 19,3 | 9860,6 | 80,7 |
| 2013 | | 12523,3 | 2341,1 | 18,7 | 10182,2 | 81,3 |
| 2014 | | 12818,4 | 2324,7 | 18,1 | 10493,7 | 81,9 |
| 2015 | | 13058,3 | 2341,3 | 17,9 | 10717 | 82,1 |
| 2016 | | 13298,4 | 2330,4 | 17,5 | 10968 | 82,5 |
| 2017 | | 13520,3 | 2338,3 | 17,3 | 11182 | 82,7 |
| 2018 | | 13273,1 | 2427 | 18,3 | 10846,1 | 81,7 |
| 2019 | | 13541,1 | 2463,3 | 18,2 | 11077,8 | 81,8 |
| 2020 | | 13236,4 | 2483,1 | 18,8 | 10753,3 | 81,2 |
| 2021 | | 13538,9 | 2530,1 | 18,7 | 11008,8 | 81,3 |
| 2021 yil 2010 yilga nisbatan o‘zgarishi | (+;-) (%) | 1910,5 116,4 | 119,9 105,0 | -2 90,3 | 1790,6 119,4 | 2 102,5 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida shuni alohida ta’kidlashimiz mumkinki 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasida jami bandlar soni 11628,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bundan 20,7 % (2410,2 ming kishi) davlat sektorida 79,3 % (9218,2 ming kishi) esa nodavlat sektorda band ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkich 2021-yilga kelib Respublika bo‘yicha jami ish bilan band aholi sonida davlat sektorida bandlar ulushi 18,7 % ni, nodavlat sektorda esa 81,3 % ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. 2021-yilda iqtisodiyotda ish bilan bandlar soni 13538,9 ming kishini tashkil etib 2010-yilga nisbatan 1910,5 ming kishiga yoki 16,4 % ga ko‘paygan. Davlat sektorlarida bandlar esa 2530,1 ming kishini tashkil etib, 119,9 ming kishiga yoki 5,0 % ga

ortgan. Nodavlat sektorda bandlar esa 11008,8 ming kishini tashkil etib, 1790,6 ming kishiga yoki 19,4 % ga ortgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki respublikamiz aholisining aksariyat qismi nodavlat sektorlarda o'zining mehnat faoliyatlarini olib borishmoqda. Qo'yida ushbu ma'lumotlarni Respublikamiz hududlarida ya'ni viloyatlarida qanday o'zgarganini davlat va nodavlat sektorlardagi ulushini xam ko'rib chiqamiz.

2.17-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ish bilan band aholining iqtisodiyot sektorlapri bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)⁴⁹

| | 2010 yil | | 2015 yil | | 2021 yil | | 2021 yil 2010 yilga nisbatan o'zgarishi | | | | | |
|------------------------------|------------------|--------------------|------------------|--------------------|------------------|--------------------|---|--------------------------|--------|-------|-------|-----|
| | davlat sektorida | Nodavlat sektorida | davlat sektorida | Nodavlat sektorida | davlat sektorida | Nodavlat sektorida | Davlat setori bo'yicha | Nodavlat setori bo'yicha | (+;-) | (%) | (+;-) | (%) |
| | 2410,2 | 9218,2 | 2341,3 | 10717 | 2530,1 | 11008,8 | 119,9 | 105 | 1790,6 | 119,4 | | |
| O'zbekiston Respublikasi | 2410,2 | 9218,2 | 2341,3 | 10717 | 2530,1 | 11008,8 | 119,9 | 105 | 1790,6 | 119,4 | | |
| Qoraqalpoqiston respublikasi | 144,6 | 436,2 | 139,1 | 490,9 | 151,8 | 550,9 | 7,2 | 105 | 114,7 | 126,3 | | |
| Viloyatlar | | | | | | | | | | | | |
| Andijon | 172,7 | 939,3 | 172,9 | 1098,8 | 187,9 | 1076,4 | 15,2 | 108,8 | 137 | 114,6 | | |
| Buxoro | 146,4 | 621,7 | 140,7 | 683,5 | 153,4 | 623,9 | 7 | 104,8 | 2 | 100,4 | | |
| Jizzax | 82,1 | 299,5 | 81 | 360,4 | 98,4 | 452,4 | 16,3 | 119,8 | 153 | 151,1 | | |
| Qashqadaryo | 202 | 769,6 | 188,5 | 955,4 | 214,7 | 987,8 | 12,7 | 106,3 | 218 | 128,4 | | |
| Navoiy | 156,3 | 251,6 | 147,6 | 273,6 | 171,7 | 238,6 | 15,4 | 109,9 | -13 | 94,8 | | |
| Namangan | 157,9 | 657,4 | 152,8 | 816 | 164,1 | 940,7 | 6,2 | 103,9 | 283 | 143,1 | | |
| Samarqand | 212,5 | 1017,4 | 215,4 | 1228,5 | 221,6 | 1219,7 | 9,1 | 104,3 | 202 | 119,9 | | |
| Surxondaryo | 177 | 607,4 | 169,9 | 760,9 | 186 | 815,9 | 9 | 105,1 | 209 | 134,3 | | |
| Sirdaryo | 63,3 | 256,6 | 65,6 | 285,3 | 73,1 | 261 | 9,8 | 115,4 | 4 | 101,7 | | |
| Toshkent v | 205,4 | 950 | 194,2 | 1087,6 | 218,5 | 1003,6 | 13,1 | 106,4 | 54 | 105,6 | | |
| Farg'ona | 229 | 1111,4 | 227,6 | 1257,7 | 248,4 | 1234,9 | 19,4 | 108,5 | 124 | 111,1 | | |
| Xorazm | 120,3 | 486,4 | 112,5 | 583,5 | 127 | 599,4 | 6,7 | 105,6 | 113 | 123,2 | | |
| Toshkent sh | 340,1 | 813,7 | 333,2 | 834,9 | 313,6 | 1003,6 | -26,5 | 92,2 | 190 | 123,3 | | |

2.17-jadvalning to'liq ma'lumotlari 2-ilovada keltirilgan. Jadval ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlash mumkinki 2021-yilda 2010-yil nisbatan O'zbekiston Respublikasida davlat sektorida bandlar 119,9 ming kishiga yoki 5,0 % o'sgan bo'lsa, nodavlat sektorlarda bandlar 1790,6 ming kishiga yoki 19,4 % ga

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzulgan

o'sgan. Respublikamiz hududlarida davlat sektorlarida bandlarning o'sishi eng yuqori bo'lgan viloyat Jizzax viloyati bo'lib, 16,3 ming kishiga yoki 19,8 % o'sgan. Eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 26,5 ming kishiga yoki 7,8 % ga kamayganini ko'rsatadi. Nodavlat sektorlarda bandlik bo'yicha ham Jizzax viloyati etakchilik qilib, 153 ming kishiga yoki 51,1 % o'sish kuzatilgan. Eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatiga to'g'ri kelib, 13 ming kishiga yoki 5,2 % kamaygan. Ish bilan band aholining Republikamiz bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega viloyat Farg'ona viloyati bo'lib jami bandlarning 10,96 % i yani 1483,3 ming kishini tashkil etmoqda. Shulardan 248,4 ming kishi 16,7 % davlat sektorlarida 1234,9 ming kishi 83,3 % i nodavlat sektorlarda band ekanligini ko'rshimiz mumkin. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatiga tegishli bo'lib jami bandlarning 2,5 % i yoki 334,1 ming kishini tashkil etib, bulardan 73,1 ming kishi 21,9% davlat sektorlarida 261,0 ming kishi 78,1 % i nodavlat sektorlarda ish bilan band ekanligini ko'rshimiz mumkin. Qolaversa Toshkent viloyati jami bandlarning 9% i 1222,1 ming kishini to'g'ri kelib, bulardan 218,5 ming kishi 17,9 % davlat sektorlarida qolgan 1003,6 ming kishi 82,1 % i nodavlat sektorlarda ish bilan band ekanligini ko'rshimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda va uning hududlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan iqtisodiy chora-tadbirlarida tijorat banklari faol ishtirok etish maqsadida, o'zlarining moliyaviy holatida mavjud bo'lgan siklik nobarqarorlikni «silliqlash», moliya resurslaridan to'lik va samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlik darajasidan istikbolda maksimal iqtisodiy o'sish sur'atiga erishish, pirovard natijasida bank kredit portfelini samarali tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish taqozo qilmoqda.

Toshkent viloyatida yangi yaratilayotgan ish o'rinalining asosiy qismi qishloq xo'jaligi sohalariga tegishli bo'lib, viloyat aholisi samarali bandligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni borligidan kelib chiqqan holda, asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga qaratilayotganligini ta'kidlash joiz. Bugungi kunda yaratigan yangi ish o'rinalining 60,4 foizi qishloq joylarda yaratilgan bo'lib, ularning uchdan ikki qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda

kasanchilikning barcha shakllarini rivojlantirish hisobiga to‘g‘ri kelsa, qolgan qismi esa, fermer xo‘jaliklarida parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni rivojlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarida, avtomobil yo‘llari va temir yo‘l qurilishi va rekonstruksiyasi sohasida, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarida, bozor infratuzilmasi, va boshqa sohalar hisobiga yaratilgan. Toshkent viloyati hududlarida bunday ijobiy natijalarga erishish, avvalambor, davlat tomonidan ular uchun yaratilgan qulay huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, turli davlat dasturlari orqali banklar tomonidan berilgan kreditlar hajmining oshganligi, soliq va boshqa amaliy qo‘llab-quvvatlash choralari katta ahamiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Toshkent viloyati mehnat bozorini modernizasiyalash va diversifikasiya qilish jarayonlarining amalga oshirilishi natijasida keljakda barcha tarmoqlarda mehnat unumdarligining yuqori darajaga erishilishi ortiqcha mehnat resurslarining mavjud bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham, Toshkent viloyati mehnat bozorining faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqishni takomillashtirish lozim. Unda quyidagilar o‘z aksini topmog‘i kerak:

- Toshkent viloyatida kichik yoki yirik korxonalarining filiallarini tashkil etish;
- tumanlar va o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazlari faoliyatini ya’nada takomillashtirish;
- ish beruvchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish uchun mehnat resurslari marketingini shakllantirish va takomillashtirish;
- ish beruvchilarni mavjud mehnat resurslari haqida xabardor qilishga oid xizmatlar reklamasini keng yo‘lga qo‘yish.

Shu nuqtai nazardan ham mehnat resurslari viloyat mehnat bozorining yakuniy natijalari yuqori bo‘lishidan manfaatdordirlar. Ta’kidlash joizki, Toshkent viloyati aholisining bandligi qishloq xo‘jaligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, qishloq ho‘jaligida yig‘im-terim davrida hosilni tez va sifatli yig‘ib olishda qo‘sishicha mehnat resurslari jalb etish talab etiladi. Albatta, texnika ta’minoti darajasi yuqori

bo‘lgan fermerlar, yig‘im-terim jarayonlarida tehnika texnologiyalardan foydalansalar kamroq mehnat resurslari jalg etadi. Buning uchun esa har bir fermer xo‘jaligi darajasida o‘rim-yig‘imda texnika xizmatini yoki qo‘l mehnatidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi taqqoslanib qulay shakli tanlab olinadi. Bugungi kunda fermer xo‘jaliklarida barcha qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘im-terimida, g‘allachilikdan tashqari qo‘l mehnati keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun ham ularda mehnatga bo‘lgan ehtiyoj, asosan yig‘im-terimda yuqori bo‘lib, eng past talab darajasi noyabr-fevral oylariga, o‘rtacha talab mart-aprel va barqaror-muntazam talab-vegitasiya davri may-avgust oylariga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham fermer xo‘jaliklarida oyma-oy, bajariladigan agrotexnik tadbirlar turlari bo‘yicha talab etiladigan mutaxassis, bajaradigan ish hajmi va sarf qilinadigan kunlik ish vaqtি bo‘yicha, biz yuqorida tavsiya qilgan mehnat resurslari marketingi asosida mehnat resurslaridan foydalanish jadvali tuzilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki fermer xo‘jaliklarida mehnatni tashkil etishda ushbu tadbirni amalga oshirish, birinchidan, mehnatni ilmiy va to‘g‘ri tashkil etish, ikkinchidan, mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi, provardida esa fermer xo‘jaliklarida agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli o‘tkazish imkoniyati vujudga keladi, mahsulot etishtirish hosildorligi oshadi, ortiqcha sarf-xarajatlar tejaladi va xo‘jalikning samaradorligi oshirish imkoniyati uchun muhim manba yaratiladi. Natijada bu Toshkent viloyati mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligi sohasida band bo‘lganlarning daromadlari oshishiga va doimiy ravishda ish bilan band bo‘lishlariga zamin yaratadi.

2-bob bo‘yicha xulosa

1. Ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida shu ma’lum bo‘ladiki, mehnat bozori bo‘yicha axborotni jamlash va guruhash keyingi tahlil uchun boshlang‘ich material xizmatini o‘taydigan ko‘rsatkichlarning ma’lum tizimiga ega bo‘lish imkonini beradi. Mehnat bozori o‘z amaliy faoliyatida «Statistikating umumiy nazariyasi» ishlab chiqqan usullardan foydalanadi va natijalarni taxlil qiladi.

2. 2010-2021-yillarda Toshkent viloyati aholisi xar 1000 ta mehnatga layoqatlilarga mehnatga layoqasiz qishloq aholining sonini 49 kishiga, shu jumladan, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklarni 54 kishiga kamaygani holda mehnatga layoqatli yoshdan kattalar soni 5 kishiga ortgan. Avvalambor, mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar va kattalar o‘rtasidagi nisbatdagi keskin tafovutning saqlanib kelayotganligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni qisqa muddatli jarayon emasligidan dalolat beradi.

3. 2010-2022-yillarda Toshkent viloyati aholisi 406,7 ming kishiga ko‘payib, 2023 yil 1 oktyabr holatiga 2992,6 ming kishini tashkil etganligi viloyat aholisining yillar davomida bir maromda o‘sib borganligidan dalolat bermoqda. Qolaversa Toshkent viloyati aholisining salmoqli qisimlari nodavlat sektorlarida mehnat faoliyatlarini olib borayotganliklarini inobatga olgan holda Toshkent viloyati va uning hududiy birliklarida tadbirkorlik va engil sanoat tarmoqlarini rivojlantirish mehnat unumдорligiga xam ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Mintaqal mehnat bozorida ishsiz va ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lgan aholini “Axborot texnologiyalari” sohasi tomonidan tashkil etilayotgan raqamlı tehnalogiyalar markazlarida tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha zaruriy dasturiyta’milot bazalariga ixtisoslashgan, rejalar asosida kasbga tayyorlov kurslarini tashkil qilish, qolaversa ushbu kurslarda xotin-qizlar ulushini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni taqazo etadi;

5. Mamlakatimiz rahbarining 2030-yilgacha mamlakatimizni “Yashil” iqtisodiyotga o‘tkazish strategiyasidan kelib chiqqan holda Toshkent viloyati aholisini “yashil” iqtisodiyot va unga o‘tish jarayonida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha turdagи to‘siqlar va kamchiliklarga bardosh berishlari uchun kerakli vazifalar ishlab chiqish, chinakam moslashuvchan mehnat bozori barpo etish, qolaversa o‘tish davrida mintaqal mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan yangi kasblarni statistik o‘rganish. Mintaqal mehnat bozoridan chiqib ketishi kutilayotgan kasb egalarini “Yashil” iqtisodiyot to‘g‘risidagi bilimlarini oshirish hamda “yashil” iqtisodiyotga moslashuvchanligini ta’minlash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

6. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyati aholisining ko'p qismi yonlanma ishlarda ishlashni ma'qul ko'rishadi, mehnat bozorining hozirgi holatiga mustaqil rivojlanish davrida mehnat resurslarining o'sishi mehnatda bandlik darajasining o'sishidan yuqori bo'ldi. Natijada iqtisodiy faol aholining yoki mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi mehnatda bandlik darajasi 67-70% ni tashkil etmoqda. Ayni paytda respublikamiz mehnat bozorida ish o'rinlarining ko'payayotgani hamda aholi turmush darajasi sezilarli ravishda o'sayotganidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu holatni mehnat bozorida mehnatda bandlik darajasi to'liq hisobga olinmayotgani bilan izohlash mumkin.

7. Respublikamiz hududlarida demografik rivojlanishning asosiy tendensiyasi tug'ilishning ko'payishida namoyon bo'lmoqda. Bu esa aholining yosh guruhlari tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Mehnat bozorining hozirgi holatiga statistik manbalar asosida amalga oshirilgan tahlillar mehnatda bandlarning mutlaq miqdori barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini, bu holat ularning mehnat resurslariga nisbatida aniq namoyon bo'layotganini va mehnatda bandlarning jami aholi soniga nisbatan o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatib turibdi.

III BOB. TOSHKENT VILOYAT MEHNAT BOZORINING ISTIQBOLDAGI KO'RSATKICHALARINI STATISTIK BAHOLASH.

§3.1 Mintaqa mehnat bozori rivojlanishini ekonometrik baholash

Mehnat bozori boshqa bozorlar orasida markaziy o'rinni egallaydi. Bozor ikki asosiy ishtirokchiga asoslanadi: ish beruvchilar va xodimlar. Ularning asosiy farqi ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan munosabatidadir. Ishlab chiqarish vositalarining egalari ish beruvchilar, mehnat qurollari yoki mehnat buyumlari bo'limgan, lekin mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar esa yollanma ishchilardir. Ular o'z mehnatlarini ma'lum haq evaziga taklif qilishadi va ish beruvchilar unga talab qo'yishadi hamda buning uchun haq to'laydilar. Demak, mehnat bozorida ham, boshqa bozorlardagi kabi ish haqi shaklida talab, taklif va narx mavjud. Mehnat taklifi turli omillarning xususan, ish haqi darajasi, ma'lumot, kasaba uyushmalari himoyasi, soliq tizimi va boshqalarning kombinasiyasi bilan belgilanadi.

Ish kuchiga bo'lgan talab tadbirkorlarning mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni texnik jihozlash uchun zarur bo'lgan miqdor va sifatdagi yollanma mehnatga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi. Iste'mol tovarlari narxlari bevosita ishchi kuchi darajasiga va ish haqiga ta'sir qiladi. Bularning barchasi kapitalning to'lib ketishiga, ishchi kuchiga talab va taklifning o'zgarishiga, ishsizlikning paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa ko'pincha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtiradi. Shuning uchun mehnat bozorida eng oqilona iqtisodiy munosabatlarni o'rnatishda davlat katta rol o'ynaydi.

Mehnat bozorining hajmi asosan ishchi kuchiga bo'lgan talab bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatdagi umumiyligi iqtisodiy vaziyatga va iqtisodiy jarayonlarning bosqichiga bevosita bog'liqdir. Iqtisodiy jarayonlar yuksalish holatida bo'lsa, ishchi kuchiga talab ortadi. Shuning uchun mehnat bozori kengayib boradi. Agar ijtimoiy ishlab chiqarish inqiroz yoki tushkunlikni boshdan kechirsa, ishchi kuchiga talab kamayadi va mehnat bozori torayadi.

Mehnat bozorining kengayishi yoki qisqarishi uning tarkibiy qismlari: bandlar va ishsizlar soni o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishiga olib keladi. Mehnat bozoridagi talab hamda taklif o‘rtasidagi nisbat mehnatning bozor bahosida kon'yunkturasiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Mehnat bozori faoliyati muammosi iqtisodchilar tomonidan turlicha izohlanadi. Klassik nazariya nuqtai nazaridan, ishsizlik ish haqining oshishi natijasida yuzaga keladigan o‘ziga xos iqtisodiy hodisadir. Ish haqi ancha yuqori darajaga etgan, ya’ni ish izlayotganlarning barchasi topadigan darajadan yuqori bo‘lgan sharoitda mehnat bozorida taklifning ko‘pligi va natijada ishsizlik yuzaga kelishidir.

Klassik nazariya ishsizlik yoki ishchi kuchi tanqisligi muammolari bozorning o‘zini-o‘zi tartibga solish orqali hal qilinishini taxmin qiladi. Bu jarayonga davlat aralashuvi keraksiz va zararli hisoblanadi. Ishsizlik, klassik nazariyaga ko‘ra, xodimlarning o‘zlarining ish haqini oshirishga doimiy intilishlari natijasidir. Mehnat bozoridagi muvozanatga faqat bozor mexanizmi orqali erishiladi. Ya’ni, taklifning ortig‘i yalpi talab va yalpi taklifning muvozanatlari modellarida bo‘lgani kabi, faqat ishchi kuchi narxini pastga “bosishi” kerak. Amalda bu ishsizlik, ish haqi darajasini pasaytirishi mumkinligini anglatadi va bu o‘z navbatida bandlik darajasini oshiradi. Shunday qilib, klassik model ishsizlik sharoitida ish haqi kamayishi kerak deb taxmin qiladi. Ammo iqtisodiy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, nominal ish haqi, qoida tariqasida ishlab chiqarishning pasayishi davrida kamaymaydi. Bunga ishchilar va ular tomonidan o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan kasaba uyushma tashkilotlari qarshi bo‘ladi. Ish beruvchilar ham barqaror ish haqidan manfaatdor, chunki bu ularga ishni yaxshiroq rejalashtirish va xodimlar bilan ziddiyatsiz munosabatlarni saqlash imkonini beradi. Bularning barchasi ish haqini cheklaydi va uning mehnat bozoriga qarab yuqoriga hamda pastga o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ammo klassik modelga ko‘ra, barqaror ish haqi ishsizlikni keltirib chiqaradi. Iqtisodiyotda ishchi kuchiga bo‘lgan talab ish haqining kamayishi bandlikni oshirishga imkon bermaydigan darajaga tushganda yuzaga kelishi mumkin. Bunday holda, ixtiyoriy ishsizlik deb ataladigan jarayon yuzaga keladi. Ishchilar ish haqining

kamaytirilishiga rozi bo‘lishmaydi va natijada ishsizlikni afzal ko‘radi. Klassik nazariya ishsizlikni jiddiy iqtisodiy muammo deb hisoblamaydi. Ammo iqtisodiy amaliyot bunday pozitsiyaning asossizligini tasdiqlaydi. Keyns ish haqining kamayishi bandlikning oshishiga olib kelishi mumkinligini inkor etmadi. Ammo u bu vositadan ishsizlikni eng yaxshi davo sifatida foydalanishga urinishlarga shubha bilan qaradi.

Birinchidan, Keyns ta’kidladiki, amalda ish haqini kamaytirish juda qiyin, shuning uchun bunday strategiya mehnat bozorini muvozanatlashda ijobiy natijalar berishi deyarli mumkin emas.

Ikkinchidan, ish haqini kamaytirish (hatto buni amalga oshirish mumkin deb hisoblasak ham) haqiqatan ham ishsizlikka qarshi samarali chora bo‘lishi mumkinligiga shubhalar mavjud. Gap shundaki, ish haqi kamaytirilsa, korxona xarajatlari kamayadi. Bu ko‘proq ishchilarni yollashga ehtiyoj tug‘diradi. Ammo shu bilan birga, ish haqi olib, ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni sotib oluvchilarning xarid qobiliyati pasayadi. Demak, iste’mol talabiga ikki qaramaqarshi omil ta’sir ko‘rsatadi. Talab qisman ko‘proq odamlar ish bilan ta’minlanganligi sababli oshadi va qisman kamayadi, chunki har birining xarid qibiliyati ish haqining pasayishi bilan kamayadi.

Keyns nazariyasining asosiy xulosasi shundan iboratki, bozor iqtisodiyotida aholining to‘liq bandligini kafolatlaydigan bunday mexanizm mavjud emas. Ishsizlikning sezilarli darajasi va inflyatsiyaning sezilarli sur’atlari bilan yalpi talab hamda yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanatga erishish nuqtai nazaridan iqtisodiyotni muvozanatlash mumkinligi ta’kidlanadi. Mehnat bozorida muvozanatga erishish va mehnatga layoqatli aholining to‘liq bandligiga erishish uchun davlatning iqtisodiy jarayonlarga tizimli aralashuvi zarur.

Agar ishsizlik tabiiy darajadan oshmasa, davlat mehnat bozoriga aralashmasligi kerak. Aks holda, stagflyatsiya rivojlana boshlaydi, ya’ni ishsizlik va inflyatsiyaning bir vaqtning o‘zida o‘sishi. Monetaristik nazariyaga ko‘ra, har qanday inqirozdan chiqish yo‘li qat’iy moliyaviy-kredit siyosati amalga oshirilgan taqdirdagina mumkin. Bunda davlatning roli ham hisobga olinadi. Biroq, u faqat

makroiqtisodiy tartibga solishga, shu jumladan mehnat bozoriga soliq va pul mexanizmi yordamida tegishli. Mehnat bozori bir xil emas. U bandlik muammosi uchun turli talablarni shakllantiradigan ko‘plab sektorlar va ish joylaridan iborat.

Mintaqaga qarab turli xil xususan, kasb toifasi, malaka va ta’lim darajasiga ixtisoslashgan mehnat bozorlari mavjud. Shu ma’noda, Toshkent viloyatida mehnat bozori samaradorligini undagi bandlar sonini oshishini e’tiborga olgan holda 1-ssenariy bo‘yicha yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikr-mulohazalardan foydalanib, viloyatda iqtisodiyotda bandlar soni – Yni natijaviy omil sifatida o‘zgarishiga ta’sir etuvchi yalpi hududiy mahsulot hajmi – X_1 , ishsizlik darajasi- X_2 , viloyatdagi korxonalar soni – X_3 , aholi jon boshiga real daromadlar – X_4 va o‘rtacha nominal hisoblangan oylik – X_5 omillari tanlab olinib dastlab ularning bog‘lanish koeffitsienti aniqlanadi (3.5-jadval).

Izox: Mintaqa mehnat bozori rivojlanishini ekonometrik tahlili uchun ishlab chiqilgan quyidagi 3.5, 3.6, 3.7, 3.8 jadvallarning hisob-kitoblari uchun foydalanilgan empirik ma’lumotlar 3-ilovada keltirilgan.

3.5-jadval

1-ssenariy bo‘yicha Toshkent viloyatida mehnat bozori samaradorligi o‘zgarishiga ta’sip etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti

| | Y | X_1 | X_2 | X_3 | X_4 | X_5 |
|-------|----------|----------|---------|----------|----------|-------|
| Y | 1 | | | | | |
| X_1 | 0,885325 | 1 | | | | |
| X_2 | 0,91434 | 0,695917 | 1 | | | |
| X_3 | 0,780487 | 0,787384 | 0,7319 | 1 | | |
| X_4 | 0,791416 | 0,986938 | 0,70085 | 0,690457 | 1 | |
| X_5 | 0,790036 | 0,596833 | 0,71002 | 0,78761 | 0,580011 | 1 |

Jadval qiymatlariiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Natijaviy Y - omilga nisbatan ishsizlik darajasi- $X_2(r_{Y,X_2}=0,91434)$ va viloyat yalpi hududiy mahsulot hajmi – $X_1(r_{Y,X_1}=0,885325)$ kuchli zichlikda, viloyatdagi korxonalar soni – $X_3(r_{Y,X_3}=0,780487)$, aholi jon boshiga real daromadlar – $X_4(r_{Y,X_4}=0,791416)$ va o‘rtacha nominal hisoblangan oylik – $X_5(r_{Y,X_5}=0,790036)$ o‘rtachadan kuchli

zichlikda bog‘langan bo‘lib, tanlangan omillar o‘rtasida $r_{x1,x2} < 0,8$ shartga ko‘ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog‘liqlik o‘rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin. Tanlab olingan omillar o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi bois, omil ko‘rsatkichlarini logorifmlab chiziqsiz tenglamani hosil qilish bilan birga uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi (3.6 jadval).

3.6-jadval

1-ssenariy bo‘yicha Toshkent viloyatida mehnat bozori samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi regressiya tenglamasi natijalari

Dependent Variable: LNY

Method: Least Squares

Date: 11/25/22 Time: 20:47

Sample: 2000 2021

Included observations: 22

| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|--------------------|-------------|-----------------------|-----------------------|-----------|
| LNX1 | 0.155714 | 0.046463 | 3.351355 | 0.0161 |
| LNX2 | -0.014672 | 0.005098 | -2.877599 | 0.0366 |
| LNX3 | 0.038714 | 0.013242 | 2.923577 | 0.0424 |
| LNX4 | 0.044139 | 0.018365 | 2.403431 | 0.0463 |
| LNX5 | 0.177632 | 0.068855 | 2.579798 | 0.0150 |
| C | 5.717162 | 0.341721 | 16.73049 | 0.0000 |
| | | | $t_{jad}=2,119905299$ | |
| R-squared | 0.985935 | Mean dependent var | | 7.020845 |
| Adjusted R-squared | 0.981540 | S.D. dependent var | | 0.122287 |
| S.E. of regression | 0.016615 | Akaike info criterion | | -5.130020 |
| Sum squared resid | 0.004417 | Schwarz criterion | | -4.832463 |
| Log likelihood | 62.43022 | Hannan-Quinn criter. | | -5.059924 |
| F-statistic | 224.3144 | Durbin-Watson stat | | 1.883188 |
| Prob(F-statistic) | 0.000000 | | $F_{jad}=0,3505808$ | |

Jadval ma’lumotlarida keltirilgan koeffitsientlar qiymatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglmani hosil qilinadi:

$$LnY_1 = 0.16LnX_1 - 0.01467LnX_2 + 0.04X_3 + 0.04LnX_4 + 0.18LnX_5 + 5.72 \quad (3.5)$$

Aniqlangan 3.5 regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, $\alpha=0,05$ va $df=16$ bo'lgan holda $t_{Jad}=2,119905299$ ga tengligidan $t_{his}>t_{Jad}$ shart qanoatlantirilgani uchun barcha parametrlar ahamiyatliligi kelib chiqadi. Logorifm hossalaridan kelib chiqqan holda va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 3.5-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko'ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y = \frac{X_1^{0.16} * X_3^{0.04} * X_4^{0.04} * X_5^{0.18} * e^{5.72}}{X_2^{0.01467}} \quad (3.5*)$$

Hosil qilingan 3.5*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatlilagini $\alpha=0,05$ va $k_1=16$; $k_2=5$ bo'lganda $F_{Jad}=0,3505808$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{his}=224,3$ tengligidan $F_{Jad}<F_{his}$ shartga binoan 3.5*-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda $DW=1,88$ teng bo'lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emaslididan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

3.5*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy jihatdan izoh beradigan bo'lsak, uni quyidagicha talqin qilish mumkin: Agar aniqlangan 3.5*-regressiya tenglamasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi va o'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqini 1,0 %ga oshirilsa, u holda natijaviy omil sifatida tanlab olingan Toshkent viloyatdagi iqtisodiyotda bandlar soni qo'shimcha mos ravishda 0,02 va 2,2 ming nafarga oshishi viloyatdagi korxonalar soni hamda aholi jon boshiga real daromadlarni 1,0 %ga oshirilsa 0,01 %ga qo'shimcha o'sishi aniqlandi.

Ammo, hozirgi kuzatilayotgan davrda Toshkent viloyatida ishsizlar sonini 1,0 %ga ko'payishi iqtisodiyotda bandlar sonini 2,2 ming kishiga kamaytirishi mumkinligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Olingan natijalar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda Toshkent viloyati hokimligi tomonidan viloyatda yangi ish o'rinalarini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirokorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash chora-tadbirlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishsizlikning tarqalishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish mehnat bozorini zudlik bilan isloh qilishni va mehnatni qo'llash uchun qulay shart-

sharoitlarni yaratish, rag‘batlantirish choralarini faollashtirish orqali mehnat salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish bo‘yicha strategik maqsadlarga erishishda samarali bandlik uchun tegishli vazifalarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bunda avvalambor, bandlik sohasidagi davlat siyosati tizimli bo‘lishi, ijtimoiy va mehnat munosabatlari sub’ektlarining har birining maqsadlariga erishishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Xususan:

- davlat uchun: iqtisodiy o‘sishni ta’minalash va raqobatbardoshlikni mustahkamlash, umumi farovonlikni oshirish hamda aholining daromad darajasi bo‘yicha tabaqalanishini kamaytirish, ishchi kuchini oqilona taqsimlash (tarmoq, hududiy va malaka) va mehnat sohasini belgilash;

- ish beruvchilar uchun: iqtisodiy faoliyat samaradorligini ta’minalash va mehnat unumdorligini oshirish, sifatli ish o‘rinlarini yaratish;

- xodimlar uchun: ish uchun munosib haq olish, kasbiy ko‘nikmalarini maksimal darajada amalga oshirish, kamsitishning yo‘qligi (yoshi, jinsi, kasbiy va boshqalar), to‘g‘ri mehnat sharoitlari, samarali ijtimoiy himoya tizimi va o‘z-o‘zini ish bilan ta’minalash uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat bo‘lishi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun ishchi kuchining sifat xususiyatlarini yaxshilash, ish o‘rinlari taklifini miqdoriy va sifat jihatidan oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faollashtirish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Bunda albatta, viloyatda ishsizlikni kamaytirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bu borada mehnat bozorining o‘ziga xosligi, uning boshqa bozorlardan farqini keltirib o‘tish lozim. O‘z mazmuniga ko‘ra mehnat bozori uch qismdan iborat:

1. Potensial, ya’ni mehnatning o‘zi shakllanadigan soha (uy va shaxsiy uy ishlarida band bo‘lgan shaxslar; sirtqi bo‘limda o‘qiyotgan talabalar va litsey o‘quvchilari; harbiy xizmatchilar; fermerlar; tadbirkorlar va boshqa mehnatga layoqatli aholi).

2. Aylanma, ya’ni ishchi kuchini sotib olish va sotish sohasi (o‘z ish kuchi sotuvchisi amalda ishsiz bo‘lgan holda ish izlab korxonalar o‘rtasida harakat qiladi: friksion, tarkibiy va siklik ishsizlikda bo‘lgan shaxslar; safdan bo‘shatilgan

harbiy xizmatchilar: armiya va dengiz floti, ish qidirayotgan nafaqaxo‘rlar, qayta tayyorlash, malaka oshirish va jamoat ishlarida o‘tayotgan shaxslar).

3. Korxona ichidagi (ishchilarni qisqartirish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va kengaytirish, yangi qurilish, korxona ishining o‘zgaruvchanlik koeffitsientini oshirish, ish joylariga ko‘chishlar tufayli bo‘sh ish o‘rinlari tufayli bevosita korxonalarda harakatlanuvchi shaxslar). mehnat bozorining mazmuniga ko‘ra farqlanishini e’tiborga olgan holda Toshkent viloyati mehnat bozori o‘zgarishi va rivojlanishining ekonometrik baholash uchun 2-ssenariy bo‘yicha viloyatdagi ishsizlik darajasi – Yga ta’sir etuvchi korxonalar soni – X_3 , aholi jon boshiga real daromadlar – X_4 , o‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi- X_5 va iqtisodiyotda band aholining jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi – X_6 omillari tanlab olindi. Dastlab ushbu omillar o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanish darajasini aniqlab olamiz (3.7-jadval).

3.7-jadval

2-ssenariy bo‘yicha Toshkent viloyatida mehnat bozori samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti

| | Y | X_3 | X_4 | X_5 | X_6 |
|-------|----------|----------|----------|----------|-------|
| Y | 1 | | | | |
| X_3 | 0,928982 | 1 | | | |
| X_4 | 0,891295 | 0,687302 | 1 | | |
| X_5 | 0,908534 | 0,584386 | 0,773596 | 1 | |
| X_6 | 0,878841 | 0,660722 | 0,743851 | 0,679389 | 1 |

Jadval qiymatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, viloyatdagi ishsizlik darajasiga nisbatan korxonalar soni – X_3 ($r_{Y,X3}=0,928982$), aholi jon boshiga real daromadlar – X_4 ($r_{Y,X4}=0,891295$) o‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi- X_5 ($r_{Y,X5}=0,908534$) va iqtisodiyotda band aholining jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi – X_6 ($r_{Y,X6}=0,878841$) omillari kuchli zichlikda to‘g‘ri bog‘langan

bo‘lib, omillar o‘rtasida $r_{x1,x2} < 0,8$ shartga ko‘ra multikoleniarlik mavjud emasligidan jarayonni davom ettirishimiz mumkin.

Buning uchun birinchi navbatda, tanlab olingan omillar o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi bois, omil ko‘rsatkichlarini logorifmlab chiziqsiz tenglamani hosil qilish bilan birga uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi. Unga ko‘ra, kuzatilayotgan bog‘liqlik o‘rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin (3.8-jadval).

3.8-jadval

2-ssenariy bo‘yicha Toshkent viloyatida mehnat bozori samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi regressiya tenglamasi natijalari

Dependent Variable: LNY

Method: Least Squares

Date: 11/25/22 Time: 00:05

Sample: 2000 2021

Included observations: 22


| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
|--------------------|-------------|------------------------------|-------------------------------|----------|
| LNX3 | -1.166770 | 0.990427 | -1.178047 | 0.0542 |
| LNX4 | -0.498439 | 0.151994 | -3.279330 | 0.0044 |
| LNX5 | 2.067970 | 0.672634 | 3.0744357 | 0.0025 |
| LNX6 | -0.437632 | 1.018315 | -0.429761 | 0.0313 |
| C | 0.117084 | 5.223590 | 0.243288 | 0.0107 |
| | | | t _{jad} =2,109815578 | |
| R-squared | 0.733180 | Mean dependent var | | 1.873683 |
| Adjusted R-squared | 0.670398 | S.D. dependent var | | 0.501829 |
| S.E. of regression | 0.288105 | Akaike info criterion | | 0.545732 |
| Sum squared resid | 1.411076 | Schwarz criterion | | 0.793697 |
| Log likelihood | -1.003056 | Hannan-Quinn criter. | | 0.604145 |
| F-statistic | 11.67831 | Durbin-Watson stat | | 1.878652 |
| Prob(F-statistic) | 0.000096 | F _{jad} =0,33730133 | | |

Hisob-kitob natijalari bo‘yicha jadvalda keltirilgan koeffitsientlar qiymatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglmani hosil qilinadi:

$$LnY = -1.17LnX3 - 0.5LnX4 + 2.068LnX5 - 0.44LnX6 + 0,12 \quad (3.6)$$

Aniqlangan 3.6-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistic mezonlari bo‘yicha ahamiyatliligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, $\alpha=0,05$ va $df=17$ bo‘lgan holda $t_{jad}=2,1098$ ga tengligidan aholi jon boshiga real daromadlar – X_4 ($t_{X4}=-$)

$3.279 > t_{\text{Jad}} = 2,1098$) o‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqiqatligini retrospektiv sifat mezonlari MAPE va TIC bilan tekshirish talab etiladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. 3.6-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi

3.1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga asosan ta’kidlash mumkinki, $\text{MAPE}=10,5$ bo‘lib, bu o‘z navbatida $\text{MAPE}=10,5 < 20\%$ prognoz aniqligi yuqori va $\text{TIC}=0,07 < 1$ koeffitsient shunchalik nolga intilishidan 3.6-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatliligi kelib chiqadi. Logorifm qoidalariga va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 3.6-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko‘ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y = \frac{X_5^{2.068} \cdot e^{0.12}}{X_3^{1.17} \cdot X_4^{0.5} \cdot X_6^{0.44}}$$

$$(3.6^*)$$

Hosil qilingan 3.6*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatliliginini $\alpha=0,05$ va $k_1=17$; $k_2=4$ bo‘lganda $F_{\text{Jad}}=0,33730$ ga tengligini e’tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati $F_{\text{his}}=11.68$ tengligidan $F_{\text{Jad}} < F_{\text{his}}$ shartga binoan 3.6*-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda $DW=1,88$ teng bo‘lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglanamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 3,6*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo'lsak, korxonalar sonini, aholi jon boshiga real daromadlarni va O'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqini 1,0 foizga oshirilsa, Toshkent viloyatidagi ishsizlik darajasi mos ravishda 0,1 foizga, 0,02 foiz va 0,01 foizga qo'shimcha qisqartirish mumkinligi aniqlandi. Bundan ko'rindiki viloyatda birinchi masala sifatida yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, Toshkent viloyati mehnat bozori ishsizlikning sezilarli darajada saqlanib qolishi, yashirin ishsizlik bilan tavsiflanadi, bu uzoq vaqt ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning murakkablashishi davomida hal etilmagan ko'plab muammolar va qarama-qarshiliklar natijasidir. Umuman olganda, Toshkent viloyati mehnat bozorining zamonaviy modeli quyidagi kamchiliklar bilan tavsiflanadi:

- mehnat munosabatlarini haddan tashqari tartibga solishdan kelib chiqqan bandlik sohasining qattiqligi;
- bandlik siyosati va mehnatga haq to'lashni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, tarmoq, hududiy, investitsiya, kredit siyosatiga mos kelmasligi;
- bandlik sohasini tartibga solishda faol yondashuvning yo'qligi, bu allaqachon shakllangan muammolar va mavjud tahdidlarga ko'pincha o'z vaqtida javob bermaslikda, ularning oldini olishga qaratilgan tegishli choralar ko'rilmaganda namoyon bo'ladi;
- mehnat bozorining ta'lim xizmatlari bozoriga nomuvofiqligi, bu esa ishchi kuchiga talab va taklifning miqdoriy hamda kasbiy-malakaviy nomutanosibligining kuchayishiga va yoshlarning ishsizligi muammosining keskinlashuviga olib keladi;
- yangi sifatli ish o'rinalarini yaratish hamda yoshlar va yuqori malakali ishchi kuchini jalb etishga ko'maklashuvchi iqtisodiy mexanizmlardan past darajada foydalanish;
- samarali bandlikni ta'minlash uchun samarali rag'batlantirish mavjud bo'limganda, ishsizlarning qaram munosabatlarini qo'llab-quvvatlashga davlat siyosatining e'tibori;

- ixtisoslashtirilgan davlat dasturlari samaradorligining pastligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning eskirganligi va nomuvofiqligi, qoidalarining xalqaro standartlarga etarli darajada moslashtirilmaganligi, mehnat munosabatlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashning samarali mexanizmining mavjud emasligidan iborat bo'lgan mehnat qonunchiligining nomukammalligi.

O'zbekiston Respublikasida ishsizlikni kamaytirish bo'yicha davlatning faol chora-tadbirlari bir qator vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xususan: ichki mehnat bozoridagi inqirozli hodisalarni bartaraf etish va samarali bandlikni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli dasturni ishlab chiqish va qabul qilish. Bunda Vazirlar Mahkamasining belgilangan dasturini ishlab chiqish uchun idoralararo ishchi guruhini tuzish zarur bo'lib, Dastur ishsizlik, ayniqla, yashirin ishsizlik darajasini pasaytirish, deklarasiya qilinmagan bandlikni qisqartirish, munosib mehnat konsepsiyasini amalga oshirish, ishsiz yoshlarni ish bilan ta'minlash, ishsizlik darajasini oshirish ishsizlar va mehnatga layoqatsiz aholi toifalarini ijtimoiy himoya qilish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish orqali mehnat bozoridagi keskinlikni bosqichma-bosqich pasaytirishga erishadi.

Shuningdek, Dasturda belgilangan chora-tadbirlar davlat va bozorni tartibga solish vositalarining mutanosib kombinasiyasiga asoslanishi va ularni amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlarini (kutilayotgan natijalarni) ta'minlashi kerak, bu esa davriy monitoring va bosqichma-bosqich baholash jarayonida uni amalga oshirish samaradorligini o'lhash imkonini beradi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtaсидаги maksimal muvofiqlikni ta'minlash muammosini hal qilish sifatli ish o'rinalarini yaratish masalasini dolzarblashtiradi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya hamda O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar kursi yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiyotning an'anaviy tarmoqlaridagi korxonalar faoliyatini innovasion texnologiyalar asosida yangilash zarurligini hisobga olishi kerak.

§3.2. Mintaqada mehnat bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Toshkent viloyati mehnat bozorini tahlil qilish hamda tadqiq etish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbaini shakllantirish aholini samarali mehnat faoliyati bilan bandlik sohasidagi ilmiy ishlanmalar, yangi uslubiy qarashlar hamda mehnat bozori ko‘rsatkichlarining turli tizimlari to‘g‘risida axborot to‘plash jarayoni nazarda tutiladi. Axborot tizimidagi yana bir muhim vazifa mehnat resurslari va ishchi kuchi bozorini tahlil qilish, ilmiy asoslangan tartibga solish va prognozlashning xalqaro tajribalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ishdir. Bu erda rivojlangan davlatlar amaliyoti va mamlakatimizda qo‘llanadigan hisoblash metodlarining taqqoslanishi va bu boradagi tushunchalarning bir xil bo‘lishi muhimdir. Rivojlangan davlatlar tajribasidan shu ma’lum bo‘ladiki, aholining ish bilan bandligi va ishsizlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarning birlamchi manbai uy xo‘jaliklarini tanlanma kuzatish va “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik” vazirligi qoshidagi bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan beriladigan ma’lumotlardir.

Toshkent viloyati mehnat bozorini rivojlanishida inson omili, uning sifat darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Viloyat bu borada juda katta imkoniyat va salohiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda undan etarli darajada foydalanilmayapti. Bu esa, o‘z navbatida, kelajakda Toshkent viloyatida sezilarli iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelish xavfini tug‘diradi. Mintaqada inson omili sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui viloyatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim va uning sifatiga bog‘liqdir. Viloyatda sifatli ta’lim jarayonini tashkil etishda hamda buning natijasida yuqori mehnat unumdorligini ta’minlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Viloyat aholisining ta’lim bilan qamrab olish darajasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa maktabgacha va oliy ta’lim tizimida ushbu ko‘rsatkichlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, aynan maktabgacha ta’lim tizimi kelajakdagi mehnat resurslarining turli kasbiy ko‘nikmalarni egallashi hamda ularning sifatini

oshishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etib, mehnat unumdorligi darajasini o‘sishiga olib keladi. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish natijasida ayollar bandligining oshishiga ham sharoit yaratiladi. Shuningdek, ta’lim qamrovini oshirishda xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari tizimini shakllantirish masalasi aholining ushbu ta’lim turiga bo‘lgan ehtiyojlarining ma’lum bir qismini qondirishga xizmat qiladi. Shu sababdan, Toshkent viloyatida maktabgacha ta’lim qamrovi hamda uning moddiy-texnik ta’minlanganlik darajasini oshirish o‘rtta muddatli istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hususiy sektorni kadrlar tayyorlash tizimi bilan kooperasion jarayonga jalb etish bugungi kunda viloyat miqyosida etarlicha o‘zini oqlay olmayapti. Shuning uchun, ushbu yo‘nalishda mahalliy xokimiyat va biznes vakillari bilan hamkorlikda klaster tizimini yaratishni, yanada kengaytirishni va jadallashtirishni talab etadi.

3.1-jadval

Toshkent viloyati aholisini ta’lim bilan qamrab olish to‘g‘risida ma’lumot

| Yillar | Toshkent viloyati doimiy aholi soni (ming kishi) | Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni (dona) | Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar soni (kishi) | Umumta’lim muassasalar soni (dona) | Umumta’lim muassasalarda tahsil olayotgan o‘quvchilar soni (kishi) | Oliy ta’lim muassasalari soni (dona) | Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotganlar soni (kishi) |
|-------------|--|--|--|------------------------------------|--|--------------------------------------|---|
| 2010 | 2585,9 | 459 | 50502 | 891 | 409711 | 2 | 12290 |
| 2011 | 2644,4 | 457 | 52206 | 886 | 391767 | 2 | 11963 |
| 2012 | 2671,0 | 454 | 53587 | 884 | 379823 | 2 | 10376 |
| 2013 | 2695,7 | 456 | 56087 | 879 | 373535 | 2 | 9119 |
| 2014 | 2725,9 | 450 | 60310 | 877 | 370567 | 1 | 8255 |
| 2015 | 2758,3 | 440 | 62714 | 877 | 373566 | 1 | 7350 |
| 2016 | 2794,1 | 440 | 64049 | 871 | 383275 | 1 | 7191 |
| 2017 | 2829,3 | 452 | 67494 | 870 | 398103 | 3 | 7286 |
| 2018 | 2861,2 | 517 | 72335 | 872 | 430574 | 5 | 8089 |
| 2019 | 2898,5 | 569 | 84216 | 892 | 478988 | 5 | 14882 |
| 2020 | 2941,9 | 688 | 86313 | 894 | 510778 | 8 | 20914 |
| 2021 | 2975,9 | 607 | 112688 | 897 | 517837 | 8 | 28509 |

Manba: Statistika agentli Toshkent viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

3.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, Toshkent viloyatida 2010-yilda xar 1000 kishi nisbatan maktabgacha ta’lim

muassasalari soni 0,17 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 0,21% ni tashkil etgan. Maktabgacha ta'lif muassasalarida tarbiyalanuvchilar soni esa mos ravishda 2010-yilda 1,95% ni 2021-yilda esa 3,78 % ni tashkil etgan. Bu o'z navbatida viloyat aholisining maktabgacha ta'lif muassasalari xizmatlaridan foydalanish darajasi ortganligini bildiradi. Viloyatdagi umumta'lif muassasalari esa 2010 yilda xar 1000 kishigan nisbatan 0,35% ni tashkil etgan bo'lsa 2021-yilda 0,30 % ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. E'tiborli jihat shundan iboratki 2010-yilda Toshkent viloyatida 2 dona oliy ta'lif muassasi bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ta'lif muassasalari soni 8 taga etgan.

Toshkent viloyatida sifatli ish o'rinlarini yaratishda viloyat iqtisodiyotining soha va tarmoqlarini yanada rivojlantirish asos bo'lib xizmat qiladi. Jahon tajribasidan ma'lumki, sifatli ish o'rinlarining aksariyat qismi sanoatda yaratiladi. Uzoq muddatli istiqbolda sanoatning metallurgiya, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoati, engil sanoat, oziq-ovqat sanoati, farmasevtika sanoati tarmoqlarida istiqbolli loyiha va chora-tadbirlarni amalga oshirish mintaqada barqaror yangi ish o'rinlarini tashkil etishga zamin yaratib, kelajakda bandlik darajasining barqaror oshishini ta'minlaydi. Shuningdek, yangi ish o'rinlarining doimiyligini saqlash ham yaqin va uzoq muddatli istiqbolda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Mehnat va bandlik sohasida ijtimoiy hamkorlik, institutsional muhit va mehnat bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish mehnat bozoridagi munosabatlarni yaxshilashga olib keladi. Turli bo'g'indagi davlat organlari, ish beruvchilar va infratuzilma ob'ektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hududiy mehnat bozoridagi muammolarni echishda barcha ijtimoiy hamkorlarning shakllantirilishi lozim bo'lgan mehnat bozori klasterida faol ishtirokini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, hududiy mehnat bozorida yagona axborot almashinuvini yo'lga qo'yish ish beruvchilar va ish izlovchilar uchun ish topish jarayonini tezlatishga imkon beradi⁵⁰.

⁵⁰ Bazarova Gulnora Gulamovna-Andijon mashinasozlik instituti Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti. "Hududiy mehnat bozorini rivojlantirishning klaster shaklini yaratish" Iqtisodiyot va ta'lif / 2021 № 1

Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ladiki, axborot bazasi sifatida hududdagi mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi taklif etilgan bandlik sektorlarida 2010-2022-yillardagi statistik hisobotlar va bandlik idoralari ma'lumotlari, o'tkazilgan aniq sosiologik tadqiqotlar natijalari, respublika xo'jaliklari rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Toshkent viloyati mehnat bozori shakllanishining rasional parametrlarini aniqlash bo'yicha ko'p variantli hisob-kitoblar yaqin davrdagi 2010–2022-yillar uchun o'tkazildi.

Shu nuqtai nazardan ham 2022-yilda 2010-yilga nisbatan yangi yaratilgan ish o'rirlari 102,9 % ga, shu jumladan qishloq joylarda 103,8 % ga o'sganligi ko'rishimiz mumkin.

Hududda mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi ko'p jihatdan mehnat resurslari taklifi ko'rsatkichlari va dinamikasi bilan belgilanadi. Mehnat bozorining mehnat resurslari taklifi modellari bo'yicha hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilayotgan davrlarda respublikada aholi soni istiqbolda 406,7 ming kishiga oshgani holda mehnat resurslari va iqtisodiyotda band bo'lганlar soni qariyb 147,1 ming kishiga o'sdi.

Tadqiqotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi mehnat bozorida 2022-yilgacha bo'lган davrda har yili kamida o'rtacha 290–300 mingga yangi ish o'rinarini tashkil etilgani aniqlandi. Yangi tashkil etilgan kasbga yo'naltirilgan texnikumlar hisobiga o'rta malakali xodimlar salmog'i 21,2 foizga va oliy ma'lumotli mutaxassislar 6,3 foizga ortgan. Aholining ma'lumotlik darajasii o'sishiga qishloqda o'rta maktablar moddiy-texnik bazasining kengayishi, yangi kasbga yo'naltirilgan texnikumlar va akademik litseylarning ishga tushirilishi hamda oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishga qiziqishning kuchayishi katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu muassasalarining bozor uslubida xo'jalik yuritishga o'tishi raqobat muhitini yuzaga keltirdi va malakali xodimlar tayyorlash imkoniyatini ko'paytirdi.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish hisobiga aholi bandligining o'sishi kuzatildi. Aholining mehnatga qobiliyatli ayollarning malaka

darajasi etarli emasligi va kasbiy tayyorgarliklari ish joylariga to‘liq mos kelmasligi natijasida ijtimoiy ishlab chiqarishda kamroq band bo‘ldilar.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, mehnatni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar tadbiq etilishi, mulkchilikning turli shakllari vujudga kelishi va malakali xodimlar yollash bo‘yicha bozor munosabatlarining rivojlanishi natijasida shaxsiy mehnat faoliyati sektorida bandlik va oilaviy biznes sohalaridagi mehnat jadal rivojlandi.

3.2-jadval

Toshkent viloyati mehnat resurslari tarkibining o‘zgarish dinamikasi

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | | 2022-yil 2017-yilga nisbatan o‘zgarishi | |
|--|--------|--------|--------|--------|--------|--------|---|-------|
| | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | (+;-) | (%) |
| Mehnat resurslari soni | 1623,9 | 1627,2 | 1607,3 | 1614,9 | 1622,5 | 1616,3 | -7,6 | 99,5 |
| Doimiy aholiga nisbatan, %da | 57,1 | 56,5 | 55 | 54,7 | 55,2 | 54 | -3,1 | 94,6 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi | 1610,5 | 1613,7 | 1597,2 | 1604,6 | 1608,4 | 1602,7 | -7,8 | 99,5 |
| Doimiy aholiga nisbatan, %da | 56,6 | 56 | 54,7 | 54,4 | 54,7 | 53,5 | -3,1 | 94,5 |
| Mehnat resurslariga nisbatan, %da | 99,2 | 99,2 | 99,4 | 99,4 | 99,1 | 99,2 | 0 | 100,0 |
| Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagи ishlovchilar | 13,4 | 13,5 | 10,1 | 10,3 | 14,1 | 13,6 | 0,2 | 101,5 |
| Doimiy aholiga nisbatan, foizda | 0,5 | 0,5 | 0,3 | 0,3 | 0,5 | 0,5 | 0 | 100,0 |
| Mehnat resurslariga nisbatan, %da | 0,8 | 0,8 | 0,6 | 0,6 | 0,9 | 0,9 | 0,1 | 112,5 |

Manba: Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Toshkent viloyati mehnat resurslari soni 2022-yilda 1616,3 ming kishini tashkil etib, 2017-yilning mos dariga nisbatan 7,6 ming kishiga yoki 0,5 % ga kamaygangani xolda doimiy aholiga nisbatan 3,1 ming kishiga yoki 5,4 % ga kamayganligini ko‘rsatadi. Mehnatga layoqatli yoshdagи mehnatga layoqatli aholi soni esa 7,8 ming kishiga yoki 0,5 % ga kamayib, doimiy aholi soniga nisbatan 3,1 ming kishiga yoki 5,5 % ga, mehnat resurslariga nisbatan o‘zgarishsiz qolganligini kamayganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagи ishlovchilar 0,2 ming kishiga yoki 1,5 % ga ko‘paygan bo‘lsa doimiy aholi soniga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan, mehnat resurslari soniga nisbatan esa 0,1 ming kishiga yoki 12,5 % ga ko‘paygan.

Mehnatga layoqatli yoshdag'i mehnatga layoqatli aholinig doimiy aholiga nisbatan ulushi 54,7 foizni, mehnat resurslariga nisbatan 99,1 foizni tashkil qildi. Taklif qilingan mehnat resurslarining yosh tuzilishida mehnatga layoqatli shaxslar etakchi (97,3 %) o'ringa ega. (3.2-jadval)

Shu bilan birga so'nggi besh yilda oilada bola parvarishi va uy xo'jaligi ishlari bilan band bo'ladigan hamda uy bekalari, harbiylar va ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'limgan boshqa shaxslarning aholi tarkibidagi ulushi o'zgarmagani holda soni qariyb 0,3 ming kishiga ortadi. O'rganilayotgan davrida mehnat resurslari sonining 2012-2021-yillar mobaynida 2,72 foizga yoki qariyb 42,9 ming kishiga ortishi bilan bir vaqtida ishsizlar soni ham 8,1 ming kishiga ko'paygan. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish idoralari tomonidan ro'yxatga olinadigan ishsizlar sonining 2022-yilga kelib, deyarli ikki baravar ortishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

Birinchidan, davlatning faol bandlik siyosati va ishsizlarga beriladigan nafaqa miqdori oshirilishi natijasida ish bilan band bo'limganlar rasmiy ro'yxatdan o'tishi ko'payishi;

Ikkinchidan, mazkur idoralar qoshida malakali mehnat resurslari taklifini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan kasbiy markazlar faoliyati kuchayishi;

Uchinchidan, mehnat resurslariga talab segmentlari tomonidan bo'sh ish o'rirlari yuzasidan axborot almashuvi rivojlanishi ta'sirida band bo'limgan aholining munosib ish joylarini egallashga qiziqish kuchayishi.


Mehnat resurslari taklifini shakllantiruvchi ijtimoiy ko'rsatkichlar unga bo'lgan talabni vujudga keltiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'liq. Mehnat resurslariga bo'lgan talabning statistik tahlil yordamida respublika yalpi ichki mahsuloti, iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud asosiy vositalar qiymati va boshqalarning istiqboldagi ko'rsatkichlari aniqlandi.

2022-yilning dastlabki ma'lumotlari asosida Toshkent viloyatida ishsizlik darajasi 8,8 foizni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 1,7 foizga kamaygan. 2022-yilda mehnat resurslari soni 1,6 mln kishini tashkil etib, 2020-yilning shu davriga nisbatan 0,5 foizga yoki 7,6 ming kishiga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida

band bo‘lganlar soni 1,2 mln kishini tashkil etib, mos davriga nisbatan 2,2 foizga (26,5 ming kishiga) oshgan. Rasmiy sektorda band aholi soni 218,5 ming kishini tashkil qilib, 2020-yilning shu davriga nisbatan yuridik shaxslarda band bo‘lganlar soni 7,4 foizga yoki 15,1 ming kishiga oshgan. Norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni 1003,6 ming kishini tashkil etib, joriy yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,1 foiz yoki 29,9 ming kishiga ko‘paygan. Ishga joylashtirishga muhtoj bo‘lganlarning viloyat bo‘yicha umumiyligi soni 116,9 ming kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 8,8 foizni tashkil etdi. 16-30 yoshgacha bo‘lganlar orasida ishsizlik darajasi 14,9 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi 12,8 foizni tashkil etgan. 2022-yil Toshkent viloyatida iqtisodiy nofaol aholi 1222,1 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga yoki 26,5 ming kishiga ortishi kuzatildi. Ma’lumotlarni tahlil qilish natijasidagi hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, 2022-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 18 884,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 8,1 % ga o‘sdi. **YaIM defilyator indeksi** 2021-yil yanvar-mart oylaridagi narxlariga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi.

3.3-jadval

Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutloq o‘sish sur’atlari, % da



Manba: Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Toshkent viloyati hududlarining iqtisodiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YaHM ni o‘sishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Demak, qishloq,

o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘sish sur’ati 103,2 % (YaHM tarkibidagi ulushi 13,3%), sanoat 109,6% (YaHM dagi ulushi 54,1%), qurilish 105 % (YaHM dagi ulushi 5,7 %), savdo, yashash hamda ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 113,1% (YaHM dagi ulushi 6,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,8 % (YaHM dagi ulushi 4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlari 106 % (YaHM dagi ulushi 15,6 %) ni tashkil etmoqda.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda Toshkent viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 93 433,1 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2021-yil bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o‘sdi. YaHM deflyator indeksi 2021-yil narxlariga nisbatan 108,1% ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo‘sghan hissasi 10,5 % ga etdi. Xususan, 2022-yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiylar YaHMning 96,1 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi. Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jalogining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 22,1 % ni, sanoat tarmog‘i 47,9 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 24,2 % ni tashkil qildi, ushbu ko‘rsatkichning ko‘tarilishi o‘z navbatida yirik korxonalar ulushi ortishi bilan izoxlanadi. 2022-yil uchun YaHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 104,0% (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 22,1 %), sanoatda – 105,1 % (47,9 %), qurilishda – 107,7 % (5,8 %), xizmatlar sohasida – 105,4 % ni (24,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 111,7 % (6,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,4 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,4 % dan (13,3 %) iborat bo‘ldi. 2022-yilda kichik tadbirkorlik 41-710,8 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021-yilda – 36 083,7 mlrd. so‘m), YaHMdagi ulushi 46,5 %ni tashkil qildi (2021-yilda – 45,6 %). Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

3.4-jadval

Toshkent viloyati mehnat resurslarining tarkibiy tuzilishi⁵¹

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | 2022 yil 2017 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|---|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---|-------|
| | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | | |
| Mehnat resurslari soni | 1 623,9 | 1 627,2 | 1 607,3 | 1 615,4 | 1 622,5 | 1 616,3 | -7,6 | 99,5 |
| Bandlar - jami | 1 289,6 | 1 227,7 | 1 232,9 | 1 177,2 | 1 222,1 | 1 206,7 | -82,9 | 93,6 |
| Iqtisodiyot tarmoqlarida bandlik darajasi | | | | | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 338,4 | 322,9 | 322,2 | 304,2 | 279,5 | 280,7 | -57,7 | 82,9 |
| tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | 9,7 | 9,2 | 9,2 | 10,3 | 9,9 | 9,3 | -0,4 | 96,2 |
| ishlab chiqaradigan sanoat | 229,9 | 228,9 | 234 | 237,6 | 248 | 238,8 | 8,9 | 103,9 |
| suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi. | 6,7 | 7 | 4,7 | 5 | 5,3 | 5,1 | -1,6 | 76,2 |
| qurilish | 122 | 112,8 | 124,6 | 119,5 | 125,3 | 115,7 | -6,3 | 94,9 |
| tashish va saqlash | 67,2 | 63,9 | 63,8 | 58,7 | 60,9 | 56,2 | -11,0 | 83,6 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 33,9 | 32,9 | 31,2 | 29,3 | 32,1 | 31,3 | -2,6 | 92,4 |
| axborot va aloqa | 2,7 | 2,7 | 2,4 | 2,8 | 3 | 3,2 | 0,5 | 118,6 |
| yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 3,5 | 2,9 | 5,3 | 6,2 | 7 | 7,9 | 4,4 | 224,4 |
| davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot | 66,2 | 75,1 | 75,7 | 74,4 | 74,4 | 76,8 | 10,6 | 116,0 |
| ta'lim | 80,6 | 80,7 | 81,6 | 80,5 | 88,1 | 88,9 | 8,3 | 110,3 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 49,7 | 49,8 | 49,1 | 49,9 | 57,1 | 55,4 | 5,7 | 111,5 |
| san'at, ko'ngil ochish va dam olish | 1,9 | 1,9 | 2,4 | 2,5 | 2,5 | 2,8 | 0,9 | 149,2 |
| Ish bilan band aholining mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlanishi | | | | | | | | |
| Davlat sektori | 200,8 | 208,2 | 211,3 | 203,4 | 218,5 | 221,3 | 20,5 | 110,2 |
| Nodavlat sektori | 1088,8 | 1019,5 | 1021,6 | 973,7 | 1003,6 | 1002,5 | -86,3 | 92,1 |

3.4-jadval ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ladiki, istiqbolni belgilash davrida mehnat bozorida mehnat resurslari tarkibida 2022-yilda 2017-yilga nisbatan mehnat resurslari 7,6 ming kishiga yoki 0,5 % kamaygan. 2022-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar soni esa 1206,7 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 82,9 ming kishiga yoki 6,4 % kamaygan bo'lsa, iqtisodiyot tarmoqlarida eng past ko'rsatkich qishloq, zo'rmon va baliq xo'jaligi sohsida kuzatilgan bo'lib, 2022-yilda 280,7 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 57,7 ming kishiga yoki 11,1 % ga kamayganligini ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish esa ishlab chiqariladigan sanoat sohasiga tegishli bo'lib, 2021-yilda 238,8 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 8,9 ming kishiga yoki 3,9 % ga oshgan. 2022-yilda davlat sektorida ish bilan band aholi soni 221,3 ming kishini

⁵¹ Statistika agentligining Toshkent viloyat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 20,5 ming kishiga yoki 10,2 % oshgan. Nodavlat sektorda bandlar esa 2022-yilda 1002,5 ming kishini tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 86,3 ming kishiga yoki 7,9 % ga kamayganligini ko‘rstamoqda. (3.4-jadval)

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, asosiy fondlar qiymatining yalpi mahsulotga nisbatan jadalroq o‘sishini, bir tomondan, 2020-yil 1-yanvardan boshlab, yil boshiga asosiy fondlar qayta baholanishi joriy etilishi bilan, ikkinchi tomondan, yangi tashkil etilayotgan fermer xo‘jaliklarida o‘tkazilgan sosiologik tadqiqot davomida aniqlanishicha, qariyb 25 foiz fermer xo‘jaligi asosiy fondlarga ega emasligi bilan (er bundan mustasno) izohlash mumkin. Bu o‘z navbatida, yaqin davrda ularning o‘z va qarz mablag‘lari hisobidan u yoki bu turdagি texnika, texnologiyalar, mashina-jihozlar va boshqa investitsiyalarni jalb etishlaridan dalolat beradi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining asosiy tayanchi bo‘lgan fermer xo‘jaliklarida band bo‘lganlar soni 55,6 ming kishidan kamayib borishi iqtisodiyotning boshqa sektorlarida yuzaga keladigan mehnat resurslariga qo‘srimcha ehtiyoj miqdoriga muvofiq keladi. Mehnat resurslariga yaqin kelajakda bo‘ladigan talab ko‘rsatkichlari unga bo‘lgan taklif miqdorini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sektorida ish bilan band bo‘lgan ortiqcha mehnat resurslari taklifi iqtisodiyotning boshqa sektorlarida qo‘srimcha ehtiyojlarni to‘liq qanoatlantiradi. Mehnat resurslariga yaqin kelajakda bo‘ladigan talab ko‘rsatkichlari unga bo‘lgan taklifning miqdorini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4742-sonli qaroriga asosan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati 69 tagacha ko‘paytirilib, o‘zini ish bilan band qilgan ko‘plab fuqarolarga qonuniy asosda faoliyat yuritishi hamda yoshga doir pensiyasiga chiqishi uchun qulay imkoniyat yaratildi. Bunday engilliklardan unumli foydalanayotgan fuqarolar soni

yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan 2021-yil 1-iyul holatiga Respublikamiz 852 ming nafardan ortiq o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ro‘yxatga olingan bo‘lsa, hozirda ularning soni 1 million 400 ming nafarga yaqinni tashkil qilmoqda”⁵².

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasidagi 100 ta maqsaddan 34 tasi yoki 37-70 maqsadlar adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, “yangi ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek aholi daromadlarini oshirish va shular orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan”⁵³.

2022-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo‘yicha 5 million 750 ming nafar fuqaroni doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish vazifasi belgilangan edi.

2021-yilda 2020-yilga nisbatan jami 3 million 434 ming nafar fuqoroni doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarga jalb qilish orqali ularning bandligi ta’minlangan. Mehnat bozoridagi tendensiyadan kelib chiqib, tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari tomonidan o‘tgan davrda 437,4 ming nafar ish bilan band bo‘lmagan shaxsga bandlik xizmatlari ko‘rsatilib, 205,5 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2021-yilda aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari tomonidan 210,4 ming nafar ishsiz shu jumladan chet eldan qaytib kelgan fuqarolarga mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga ishga joylashishiga ko‘maklashilgan. Shundan 109 ming nafari (51,8 foiz) ayollarni, 66,7 ming nafari (31,7 foiz) yoshlarni tashkil etgan.

2021-yilda 12 mingga yaqin ehtiyojmand, ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar band qilingan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilgan. 2021-yilda 76 ming nafar ish bilan band bo‘lmagan fuqaro kasb-

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4742-sonli Qarori.

⁵³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. // <https://lex.uz/docs/5841063>

hunarga, tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitilgan. Shundan 59,7 ming nafari ayollarni, 38,7 ming nafari yoshlarni tashkil etgan.

Yalpi hududiy mahsulot tuzilishida hali ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sektori etakchi o'rinni (38,1%) saqlab turadi, keyingi o'rirlarni qayta ishlash sanoati (27,2%) va xizmat ko'rsatish (31,2%) sektorlari egallaydi. Bu kelajakda iqtisodiyotning barcha sektorlarida mehnat unumdarligi 2,2 marta ortishiga, shu jumladan, mulk shakli o'zgarishi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sektorida 1,5 marta, qayta ishlash sanoati va xizmat ko'rsatish sektorlarida esa 1,4 martaga oshishini asoslaydi. Ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ladiki, ushbu sektorlarda mehnat unumdarligining o'sishiga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida moddiy-texnik ta'minotining yaxshilanishi, investitsiyalar hajmining ortishi, asosiy ishlab chiqarish fondlari va ish vaqtidan yanada samarali foydalanish va xodimlar moddiy manfaatdorligini oshirish katta ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, iqtisodiyot sektorlari bo'yicha istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning tahlili natijasida xulosa qilish mumkinki, respublikada mehnat bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

§3.3. Toshkent viloyati mehnat resurslarining istiqbolda o'zgarish dinamikasi prognozi

Qator darajalari o'rtasidagi mutloq farqlar (mutloq o'sishlar) deyarli o'zgarmas miqdor (konstanta) bo'lsa yoki bir biridan juda kam farqlansa, ya'ni darajalar arifmetik progressiya yoki unga yaqin shaklda o'zgarsa, ularni vaqtli to'g'ri chiziqli funksiyasi deb qarash mumkin. $Y_t = a_0 + a_1 t$

Bu izlanayotgan to'g'ri chiziqning a_0 va a_1 parametrlari (tenglamaning noma'lum hadlari) eng kichik kvadratlar usuli yordamida normal tenglamalar tizimini echish yo'li bilan aniqlanadi:

$$Na_0 + a_1 \sum t = \sum Y$$

$$a_0 \sum t + a_1 \sum t^2 = \sum Yt$$

Vaqt sanog‘ini qator markazidan boshlab, bu tizimni birmuncha soddalashtirish mumkin. Darajalar soni toq bo‘lsa, qator o‘rtasidagi markaziy nuqta - davrni (oy, yil va h.k.) nol deb qabul qilsak, u holda undan oldin o‘tgan davrlar tegishlicha -1, -2, -3, va h.k. manfiy ishorali tartib sonlari orqali belgilanadi, markazdan keyin keladigan davrlar esa +1, +2, +3, va h.k. musbat ishorali tartib sonlari bilan ifodalanadi. qator darajalari juft bo‘lsa, u holda qatorning o‘rtasidagi ikkita davr - nuqta -1 va +1 orqali, barcha boshqa davrlar esa ikkiga ko‘payib boruvchi sonlar bilan ifodalanadi, jumladan -1 bilan belgilangan davrdan yuqoridagilar -3, -5, -7 va h.k. manfiy ishorali ikkiga ko‘payuvchi sonlar bilan, pastdagilar esa 3, 5, 7 va h.k. musbat ishorali ikkiga ko‘payuvchi sonlar belgilanadi.

Vaqt sanog‘ini nol’dan boshlaganda $Y_t=0$ bo‘ladi, shuning uchun normal tenglamalar tizimi quyidagi ko‘rinishni oladi :

$$\begin{cases} N a_0 = \Sigma Y \\ a_1 \Sigma t^2 = \Sigma Yt \end{cases} \quad \text{Bundan: } a_0 = \frac{\Sigma Y}{N} = \bar{Y} \quad \text{ba} \quad a_1 = \frac{\Sigma Yt}{\Sigma t^2}$$

Mehnat bozorining rivojlanishi va ravnaq topishida avvalambor aholi sonining o‘sib borishi uning demografik jarayonlari tug‘ilish va vafot etish ko‘rsatichlari muhim o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda avvalambor aholi soning kelgusidagi ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi va aholi sonining prognozi uning kelgusidagi sonini aniqlash bu mehnat resurslarining soni qanchalik o‘zgarish (ko‘payish yoki kamayish)i borasidagi prognozlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasi jami aholi soni dinamikasi va prognoz darajalarini to‘g‘ri chiziqli trend tenglamasini tuzish orqali ko‘rib chiqamiz.

3.9-jadval ma’lumotlaridan shu ma’lum bo‘ladiki O‘zbekiston Respublikasi axolisi soni o‘rganilayotgan davrlar mobaynida yani 2010-yildan 2022-yilgacha yiliga o‘rtacha 605,4 (ming kishi)ga ko‘paygan. Olingan ma’lumotlar asosida O‘zbekiston Respublikasi aholisining kelgusidagi sonini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

3.9-jadval

O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi soning trend tenglamasi asosidagi prognozi (ming kishi)⁵⁴.

| Yillar | Doimiy aholi soni (ming kishi) | Shartli yillar , t | t ² | y*t | Y _t | prognoz | t | Doimiy aholi soni (ming kishi) |
|--------------|--------------------------------|--------------------|----------------|-----------------|-----------------|-------------|----|--------------------------------|
| 2010 | 28001,4 | -6 | 36 | -168008,4 | 28246,6 | 2024 | 8 | 36202,6 |
| 2011 | 29123,4 | -5 | 25 | -145617,0 | 28814,9 | 2025 | 9 | 36770,9 |
| 2012 | 29555,4 | -4 | 16 | -118221,6 | 29383,2 | 2026 | 10 | 37339,2 |
| 2013 | 29993,5 | -3 | 9 | -89980,5 | 29951,5 | 2027 | 11 | 37907,5 |
| 2014 | 30492,8 | -2 | 4 | -60985,6 | 30519,8 | 2028 | 12 | 38475,8 |
| 2015 | 31022,5 | -1 | 1 | -31002,5 | 31088,1 | | | |
| 2016 | 31575,3 | 0 | 0 | 0 | 31656,3 | | | |
| 2017 | 32120,5 | 1 | 1 | 32120,5 | 32224,6 | | | |
| 2018 | 32656,7 | 2 | 4 | 65313,4 | 32792,9 | | | |
| 2019 | 33255,5 | 3 | 9 | 99766,5 | 33361,2 | | | |
| 2020 | 33905,2 | 4 | 16 | 135620,8 | 33929,5 | | | |
| 2021 | 34558,9 | 5 | 25 | 172794,5 | 34497,8 | | | |
| 2022 | 36024,9 | 6 | 36 | 211627,8 | 35066,1 | | | |
| Jami: | 411532,4 | 0 | 182 | 103427,9 | 411532,4 | | | |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Perezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

$$\text{Bunda: } a_0 = \frac{\sum Y}{n} = 31656,34 \text{ ming kishi;}$$

$$a_1 = \frac{\sum Yt}{\sum t^2} = 568,3 \text{ ming kishi.}$$

Demak, $Y_t = 31656,34 + 568,3 * t$ Olingan trend modeli bo‘yicha qator darajalarini tekislash natijalari 3.9-jadvalda keltirilgan. Keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasi aholisi 2024-yilda 36202,6 ming kishi, 2025-yilda 36770,9 ming kishi, 2026 yilda 37339,2 ming kishi, 2027-yilda 37907,5 ming kishi, 2028-yilda 38475,8 ming kishi, 2029-yilda 39044,0 ming kishi va 2030-yilda esa 39612,3 ming kishini tashkil etadi deb takidlashimiz mumkin bo‘ladi.

Aholi soni va uning kelgusidagi ko‘rsatkichlarining prognozi xaqida so‘z borganda, qilingan prognozlarga ta’sir etuvchi bir nechta omillarni inobatga olish maqsadga muofiq bo‘ladi. Aynan ana shu omillar prognoz natijalariga o‘zining salbiy yoki ijobjiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bularga misol tariqasida tabiiy va siyosiy

⁵⁴ Muallif ilmiy tadqiqot natijalari

omillarni hamda aholining demografik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar, tug'ilish-vafot etish, ajralish va nikoxdan o'tish kabi ko'rsatkichlarini ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi. Demak republikamiz doimiy aholi soni to'g'risidagi prognozimiz yuqoridagi ko'rsatkichlar ijobiy ekanligidan dalolat beradi. Quyida esa Respublikamiz doimiy aholi soni prognozi mehnat resurslariga qay darajada ta'sir ko'rsatganligini ko'rib chiqamiz. Buning uchun mehnat resurslari sonini xam aynan yuqoridagi trend tenglamasi asosida prognoz qilamiz.

3.10-jadval

O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari sonining trend tenglamasi asosidagi prognozi (ming kishi)⁵⁵

| Yillar | Mehnat resurslari soni (ming kishi) | Shartli Yillar , t | t ² | y*t | Y _t | prognoz | t | Doimiy aholi soni (ming kishi) |
|--------|-------------------------------------|--------------------|----------------|----------------|----------------|---------|----|--------------------------------|
| 2010 | 16726,0 | -6 | 36 | -100356 | 17201,2 | 2023 | 7 | 19704,6 |
| 2011 | 17286,4 | -5 | 25 | -86432 | 17393,8 | 2024 | 8 | 19897,2 |
| 2012 | 17564,3 | -4 | 16 | -70257 | 17586,4 | 2025 | 9 | 20089,7 |
| 2013 | 17814,1 | -3 | 9 | -53442 | 17778,9 | 2026 | 10 | 20282,3 |
| 2014 | 18048 | -2 | 4 | -36096 | 17971,5 | 2027 | 11 | 20474,9 |
| 2015 | 18276,1 | -1 | 1 | -18276 | 18164,1 | 2028 | 12 | 20667,4 |
| 2016 | 18488,9 | 0 | 0 | 0 | 18356,6 | | | |
| 2017 | 18666,3 | 1 | 1 | 18666,3 | 18549,2 | | | |
| 2018 | 18829,6 | 2 | 4 | 37659,2 | 18741,8 | | | |
| 2019 | 18949,0 | 3 | 9 | 56847 | 18934,3 | | | |
| 2020 | 19158,2 | 4 | 16 | 76632,8 | 19126,9 | | | |
| 2021 | 19334,9 | 5 | 25 | 96674,5 | 19319,5 | | | |
| 2022 | 19494,6 | 6 | 36 | 116968 | 19512,0 | | | |
| Jami: | 238636 | 0 | 182 | 35047,1 | 238636 | | | |

3.9-jadvaldan farqli ravishda 3.10-jadvalda O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari soni to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqishimiz mumkin bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi jami mehnat resurslari soni dinamikasi va prognoz darajalarini to'g'ri chiziqli trend tenglamasini tuzish va qator darajalarini tekislash tartibi orqali ko'rib chiqamiz. Bunda: jadval ma'lumotlariga tayangan

$$\text{holda } a_0 = \frac{\sum Y}{n} = 18356,65 \text{ ming kishi}; a_1 = \frac{\sum Yt}{\sum t^2} = 192,6 \text{ ming kishini tashkil}$$

etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Demak, $Y_t = 18356,65 + 192,6 * t$ tenglamasi orqali kelgusi yillarga prognozni amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi. 2023-yil uchun t ning qiymatini 7 deb olsak mehnat resurslari soni 19704,6 ming kishini

⁵⁵ Muallif ilmiy tadqiqot natijalari

tashkil etadi. Kelgusi yillar uchun mos ravishda 19897,2 ming kishi, 2025-yilda 20089,7 2026 yilda 20282,3 ming kishi, 2027-yilda 20474,9 ming kishi, 2028-yilda 20667,4 ming kishini tashkil etishi prognoz qilindi. Bu o‘z navbatida mamlakatimiz doimiy aholisi prognoz davrlarida o‘rtacha 1,52 % ga, mehnat resurslari soni esa o‘rtacha 0,95 % oshayotganilini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar respublikamizning barcha xududlariga ta’sir etgani singari Toshkent viloyatiga xam o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Quyida esa aynan yuqoridagi kabi to‘g‘ri chiziqli trend teglamasi orqali Toshkent viloyati aholisining dinamikasi va kelgusi yillar uchun prognozi bilan xam tanishib chiqamiz.

3.11-jadval

Toshkent viloyati doimiy aholi soni prognozi (ming kishi)⁵⁶.

| Yillar | Doimiy aholi soni (ming kishi) | Shartli yillar , t | t^2 | $y*t$ | Y_t | prognoz | t | Doimiy aholi soni (ming kishi) |
|---------------|---------------------------------------|---------------------------|-------------------------|-------------------------|-------------------------|----------------|----------|---------------------------------------|
| 2010 | 2585,9 | -6 | 36 | -15515,4 | 2602,3 | 2024 | 8 | 3049,5 |
| 2011 | 2644,4 | -5 | 25 | -13222,0 | 2634,2 | 2025 | 9 | 3081,5 |
| 2012 | 2671,0 | -4 | 16 | -10684 | 2666,2 | 2026 | 10 | 3113,4 |
| 2013 | 2695,7 | -3 | 9 | -8087,1 | 2698,1 | 2027 | 11 | 3145,4 |
| 2014 | 2725,9 | -2 | 4 | -5451,8 | 2730,1 | 2028 | 12 | 3177,3 |
| 2015 | 2758,3 | -1 | 1 | -2758,3 | 2762,0 | | | |
| 2016 | 2794,1 | 0 | 0 | 0 | 2794,0 | | | |
| 2017 | 2829,3 | 1 | 1 | 2829,3 | 2825,9 | | | |
| 2018 | 2861,2 | 2 | 4 | 5722,4 | 2857,9 | | | |
| 2019 | 2898,5 | 3 | 9 | 8695,5 | 2889,8 | | | |
| 2020 | 2941,9 | 4 | 16 | 11767,6 | 2921,8 | | | |
| 2021 | 2975,9 | 5 | 25 | 14879,5 | 2953,7 | | | |
| 2022 | 2939,7 | 6 | 36 | 17638,2 | 2985,7 | | | |
| Jami: | 36321,8 | 0 | 182 | 5813,9 | 36321,7 | | | |

Yuqorida ta’kidlaganimizdek O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonidagi o‘zgarishlar Toshkent viloyati doimiy axoli soniga xam o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Statistika agentligi ma’lumotlariga tayanadigan bo‘lsak, 2022-yil 1-oktyabr xolatiga Toshkent viloyati doimiy aholi soni 2939,7 ming kishini tashkil etadi. 3.3-jadval ma’lumotlarini taxlil qilish asnosida 2023-yilda Toshkent viloyati aholisi soni 3017,6 ming kishiga, 2024-yilda esa 3049,5 ming kishiga 2030-yilda esa 3241,2 ming kishiga etishini ta’kidlashimiz mumkin bo‘ladi. Bunda

⁵⁶ Muallif ilmiy tadqiqot natijalari

$$a_0 = \frac{\Sigma Y}{n} = 2794,0 \text{ ming kishi}; \quad a_1 = \frac{\Sigma Yt}{\Sigma t^2} = 31,9 \text{ ming kishini tashkil}$$

etganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Demak, $Y_t=2794,0+31,9*t$ bo‘lgan. O‘rganilayotgan davrlar mobaynida Toshkent viloyati aholisi soni o‘rtacha 1,03 % ga qo‘shimcha o‘sish ko‘rsatkichini tashkil etgan. Aholi soniga mos ravishda mehnat resurslari ham yillar davomida o‘sib borganligini quyidagi 3.12-jadval orqali tanishib chiqamiz.

3.12-jadval

Toshkent viloyati mehnat resurslarining o‘sish dinamikasi prognozi (ming kishi)⁵⁷

| Yillar | Mehnat resurslari soni (ming kishi) | Shartli yillar , t | t ² | y*t | Y _t | ppognoz | t | Mehnat resurslari (ming kishi) |
|-------------|-------------------------------------|--------------------|----------------|---------------|----------------|-------------|----|--------------------------------|
| 2011 | 1174,1 | -6 | 36 | -7044,6 | 1324,6 | 2023 | 7 | 1749,6 |
| 2012 | 1245,4 | -5 | 25 | -6227 | 1357,3 | 2024 | 8 | 1782,3 |
| 2013 | 1282,7 | -4 | 16 | -5130,8 | 1389,9 | 2025 | 9 | 1520,7 |
| 2014 | 1601,9 | -3 | 9 | -4805,7 | 1422,7 | 2026 | 10 | 1847,7 |
| 2015 | 1609,6 | -2 | 4 | -3219,2 | 1455,4 | 2027 | 11 | 1880,4 |
| 2016 | 1617,7 | -1 | 1 | -1617,7 | 1488,1 | 2028 | 12 | 1913,1 |
| 2017 | 1624,1 | 1 | 1 | 1624,1 | 1553,4 | | | |
| 2018 | 1627,2 | 2 | 4 | 3254,4 | 1586,1 | | | |
| 2019 | 1607,3 | 3 | 9 | 4821,9 | 1618,9 | | | |
| 2020 | 1615,4 | 4 | 16 | 6461,6 | 1651,5 | | | |
| 2021 | 1627 | 5 | 25 | 8135 | 1684,2 | | | |
| 2022 | 1616,4 | 6 | 36 | 9698,4 | 1716,9 | | | |
| Jami | 18248,8 | 0 | 182 | 5950,4 | 18248,8 | | | |

Bunda olingan ma’lumotlarga asosan: Toshkent viloyati jami mehnat resurslari soni uchun: Bunda: $a_0 = \frac{\Sigma Y}{n} = 1520,7$ ming kishi; $a_1 = \frac{\Sigma Yt}{\Sigma t^2} = 32,7$ ming kishi; Demak, $1520,7+32,7*t$ Olingan trend modeli bo‘yicha qator darajalarini tekislash natijalari 3.12-jadvalda keltirilgan bo‘lib, 2028 yilda Toshkent viloyati mehnat resurslari sonini 1913,1 ming kishiga etadi deb ta’kidlashimiz mumkin. Toshkent viloyati mehnat resurslari soni prognoz qilinayotgan davrlar mobaynida qo‘shimcha o‘sish sur’ati o‘rtacha 2,2 % ni tashkil etgan.

⁵⁷ Muallif ilmiy tadqiqot natijalari

Toshkent viloyatining iqtisodiyotda bandlar sonini omillar ta'sirida o'zgarishini ifodalovchi 1-ssenariy bo'yicha aniqlangan

$$Y = \frac{X_1^{0.16} * X_3^{0.04} * X_4^{0.04} * X_5^{0.18} * e^{5.72}}{X_2^{0.01467}}$$

(3.5*)-regressiya tenglamasi hamda unga ta'sir etuvchi omillar sifatida tanlangan har bir omilning $t=24$ ga teng bo'lgan holat uchun aniqlangan:

Toshkent viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmi – $X_1=-6047.4+4008.9*t$;

Viloyatdagi ishsizlik darajasi – $X_2=15,7-0.3*t$;

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni – $X_3=2784,8+2159,6*t$;

Aholi jon boshiga real daromadlar – $X_4=-1086,8+717,1*t$;

O'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi – $X_5=26,4+119,8*t$;

tenglamalar tizimidan foydalangan holda 1-ssenariy bo'yicha Toshkent viloyatining iqtisodiyotda bandlar sonini ko'p omilli prognoz natijalari aniqlanadi (3.9-jadval)

3.9-jadval

1-ssenariy bo'yicha Toshkent viloyatining iqtisodiyotda bandlar sonini ko'p omilli prognoz natijalari⁵⁸

| Yillar | Iqtisodiyotda bandlar soni, ming | YaHM mldr. so'm | Ihsizlik darajasi, % | Korxonalar soni, birlikda | Aholi jon boshiga real daromadlar, ming so'm | O'rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi, ming so'm |
|--------|----------------------------------|-----------------|----------------------|---------------------------|--|--|
| 2023 | 1254,8 | 90166,2 | 8,8 | 54615 | 16123,6 | 2901,6 |
| 2024 | 1264,7 | 94175,1 | 8,9 | 56775 | 16840,7 | 3021,4 |
| 2025 | 1274,3 | 98184 | 8,9 | 58934 | 17557,8 | 3141,2 |
| 2026 | 1283,7 | 102192,9 | 8,9 | 61094 | 18274,9 | 3261,0 |
| 2027 | 1292,8 | 106201,8 | 8,9 | 63254 | 18992 | 3380,8 |
| 2028 | 1301,8 | 110210,7 | 9,0 | 65413 | 19709,1 | 3500,6 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Toshkent viloyatining iqtisodiyotda bandlar sonini ko'p omilli prognoz natijalariga ko'ra, 2027-yilda viloyatda iqtisodiyotda bandlar soni 2023-yilga nisbatan 3,0 foizga oshib 1292,8 ming kishiga etishi kutilmoqda. Albatta, bunday ijobiy natijaga korxonalar sonini

⁵⁸ Muallif ilmiy tadqiqot natijalari

13,7 foizga, aholi jon boshiga real daromadlarni 15,1 foizga va o‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqini 14,2 foizga oshishi bilan Viloyat yalpi hududiy mahsulot hajmining 15,1 foizga o‘sib, 106201,8 mlrd. so‘mga etishi bilan erishiladi. Ushbu jadvalda keltiriladigan ishsizlik darajasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, vaqtga bog‘liq o‘zgarishi hisobidan Toshkent viloyatida ishsizlik darjasini 2028-yilda 9,0 foizni tashkil etishi kutilayotganligidan dalolat beradi.

Ammo, ishsizlik darajasini bunday o‘sishi, Toshkent viloyati mehnat bozorining samarali faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda biz tadqiqotimizda ishsizlik darajasining ko‘p omilli ekonometrik tahlilini ham o‘tkazganmiz. Yuqorida 3.1-paragrafda 2-ssenariy bo‘yicha aniqlangan

$$Y = \frac{X_5^{2.068} * e^{0.12}}{X_3^{1.17} * X_4^{0.5} * X_6^{0.44}}$$
 (3.6*)-regressiya tenglamasidan foydalanib qolgan omillarni vaqt ($t=24$) bo‘yicha quyidagi tenglamalaridan:

$$\text{Korxonalar soni} - X_3 = 2784,8 + 2159,6*t;$$

$$\text{Aholi jon boshiga real daromadlar} - X_4 = -1086,8 + 717,1*t;$$

3.10-jadval

2-ssenariy Toshkenti viloyatining ishsizlik darjasini o‘zgarishining ko‘p omilli proqnoz natijalari⁵⁹

| Yillar | Ishsizlik darjasasi, % | Korxonalar soni, birlikda | Aholi jon boshiga real daromadlar, ming so‘m | O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so‘m | Band aholining jon boshiga YaHM, ming so‘m |
|--------|------------------------|---------------------------|--|--|--|
| 2023 | 8,2 | 54615 | 16123,6 | 2901,6 | 73653,4 |
| 2024 | 7,9 | 56775 | 16840,7 | 3021,4 | 76870,6 |
| 2025 | 7,6 | 58934 | 17557,8 | 3141,2 | 80087,8 |
| 2026 | 7,3 | 61094 | 18274,9 | 3261 | 83305 |
| 2027 | 7,0 | 63254 | 18992 | 3380,8 | 86522,2 |

$$\text{O‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish haqi} - X_5 = 26,4 + 119,8*t;$$

$$\text{Iqtisodiyotda band aholi jon boshiga YaHM} - X_6 = -3559,4 + 3217,2*t.$$

⁵⁹ Muallif ilmiy tadqiqot natijalari

foydalangan holda 2-ssenariy Toshkent viloyatining ishsizlik darajasi o‘zgarishining ko‘p omilli prognoz natijalari aniqlanadi (3.10-jadval).

Jadvalda keltirilgan Toshkent viloyatining ishsizlik darajasi o‘zgarishining ko‘p omilli prognoz natijalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bunda avvalambor, nafaqat viloyatlarda balki, rivojlangan davlatlarda ham ishsizlik darajasini to‘laligicha bartaraf etib bo‘lmashligi balki, kamaytirish mumkinligini ilmiy tadqiqotlar tasdiqlagan. Bizning tadqiqotimizda ishsizlikning natijaviy omil sifatida olinishi bevosita mehnat bozorida uning ahamiyatligini aniqlashdan iborat bo‘lib, bu o‘z navbatida viloyatda 2028-yilga borib, ishsizlik darajasi 2023-yilga nisbatan 1,5 foizga kamayishi kutilmoqda, bu esa o‘z navbatida Toshkent viloyatida korxonalar sonini 2023-yilga nisbatan olganda 13,7 foizga, aholi jon boshiga real daromadlarni 15,7 foiz va viloyatda band aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmining 14,9 foizga oshib, mos ravishda korxonalar soni 63254 taga etganda, aholi jon boshiga real daromadlarni 18992,0 ming so‘mga va band aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmining 86522,2 ming so‘mga etishi bilan kuzatiladi.

Aniqlangan modelga asosan ta’kidlash joizki, bu borada viloyatda aholining jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmining oshishi katta rol o‘ynashi, bu o‘z navbatida aholi turmush farovonligini oshishi hamda aholining o‘z-o‘zini band qilishi orqali ko‘proq daromad olishini ko‘zda tutish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, ishsizlikni kamaytirish qonunchilik bazasini tizimli ravishda takomillashtirish va qonun ustuvorligini o‘rnatishni nazarda tutuvchi investitsiya muhitini yaxshilash masalasiga e’tibor qaratish lozim. Qulay investitsiya muhitini yaratish va investitsion jozibadorlik darajasini oshirish mexanizmlarini qo‘llash bo‘yicha Xitoy Xalq Respublikasi va dunyoning boshqa mamlakatlari tomonidan namoyish etilgan ijobiy tajribadan foydalanish mumkin. Xususan, investitsiya siyosati chora-tadbirlarini shakllantirishga tarmoq yondashuvini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lib, uning doirasida investitsiya siyosatining iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida eng samarali texnologiya va fanni talab qiluvchi loyihalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilishi ta’minlanadi.

Bandlik imkoniyatlarini kengaytirishning eng muhim sharti tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishdir. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining moslashuvchan mexanizmini qo'llash bilan bиргаликда konsalting xizmatlarini ko'rsatish orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha rivojlangan davlatlarining ijobiy tajribasini moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Investitsiya loyihibalarini maqsadli va imtiyozli kreditlashning tashkiliy-moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini faollashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratish uchun subsidiyalar tizimini ishlab chiqish va qo'llash, yangi korxonalar va ish o'rinalari tashkil etish, ishsizlarni, birinchi navbatda, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish bilan ta'minlash uchun subsidiyalar, shu jumladan hududiy subsidiyalar berish, biznes-inkubatorlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq joylarda ishsizlik holatini yumshatish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatining organik dehqonchilik va qishloq xo'jaligidan tashqari turlarini rivojlantirishni davlat tomonidan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash hisobidan qo'shimcha ish o'rinalari yaratish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatda bandlikning moslashuvchan shakllarining tarqalishi mehnat munosabatlarida kamsitish, xodimlarning ijtimoiy ta'minotini qisqartirish, ularning mehnat huquqlari buzilishining oldini olish uchun ularni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Qishloqdagi ishsizlik muammolarini hal qilish uchun bandlikka ko'maklashish markazlarining mahallalar bilan hamkorligini chuqurlashtirish zarur. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va ularni qayta ishlash bo'yicha mahalliy va hududiy agrobiznes klasterlarini shakllantirish doirasida tadbirkorlik va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining kuch tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikning strategik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, xizmat ko'rsatish sohasi klasterlari, yashil turizm va boshqalar alohida ahamiyatga ega.

Bu ish o'rinalari taklifini kengaytirish va muayyan hududda bandlik sohasidagi vaziyatni yumshatish imkonini beradi. Klaster harakati sezilarli turtki bo'lishi uchun uni davlat-xususiy sheriklik tamoyillari va markazsizlashtirish

shartlarini hisobga olgan holda huquqiy hamda tashkiliy jihatdan ta'minlashni takomillashtirish zarur.

Yangi ish o'rinalarining asosiy ta'minlovchilari bo'lmish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida davlat-xususiy sheriklikni keng yoyish davlat iqtisodiy siyosatining istiqbolli yo'nalishi bo'lib, u rivojlangan mamlakatlarda ham davlat va xususiy sektorning tashkiliy, moliyaviy va innovasion resurslarini birlashtirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida o'zini ko'rsatib kelmoqda.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan mehnat bozorida talab va taklifning yagona axborot bazasiga ega bo'lgan kompleks kadrlar hamda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish lozim va bu esa ishsizlik darajasi va davomiyligini kamaytirishga yordam beradi. Bandlik sohasidagi salbiy jarayonlarga qarshi kurashish aholini, shu jumladan ishsizlarni, ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoki bitirgan yoshlarni kasbga yo'naltirishning samarali tizimini shakllantirish, mehnat resurslari taklifini oshirish zarur bo'lgan kasblarni ommalashtirishni taqozo etadi. Bunday chora-tadbirlar ishsizlik xavfining oldini olish va minimallashtirish bo'yicha o'z vaqtida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

3-bob bo'yicha xuloca

1. Keljakda aholi farovonligini oshirish va turmush-darajasini yaxshilash maqsadida qishloq xo'jaligida band aholining ulushi 10-12% ga tushirilishi lozim. Bu holat qishloqda ishsizlik muammosini yanada murakkablashtiradi. Ammo viloyatda aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikdan himoya qilish murakkab hamda doimiy ravishda tartibga solib borishni talab etiladigan jarayon hisoblanadi. Buning o'ziga xos jihatlaridan biri avvalambor, qishloqda yangi ish o'rinalari yaratishning murakkabligi va demografik holat bilan izohlanadi. Mehnat resurslariga talabning oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir.

2. Mamlakatimizda aholi farovonligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va imtiyozlar, yangi ish o'rinalarining

yaratilishi, mehnatga layoqatli yoshdagagi aholi va ko‘p bolalik ayollar, o‘smirlar, nafaqaxo‘rlar va nogironlar faoliyatlarini moddiy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish viloyatda mehnat resurslariga talabni oshirishning muhim iqtisodiy tadbirlaridan biri hisoblanadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligida aholi bandligini oshirish va er uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-69-sonli qarorida ham qishloq joylarida aholi turmush darajasini oshirish, doimiy daromad manbalarini kengaytirish va aholi bandligiga ko‘maklashish borasida bir qator aniq vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan Toshkent viloyatida mehnat bozori samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi hisoblangan iqtisodiyotda bandlar soni bo‘yicha ko‘p omilli prognozi amalga oshirilib, 2028-yilda iqtisodiyotda bandlar soni 1301,8 ming kishini tashkil etishi aniqlandi. Bunga esa o‘z navbatida Toshkent viloyatining yalpi hududiy maxsulot (YaHM) hajmi 110210,7 mlrd. so‘mni, aholi jon boshiga real daromadlar 19709,1 ming so‘mni, o‘rtacha nominal hisoblangan oylik ish xaqqi 3500,6 ming so‘mni tashkil etishi bilan erishiladi. Viloyatdagi korxonalar soni esa 65413 tani tashkil etib, ishsizlik darajasi 9,0 % ga etishi aniqlandi.

4. Mehnat bozori samaradorlik ko‘rsatkichlarini ifodalovchi iqtisodiyotda bandlar soni bo‘yicha amalga oshirilgan prognoz natijalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ishsizlik darajasi 9,0 % ni tashkil etmoqda. Ammo ishsizlik darajasining ko‘tarilishi mehnat bozoriga salbiy ta’sir ko‘rsatib, uning samarali faoliyatiga to‘sinqilik qiladi. Shuning uchun ham ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida pragnoz natijalarini davom ettirib, ishsizlik darajasini 2027-yilda 7,0 % ga tushirishga erishildi. Bu esa o‘z navbatida viloyatdagi korxonalar soni 63254 taga, aholi jon boshiga real daromadlar 18992,0 ming so‘mga, o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3380,8 ming so‘mga, band aholining jon boshiga YaHM 86522,2 ming so‘mga etishi bilan erishilgan.

XULOSA

Mintaqada mehnat bozori rivojlanishini statistik o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ularning mohiyati asosan quyidagilardan iborat:

1. Toshkent viloyati mehnat bozorida nomutanosiblikning vujudga kelishi natijasida mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini ta’minlash, mehnat bozorida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning vujudga kelish sabablarini aniqlash, undagi mehnat resurslariga talab va taklifning hududlar bo‘yicha parametrlarini tahlil qilish dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

2. Toshkent viloyatida mehnat bozorini tartibga solish bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, hududlar bo‘yicha mehnat resurslariga talab va taklif, ular o‘rtasidagi raqobatning miqdoriy ko‘rsatkichlarini statistik usul va modellar yordamida aniqlanish hamda mazkur bozor parametrlarini alohida hudud doirasida tahlil etish, uning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari, usul va vositalari to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni shakillantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Toshkent viloyati mehnat resurslariga bo‘lgan talabning oshishi va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha amalga oshiriladigan muhim iqtisodiy chora-tadbirlar, bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan kreditlar ajratish yo‘li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bo‘sh ish joylari yarmarkasini o‘tkazish, ishga marxamat mono markazlari faoliyatini rivojlantirish, o‘z vaqtida nafaqalar va moddiy yordam berish hamda kuchli ijtimoiy himoyani ta’minlash aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga ijobiy ta’sir etadi.

4. Ish izlayotgan fuqarolarga kerakli axborot olish imkonini beradigan ma’lumotlar bozasi yaratilishi, ya’ni bo‘sh ish o‘rnlari bo‘yicha shakllantirishni nazarda tutuvchi yangi ish joylari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasidan viloyat aholisining kengroq foydalanishi, ishsizlik darajasini pasaytirishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

5. Toshkent viloyati aholisi milliy qadiryatlaridan kelib chiqgan xolda, kasanachilikni rivojlantirish, milliy hunarmandchilik faoliyati, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, shaxsiy, yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorva mollarini boqish kabi ish bilan bandlikning samarali shakllarini rivojlantirish muhim axamiyat kasb etadi.

6. Ishsizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish maqsadida mintaqada raqamli tehnologiyalar markazlari faoliyatini rivojlantirish natijasida xar yili mehnat bozoriga o'rtacha 42,8 ming kishi qayta tayyorlanib, aniq kasblarga yo'naltirilmoqda.

7. Toshkent viloyati aholisida "yashil" iqtisodiyotga o'tish davridagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini takomillashtirish maqsadida seminar-teninglar tashkil etish xamda "yashil" iqtisodiyot madaniyatini shakillantirish hamda 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga to'la amal qilish natijasida mehnat bozordan 6,0 mlnga yaqin ish o'rnlari yo'q bo'lishi va 9,0 mlnga yaqin yangi ish o'rnlari tashkil etilishi kutilmoqda.

8. Toshkent viloyati mehnat bozorida "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida "axborot texnologiyalari" sohasini va viloyat aholisini raqamli texnologiyalardan foydalananish samaradorligini oshirish maqsadida IT parklar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda aholini kamrab olish ko'rsatkichlari tizimini ya'nada takomillashtirish natijasida aholining bandlik darajasini 10-15 % ga ko'tarishi mumkin.

